

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCH
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
YŷK: 368.03:330.322(575.1)

KENJAYEV ILHOM G'IYOZOVICH

**SUG'URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING
METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy maslahatchi: i.f.d., dots. X.M.Shennayev

Toshkent shahri-2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I-BOB.	SUG‘URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	15
§1.1.	Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining nazariy asoslari.....	15
§1.2.	Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.....	34
§1.3.	Sug‘urta tashkilotlarida investitsion kapital yetarliligini ta’minlashning institutsional shartlari.....	53
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	66
II-BOB.	SUG‘URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING YO‘NALISHLARI TAHLILI.....	68
§2.1	Sug‘urta tashkilotlari investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishda sug‘urta xizmatlarining o‘rni.....	68
§2.2	Sug‘urta tashkilotlarini institutsional investor sifatida tasniflash.....	79
§2.3	Mamlakat ichki investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatining rolini oshirish.....	91
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	107
III-BOB	SUG‘URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING XORIJ TAJRIBASI.....	109
§3.1	Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar sug‘urta bozorlarida investitsiya siyosatini tashkil etilishi.....	109
§3.2	Sug‘urta zahiralarini investitsiyaga yo‘naltirishning xorij tajribasi.....	118
§3.3	Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Xitoy tajribasi.....	134
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	146
IV-BOB	O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	149
§4.1	Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi va takomillashtirish yo‘llari.....	149
§4.2	Sug‘urta tashkilotlari investitsiya portfelini boshqarish va uning optimalligini ta’minlash yo‘llari.....	161
§4.3	Sug‘urta kapitalidan investitsiya sifatida foydalanish samaradorligini oshirish va baholash (DEA modeli asosida) yo‘llari.....	178
	To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....	195
	XULOSA.....	197
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	200
	ILOVA.....	214

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida sug'urta tashkilotlari institutsional investor sifatida o'zlarining sug'urta faoliyati davomida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni to'playdi va ushbu mablag'lar vaqtinchalik bo'sh mablag'lar bo'lib, ularni iqtisodiyot sohaslariga investitsiya sifatida yo'naltiradi. Bu esa sug'urta iqtisodiyotning muhim va yetakchi sohasi sifatida tan olishga olib keladi. Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotlari investitsiya aktivlari bo'yicha ko'plab kredit va moliya institutlaridan ustun turadi va daromadlarining katta qismini fond bozoridagi investitsiya operatsiyalaridan oladi. Sug'urta amaliyotida sug'urta zaxiralarini qoplanishini qo'llashda yangi aktivlar turlari kiritilgan bo'lib, sug'urta tashkilotlari oldida inflyatsiya darajasini yuqoriligi va moliyaviy instrumentlar notekis sharoitida foydaliligi va likvidliligining yo'qligi sababli investitsiya portfelining ishonchli tamoyillarini shakllantirish bo'yicha katta murakkabliklar yuzaga kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotida investitsiyalar bo'yicha daromad normalarini hisobga olgan holda sug'urta to'lovlarini diskontlashtirish xos bo'lgan hayot sug'urtasi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda Evropa davlatlarining ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari uchun investitsiya faoliyatidan daromad olish muhimdir. Mazkur sug'urta tashkilotlarida likvidlik masalasi ikkinchi darajali hisoblanadi, chunki sug'urta tashkilotlariga jalb qilingan mablag'lar asosan uzoq muddatli mablag'larni tashkil qiladi. Angliya sug'urta tashkilotlarining aktivlari tarkibini olib qaraydigan bo'lsak, ularda "davlat qimmatli qog'ozlari, mahalliy organlarning qimmatli qog'ozlari va chet el qimmatli qog'ozlari 25 foiz atrofida, kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari 30 foizdan ortiq, ssudalar va ipoteka kreditlari 2-5 foiz, ko'chmas mulkka qo'yilmalar 3-5 foizni va boshqa sohalarga 35 foiz atrofida mablag'lar yo'naltiriladi"¹. Yuqoridagi holatlar sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etmoqda.

¹<https://www.louisepryor.com> - Enhanced capital requirements and Individual Capital Assessments Insurers; Comite Europeen des Assurances.pdf

O‘zbekiston moliya bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko‘lamini kengaytirish orqali sug‘urta tashkilotlarining investitsion jara yonlarda faol ishtirokini ta‘minlash bugungi kunning muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. “Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish”² hamda sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug‘urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish³, shuningdek, sohani tartibga solish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta‘minlash sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirishga asoslangan sifat ko‘rsatkichlari tizimini zamon talablari asosida shakllantirish va ularning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265 son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 6-oktyabrdagi PQ-387-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 1-martdagi PQ-108 son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ma‘lum darajada xizmat qiladi

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son [Farmoni](#)

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-mart “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 108-son qarori

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴. Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirish hamda ushbu faoliyat samaradorligini oshirish, ichki va tashqi bozorlarda yetakchi investitsiyaviy manba sifatida rolini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar dunyoning ko‘plab xalqaro tashkilotlari hamda milliy oliy ta’lim muassasalari tomonidan, xususan, sug‘urta va qayta sug‘urta vositachilari xalqaro assotsiatsiyasi (BIPAR), sug‘urta iqtisodiyotini o‘rganish xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Study of Insurance Economics), Aktuariylar xalqaro tashkiloti (International Actuarial Association, IAA), Xalqaro sug‘urta jamiyati – MSO, sug‘urtalovchilarning texnik risklari xalqaro ittifoqi (The International Association of Engineering Insurers, IMIA), risklarni tahlil qilish bo‘yicha xalqaro jamiyat (The Society for Risk Analysis, SRA), Shvesariyaning xalqaro qayta sug‘urta kompaniyasi Swiss Re, University of Colorado (AQSh), Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi moliya universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan olib borilmoqda.

Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi natijalar

⁴Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida ishlab chiqilgan: London School of Economics and Political Science. https://www.lse.ac.uk/Statistics/Research/Probability-in-Finance-and-Insurance?from_serp=1; Toulouse School of Economics (TSE). <https://www.tse-fr.eu/solving-key-economic-and-social-issues>; International Association of Insurance Supervisors. <https://www.iaisweb.org/home>; European Insurance and Occupational Pensions Authority. <https://www.eiopa.europa.eu/>; European insurance and reinsurance federation. <https://www.insuranceurope.eu/search/type/Publication>; Swiss Re Institute. <https://www.swissre.com/>; The Geneva Association. <https://www.genevaassociation.org/publications>; Insurance Information Institute. <https://www.iii.org/>; McKinsey & Company. <https://www.mckinsey.com/search?q=insurance%20industry>; Michigan State University. <https://libguides.lib.msu.edu/insurance>; National Bureau of Economic Research (NBER). <https://www.nber.org/non-life-insurance>; Economist Intelligence Unit Economist Group. <https://www.eiu.com>; International Association of Insurance Supervisors (IAIS) <https://www.iaisweb.org/>; Wharton School of the University of Pennsylvania. <https://www.wharton.upenn.edu/research-centers/>; Massachusetts Institute of Technology (MIT). <https://economics.mit.edu/faculty/afink>; Institute for Economic Policy Research of the Stanford University. <https://siepr.stanford.edu/people/senior-fellows>; Российский экономический университет им. Г.В.Плеханова. <https://www.rea.ru/>.

olingan, xususan: sug'urta bozoridagi mavjud tizimli risklarni aniqlash va cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan yaxlit yondashuv (Holistic Framework) doirasida nazorat uslubiyoti ishlab chiqilgan (Sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasi, IAIS); hayot va umumiy sug'urta sohasiga taalluqli bo'lgan sug'urta mahsulotlarining tarif stavkalari matematik modellashtirish asosida optimallashtirilgan, sug'urta tashkilotlarining sug'urta portfeli va sug'urta zahiralari aktuar hisob-kitoblar hamda tavakkalchilikka asoslangan holda tartibga solishga oid yondashuvlar doirasida shakllantirish uslubiyoti takomillashtirilgan (International Actuarial Association (IAA)), sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish, yirik sug'urta tashkilotlariga qo'yilayotgan xalqaro talablar, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha Solvency II xalqaro standarti amaliyotga joriy etilgan (European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA)); sug'urta tashkilotlarining investitsion salohiyatini oshirish, bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan stress-test tizimi raqamli texnologiyalarni tatbiq etish asosida takomillashtirilgan (Finansovyy universitet pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii); sug'urta mahsuloti iste'molchilari tomonidan sug'urta da'volarini asossiz taqdim etish va sug'urtalovchilar tomonidan da'volarni ko'rib chiqishni bekor qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish asosida sug'urta shartnomasida tomonlarning manfaatlarini teng va adolatli ifodalash shartligi ilmiy asoslangan (University of Colorado, National Bureau of Economic Research (AQSh)).

Dunyo amaliyotida sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni optimal boshqarishning metodologik asoslarini takomillashtirish, sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va moliyaviy salohiyatini oshirish orqali ularning investitsion faoliyati samaradorligini oshirish; sug'urta tashkilotlarining investitsiya imkoniyatlarini empirik tahlillar va modellar asosida baholash, sug'urtalovchilarning aktivlarini

ishonchli investitsiya ob'ektlariga makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, monetar siyosat va inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda joylashtirish uslubiylotini takomillashtirish, global iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini ekonometrik modellashtirish asosida sug'urta zahiralari qo'yilgan talab va me'yorlarni qayta ko'rib chiqish, sug'urpta tashkilotlarining moliya bozorlaridagi ishtirokini turli imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etish orqali rag'batlantirishning samarali vosita va uslublari bo'yicha izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi-olimlar D.Bland, Sangyong Hana, Gene C.Lai, Chia-Ling Hoc, A.N.Bautov, T.E.Gvarliani, V.Yu.Balakireva, E.S.Grebenщikov, V.N.Edronova, Ye.A.Mizikovskiy, V.V.Frolova, Ye.L.Prokofeva, O.V.Sirsov, V.E.Yanov, Ye.V.Mazanova, N.Yu.Kamenskaya, T.Mak larning⁵ ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan: T.M.Baymuratov, A.S.Nurullaev, N.R.Qo'zieva, I.X.Abduraxmonov, Q.M.Qo'ldoshev, F.R.Xasanov, X.M.Shennaev, R.S.Azimov, O.T.Yuldashev, N.M.Babaeva, Sh.A.Zakirxodjaeva, N.A.Mavrulova, D.F.Abduturapovalar sug'urta sohasining turli yo'nalishlari va

⁵Bland D. Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute 1993. Перевод на русский язык 1998., Sangyong Hana, Gene C. Lai b, Chia-Ling Hoc. Corporate transparency and reserve management: Evidence from US property-liability insurance companies.//Journal of Banking and finance 96 (2018) 379-392 p. Баутов А.Н. Прогнозирование и управление инвестициями страховых организаций на фондовом рынке//Страховое дело 2004 №1 с.2-8.; Гварлиани Т.Е., Балакирева В.Ю. Денежные потоки в страховании. Москва, Финансы и статистика, 2004 с.336.; Гребенщиков Э.С. Инвестиционная составляющая страхового бизнеса: новые источники и возможности.//Финансы 2005 №3, с.30-34.; Едронova В.Н., Мизиковский Е.А. Учет, оценка доходности и анализ финансовых вложений. Москва, Магистр: ИНФРА-М 2011 с.316.; Фролова В.В. Управление инвестиционной деятельностью Российских страховых компаний. Автореферат дисс на соис. учен. степ. к.э.н.— Краснодар, 2013.— с.27.; Прокофьева Е.Л. Инвестиционные возможности страховых компаний: монография. Абакан: Издательство Государственного Университета Хакасии, 2008. с.112.; Сирцов О.В. Методы прогнозирования, анализ инвестиционных возможностей страховых компаний. Автореферат дисс на соис.учен.степ. к.э.н. — Москва, 2009.— с.20.; Янов В.Э. Оптимизация и регулирование, организация принципов инвестиционной деятельности страховых компаний. Автореферат дисс на соис. учен. степ. к.э.н. — СПб, 2001.— с.23.; Мазанова Е.В. Статистический анализ инвестиционных возможностей страховых компаний. Автореферат дисс на соис. учен. степ. к.э.н. — Оренбург, 2008. — с.25.; Каменская Н.Ю. Реформа страхового надзора в Европейском союзе //Страховое дело 2012, №6 с.51-54.; Мак Т. Математика рискованного страхования //перев. с англ. Курносовой Е. Москва Олимп-Бизнес, 2005 с.418.

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirishning ba'zi bir yo'nalishlari tadqiq qilingan⁶.

Ushbu mavzuda doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, aynan, hududlar sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITM-3. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatining nazariy asoslarini dunyo

⁶Baymurotov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Avtoref. diss.i.f.n.–T.:2004,25b; Nurullayev A.S. O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklarini sug'urtalash masalalari.Avtoref.diss.i.f.n.–T.:2007,28 b; Qo'ziyeva N.R.Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, -T.:BMA-2008, Abduraxmonov I.X. O'zbekiston Respublikasida javobgarlikni sug'urtalashning amaliyotini takomillashtirish.Avtoref.diss.i.f.n.–T.: 2010 y. 26 b., Qo'ldoshev Q.M.O'zbekistonda o'zvaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,-T.:TMI-2019.260 b., Xasanov F.R. O'zbekistonda kiber risklarni sug'urtalash masalalari. i.f.b.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T.: TMI -2021. 106 b., Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. –T.: iqtisod-moliya 2021-336 b., Azimov R.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati.–T.:TMI-2022., Yuldashev O.T. O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishning konseptual asoslari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,T.:TMI-2022.281 b., Babayeva N.M. Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,-T.:TMI-2023.218 b., Zakirxodjayeva Sh.A. Hayotni sug'urta qilish sohasini rivojlantirish yo'nalishlari. i.f.b.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,T.:TMI-2023.135 b., Mavkulova N.A. Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari.i.f.d.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,T.:TMI-2023.283 b., Abduturapova D.F. Iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug'urta munosabatlarini takomillashtirish. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.:TDIU-2023

olimlarining bu boradagi nazariy qarashlarini o'rgangan holda tadqiq qilish;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati bilan bog'liq moliyaviy manbalarni tahlil qilish;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyatini ochib berish va o'ziga xos tomonlarini tadqiq etish;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati hamda sug'urta faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning zarurati va amal qilish mexanizmini tadqiq etish;

sug'urta tashkilotlari investitsion potensialining oshib borish omillarini o'rganish;

chet mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati bo'yicha ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni O'zbekiston sug'urta bozoriga joriy etish masalalarini tadqiq qilish;

hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatida tutgan o'rniga baho berish va mavjud muammolarni aniqlash;

sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya siyosatini ishlab chiqish tamoyillarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati bilan bog'liq faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslari takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada, analitik tahlil, boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish, qiyosiy tizimli tahlil, respondentlar bilan ishlash, eksperiment, statistik analitika, matematik Multi-stage DEA modeli va grafik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini amalga oshirishda o'zi uchun foydalanishga olingan ko'char va ko'chmas mulklar hamda bankka qo'yilgan

omonatlarni chegirgan holda jami investitsiya qilingan mablag'larga nisbatan daromadlilik darajasini sug'urtalovchilar reytingini yuritishdagi mezonlardan biri sifatida kiritish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini diversifikatsiyalash maqsadida sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlari hisoblangan yo'nalishlaridan biri sifatida lizing tashkilotlariga qarzlar berish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish maqsadida sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlari hisoblangan yo'nalishlardan biri sifatida lizing tashkilotlariga qarzlar berish hamda berilgan qarzlarining umumiy summasi sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining ustav kapitalini 10 foizdan oshmaslik taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning kamida 50 foizini ushbu sohadagi professional tashkilotlarga ishonchli boshqaruvini berish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari tomonidan ixtiyoriy pensiya sug'urtasi hamda uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq) hayot sug'urtasi turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari hisobidan shakllangan mablag'larni investitsiya qilish maqsadida inflyatsiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug'urta tashkilotlari investitsiya samaradorligini yanada oshirish va baholash maqsadida DEA (operatsion muhitni tahlil qilish) modelini joriy etish taklif etilgan;

sug'urta kompaniyalari investitsiya salohiyatini oshirish maqsadida Solvency II standartlarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari belgilab olingan va ushbu xususiyatlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan;

hayot sug'urtasi va umumiy sug'urta sohalarining investitsion faoliyati tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

sug'urtalanuvchilar mablag'laridan shakllantiriladigan sug'urta kapitalining asosiy yoki aylanma mablag'lar kategoriyasiga kiritish masalasiga aniqlik

kiritilgan;

sug'urta tashkilotlari investitsion imkoniyatlarini belgilab beruvchi omillar aniqlangan va xususiyatlari ochib berilgan;

uzoq muddatli hayot sug'urtasining ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanligi hamda mazkur sug'urtadan mamlakat iqtisodiyotida investitsiya manba sifatida samarali foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida ushbu sug'urta turiga soliq imtiyozlari taqdim etish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari tomonidan ixtiyoriy pensiya sug'urtasi hamda uzoq muddatli hayot sug'urtasi turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari hisobidan shakllangan mablag'larni investitsiya qilish maqsadida inflyatsiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltirish taklif etilgan.

g'arb qayta sug'urtalovchi tashkilotlar tajribasida samarali qo'llanilayotgan "falokatli" deb nomlangan obligatsiyalarni amalda qo'llash taklif etildi va uning xususiyatlari hamda afzalliklari ko'rsatib berilgan;

AQSh sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining statistikasi o'rganilib, ushbu mamlakat sug'urta tashkilotlari o'z mablag'larining 8 foizdan ortig'ini ipoteka ssudalariga yo'naltirayotganligini va ushbu tajribani mamlakatimizda bugungi kunda ipoteka uylari jadal qurilayotgan bir paytda O'zbekiston sug'urta bozorida qo'llash taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ular doirasida foydalanilgan yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, aniq me'yoriy hujjatlar va iqtisodiy normativ hamda Sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalari milliy agentligi, O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi hamda "Kafolat Hayot Insurance" AJ ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek ekonometrik tahlilga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini

takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus, mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borilishida keng ko'lamda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirishda, sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni investitsiya ob'ektlariga joylashtirishda, investitsiya ob'ektlariga limitni belgilashda hamda sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni investitsion kompaniyalariga berishda, qonun va qonun osti hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Sug'urta ishi", "Sug'urta biznesi" va "Sug'urta menejmenti" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining metodologik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini amalga oshirishda o'zi uchun foydalanishga olingan ko'char va ko'chmas mulklar hamda bankka qo'yilgan omonatlarni chegirgan holda jami investitsiya qilingan mablag'larga nisbatan daromadlilik darajasini sug'urtalovchilar reytingini yuritishdagi mezonlardan biri sifatida kiritish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1- martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalari milliy agentligining 2025-yil 14- fevraldagi 04/19-2-1-633-son ma'lumotnomasi). Natijada sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini amalga oshirishda o'zi uchun foydalanishga olingan ko'char va ko'chmas mulklar hamda bankka qo'yilgan omonatlarni chegirgan holda jami investitsiya qilingan mablag'larga nisbatan daromadlilik darajasini sug'urtalovchilar reytingini yuritishdagi mezonlardan biri sifatida kiritishga erishilgan;

sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatini diversifikatsiyalash maqsadida sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlari hisoblangan yo'nalishlaridan biri sifatida lizing tashkilotlariga qarz berish taklifidan foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-iyuldagi 67-sonli buyrug'i bilan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Nizomning 3-bandiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan (O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining 2025-yil 13-fevraldagi №020-son ma'lumotnomasi). Natijada sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarning investitsion samaradorlik darajasi 10 foizga oshdi;

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish maqsadida sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlari hisoblangan yo'nalishlaridan biri sifatida lizing tashkilotlariga qarz berish hamda berilgan qarzlarning umumiy summasi sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining ustav kapitalini 10 foizdan oshmaslik taklifidan foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-iyuldagi 67-sonli buyrug'i bilan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizomning 24-bandiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining 2025-yil 13-fevraldagi №020-son ma'lumotnomasi). Natijada sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya ob'ektlari hisoblangan yo'nalishlaridan biri sifatida lizing tashkilotlariga qarz berish imkoniyati yaratildi.

sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning kamida 50 foizini ushbu sohadagi professional tashkilotlarga ishonchli boshqaruviga berish taklif etilgan. Mazkur taklif "Kafolat Hayot Insurance" AJ tomonidan amaliyotga joriy etildi (Kafolat Hayot Insurance" AJ ning 2025-yil 28-yanvardagi №08-03/17-son ma'lumotnomasi). Natijada "Kafolat Hayot Insurance" AJ ning iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiya mablag'larining samaradorlik darajasi 10 foizga oshib, tavakkalchilik darajasi 30 foizga kamayishiga erishilgan;

sug'urta tashkilotlari tomonidan ixtiyoriy pensiya sug'urtasi hamda uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq) hayot sug'urtasi turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari hisobidan shakllangan mablag'larni investitsiya qilish maqsadida inflyatsiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish taklif etilgan. Mazkur taklif "Kafolat Hayot Insurance" AJ tomonidan amaliyotga joriy etildi ("Kafolat Hayot Insurance" AJ ning 2025-yil 28-yanvardagi №08-03/17-son ma'lumotnomasi). Natijada "Kafolat Hayot Insurance" AJ tomonidan davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi oshdi, investitsion xatarlar kamaydi va yuqori investitsion daromad olish imkoniyati yuzaga keldi hamda investitsiya portfelidagi mablag'lar hajmi 15 foizga oshdi.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 21 ta, jumladan 12 ta xalqaro va 8 ta respublika miqiyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 10 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 225 betni tashkil etadi.

I-BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

§1.1. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining nazariy asoslari

Har qanday mamlakatda sug'urta mexanizmining samarali amal qilishi fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulkiga turli hodisalar natijasida yetkaziladigan zararlarni hamda yuridik shaxslarning mulki va faoliyati bilan bog'liq zararlarni qoplab berishi, yirik miqdordagi tabiiy yoki texnogen falokatlar katta hududlar bo'ylab yuz berganda, zararlarni qoplab berishi bilan mamlakatning moliyaviy imkoniyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim soha hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda sug'urtaning, ayniqsa jamg'arib boriladigan turlarini rivojlanish darajasiga qarab, mamlakat monetar tizimining rivojlanganligi va inflyatsiyaning darajasi hamda investitsion faoliyatning rivojlanganligiga baho berishadi.

Sug'urta sohasi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan holda uchta asosiy o'zaro bog'liq funksiyalarni amalga oshiradi:

- 1) sug'urtalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari hisobidan maxsus sug'urta fondini shakllantirish;
- 2) sug'urta shartnomalarida ko'zda tutilgan hodisalar yuz berishi natijasida sug'urtalanuvchining hayoti, sog'lig'i, mulki va boshqa shaxslar oldidagi javobgarligi bilan bog'liq zararlarni maxsus sug'urta fondi hisobidan qoplash;
- 3) o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni vaqtinchalik investitsiyaga yo'naltirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash kerak, sug'urta tizimi yuqorida keltirilgan funksiyalarni bajarishda qonunchilik talablariga amal qilgan holda mustaqil bo'lishi zarur va hech qanday moliya-iqtisodiy institutlarga bo'ysunishi yoki qandaydir darajada qaram bo'lishi mumkin emas. Ayniqsa sug'urta kompaniyasining mazkur funksiyalarni amalga oshirishida uning investitsiya faoliyati muhimlik kasb etadi. Bizning ushbu dissertatsiya ishimiz aynan ushbu faoliyatning sifati va samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan.

Shuningdek sug'urta sohasida ko'p yillardan beri tadqiqotlar olib borayotgan iqtisodchi olim professor Q.Qo'ldoshevning fikriga ko'ra, sug'urta faoliyati tadbirkorlik tavakkalchiligi oqibatlarini, xalqaro munosabatlardagi boshqa jarayonlarda yuzaga keladigan turli xil hodisalarni bartaraf etishi, kelgusidagi sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi hamda iqtisodiyot sohalariga investitsiyalar jalb qilish uchun turli xil investitsiya instrumentlarini shakllantirish hamda investitsiya risklarini yumshatishi bilan ajralib turadi⁷.

Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatining asosini sug'urta faoliyatini amalga oshirish natijasida shakllanadigan sug'urta zahiralarini tashkil etadi. Sug'urta zahiralarini sug'urta tarifining netto qismi hisobidan shakllanadigan bir necha turdagi sug'urta zahiralarini (majburiy va ixtiyoriy shakldagi) o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkiloti o'zining to'lovga qobilligini ta'minlash, faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq boshqa xarajatlarni qoplash va bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida moliyaviy faoliyatni amalga oshiradi.

Xitoyda kapital bozori doimiy ravishda o'sib bordi va ushbu mamlakatda Xitoyning o'ziga xosliklarini mujassamlashtirgan, ushbu mamlakat iqtisodiyotining amal qilishi jarayonida shakllangan iqtisodiy konsepsiyani aks ettiruvchi kapital bilan operatsiyalar tushunchasi paydo bo'ldi.

Shuningdek Chrysovalantis Gaganisa, Iftekhar Hasanb, Panagiota Papadimitrie, Menelaos Tasioue lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xalqaro moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyingi sug'urta bozorining holati tahlil qilingan va ular tomonidan qilingan xulosaga ko'ra, dunyo mamlakatlarida sug'urtaga bo'lgan talab o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, ularning fikriga ko'ra, sug'urta kompaniyalari investitsiya portfellarining risklilik darajasi ortadi. Shu tufayli bunday holatda sug'urta kompaniyalari tomonidan to'g'ri tashkil etilgan investitsion siyosat muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalarining zahiralarini investitsiya

⁷Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. 08.00.07- "moliya, pul muomalasi va kredit" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya aftoreferati. T.: 2019 5-b.

sifatida joylashtirish siyosati davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda va ular uchun mos keladigan, nisbatan kam riskli investitsiya ob'ektlarini yaratib bermoqda⁸.

Umuman olganda, kapital operatsiyalar yoki kapital bilan operatsiyalar uning o'sishini maksimal darajaga yetkazish maqsadida, ishlab chiqarish omillarini optimal taqsimlash va ishlab chiqarish tarkibini dinamik ravishda maqbullashtirish orqali rejalashtirish, tashkil qilish va boshqarish bilan uning o'sishini maksimal darajada oshirish demakdir⁹. Kapital operatsiyalar o'zida kapitalni maksimal darajada ko'paytirishga qaratilgan butun tijorat faoliyatini mujassamlashtiradi.

Ushbu disinvestitsiya ishi sug'urta tashkilotlarining kapital bilan ishlash jarayonining investitsion faoliyat qismiga yo'naltirilgan. Sug'urta kompaniyalarining kapital bilan operatsiyalari sug'urta kompaniyasi aktivlarini taqsimlashning uzoq muddatga mo'ljallangan faoliyatidir.

Sug'urta tashkilotlari aktivlarini hamda portfelini taqsimlashni o'zlarining biznes-strategiyalariga asosan amalga oshiradi. Sug'urtalovchi aktivlarining kelajak xavfsizligi, likvidligi va foydaliligidan tashqari, ular uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini, xususan, kapitalni boshqarish strategiyasini hisobga olishlari kerak. Sug'urta fondlaridan maqsadli foydalanish sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lib, ya'ni sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'sh bo'lgan mablag'larni qo'shimcha foyda olish maqsadida yo'naltiradi, yo'naltirilgan mablag'lardan samarali foydalanish evaziga sug'urta tashkilotlarining samaradorlik ko'rsatkichini oshiradi¹⁰. Bu masalada sug'urta kompaniyalari har tomonlama mos keladigan moliyalashtirish kanallarini tanlay olishlari muhim hisoblanadi. Investitsiya uchun yo'nalishni belgilab olishda, sug'urta kompaniyasining asosiy biznesi bilan aloqador bo'lgan yoki ushbu biznesning rivojlanishiga yordam beradigan sohani tanlash kapital ko'payishiga

⁸Chrysovalantis Gaganisa, Iftekhar Hasanb, Panagiota Papadimitrie, Menelaos Tasioue. National culture and risk-taking: Evidence from the insurance industry. *Journal of Business Research* 97 (2019) 104-116 p.

⁹Tang Cheng. A comparative study of state-owned capital operation models. Beijing: Party School of the Central Committee of the Communist Party of China. 2008. – P.40.

¹⁰Liu Ping. Principles and Application of Insurance (Second Edition). Beijing: Tsinghua University Press, –2013. – P.226

strategik yo'l bilan erishish imkonini beradi¹¹. Tushumning muddatlari va summaları o'rtasidagi hamda sug'urta to'lovlari o'rtasidagi farq sug'urta kompaniyasi mablag'larini realizatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, kapital bozori globallashtiruvining kuchayishi bilan sug'urta fondlarining o'rnini sug'urta kompaniyasining asosiy faoliyatiga nisbatan kuchaydi¹².

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida hajmi bo'yicha va boshqa ba'zi ko'rsatkichlari bo'yicha AQSh sug'urta bozoridan keyingi o'rinda turgan Xitoy sug'urta bozori xususiyatidan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalari kapital manbasini quyidagicha tasniflash mumkin (1.1-jadvalga qarang). Bizningcha ushbu tasniflash dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun mos keladi.

1.1-jadval

«Sug'urta tashkilotlarining kapital manbalari¹³»

№	Kapital manbalari	Tarkibi	Mohiyati
1	Xususiy kapital	Ustav kapitali	Sug'urta tashkiloti aksionerlari tomonidan kapitalga to'lanadigan badal summaları
		Korporativ zahira fondi	Sug'urta tashkiloti foydasi va xususiy kapitali hisobidan shakllanadigan ortiqcha daromad zahirasi va aktivlar ko'payishi hisobidan shakllanadigan kapital zahira fondlarini o'z ichiga oluvchi jamg'arma fond
2	Sug'urta javobgarlik zahirasi	Umumiy zahira	Falokatlar uchun mo'ljallangan zahira fondi
		Muddati tugagan majburiyatlar zahirasi	Keyingi moliyaviy yilda "xavfsizlik yostig'i"ni tashkil etish maqsadida hisobot yilida kelib tushgan sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladi
3	Sug'urtaviy javobgarlik zahirasi	Bartaraf etilmagan zararlar zahirasi	Yil oxirida sodir etilgan va bu bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan zahira hisobidan shakllantiriladi
		Hayot sug'urtasi bo'yicha javobgarlik zahirasi	Sug'urta tashkiloti tomonidan uzoq muddatli javobgarliklar uchun tashkil etilgan zahira (polisning amal qilishi to'xtatilmagan bo'lsa). Shaxsiy sug'urta turlari uchun qo'llaniladi
4	Sug'urta himoyasi fondi		Sug'urta tashkilotlari tomonidan yil oxirida profitsit mablag'lar hisobidan shakllantiriladigan zahira fondi
5	Boshqa mablag'lar		Sug'urta tashkiloti to'lashi kerak bo'lgan soliq, kreditorlik qarzi va korporativ qarz kabi "alohida schet"dagi mablag'lar va boshqa turli aktivlar bilan bog'liq risklar uchun zahiralar

¹¹Liu Ping. Principles and Application of Insurance (Second Edition). Beijing: Tsinghua University Press,–2013.– P.226 .

¹²Chi-Chuan Lee, Chien-Chiang Lee, Yan-Yu Chiou. Insurance activities, globalization, and economic growth: New methods, new evidence// J.Int.Financ. MarketsInst. Money.– 2017.– Vol.51.– P.155–170.

¹³Финансовая система Китая: учебник/В.В.Иванов, Н.В.Покровская, С.А.Белозеров [и др.]–Москва: Общество с ограниченной ответственностью "Проспект", 2021.– 352 с.

Yuqorida keltirilgan jadvalda sugʻurta kompaniyasi kapitalining manbalarini kengroq koʻrib chiqamiz. Yaʼniy sugʻurta tashkilotining ustav kapitali va sugʻurta fondi kapitali uning xususiy kapitalini tashkil etadi.

Sugʻurta tashkilotlari ustav kapitali sugʻurta tashkiloti aksionerlari tomonidan haqiqatda toʻlangan jami kapital hisoblanadi. Sugʻurta tashkilotining birlamchi kapitali boʻlib aksioner kapitali hisoblanadi.

Shuningdek “Sugʻurta toʻgʻrisidagi Xitoy qonuni”ning 69-moddasida qayd etilishicha yangi tashkil etilgan sugʻurta tashkilotining ustav kapitalini minimal miqdori 200 million yuanni tashkil etishi kerak¹⁴. Demak, Xitoyda sugʻurtaning barcha sohalarida faoliyat koʻrsatadigan sugʻurta kompaniyalari uchun bir xil meʼyor belgilangan.

Oʻzbekiston sharoitida sugʻurta tashkilotlari uchun belgilangan minimal ustav kapitalining miqdori 2003 yildan to 2012 yilga qadar AQSh dollari birligida boʻlgan boʻlsa, 2012 yildan 2018 yilga qadar ming yevroda boʻlib, 2019 yildan to hozirga qadar mlrd.soʻm miqdorida shakllantirilishi belgilandi.

Oʻzbekiston milliy sugʻurta bozorida sugʻurta kompaniyalari faoliyat yoʻnalishlaridan kelib chiqib ustav kapitallarining minimal miqdorlari belgilangan va ushbu miqdorlar yillar davomida oshirib borilmoqda. Ushbu holat quyida keltirilgan 1.2-jadval maʼlumotlarida keltirilgan. Oʻzbekiston milliy sugʻurta bozorining xususiyatlaridan kelib chiqqanda, ustav kapitali minimal miqdorlarini belgilashning bunday tartibi bugungi kun uchun mos keladi deyish mumkin. Chunki sugʻurtalovchilar tomonidan sugʻurtalanuvchilarga koʻrsatiladigan xizmatlar yoki tarif koeffitsiyentlari oshib borishni taqozo etmoqda. Bu esa sugʻurtalovchilar ixtiyorida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni shakllanishiga olib kelib, sugʻurtalovchilarning investitsiya qilish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy barqarorlik darajasini mustahkamlashga olib kelmoqda.

¹⁴Insurance Law of the People's Republic of China. URL: <http://www.moj.gov.cn> (Дата обращения: 26.12.2021)- Chinese Ministry of Justice website.

«Sug'urta kompaniyalari uchun belgilangan ustav kapitallarning minimal miqdori¹⁵»

Sug'urta tarmoqlari	Yillar						
	2003 ¹⁶	2008 ¹⁷	2012 ¹⁸	2014 ¹⁹	2018 ²⁰	2020 ²¹	2022 ²²
	Ming AQSh dollari birligida (2012 yildan ming Yevro, 2018 yildan mln.so'mda, 2020 yildan mlrd.so'mda)						
Umumiy sug'urta	150	750	1125	1500	7500	-	-
Hayot sug'urtasi	250	1000	1500	2000	10000	-	-
Majburiy sug'urta	500	1500	2250	3000	15000	-	-
Qayta sug'urta (faqat qayta sug'urtalash bo'lsa)	2000	4000	5000	6000	30000	-	-
Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida ixtiyoriy sug'urta	-	-	-	-	-	15000	20000
Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida majburiy sug'urta	-	-	-	-	-	25000	35000
Faqat qayta sug'urta	-	-	-	-	-	35000	45000

Yuqoridagi jadvalda sug'urta kompaniyalari uchun belgilangan ustav kapitallari minimal miqdorlari umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida ixtiyoriy sug'urta, umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida majburiy sug'urta hamda faqat qayta sug'urta bo'yicha keltirilgan bo'lib, ushbu ustav kapital miqdorlari yillar davomida oshib borganini kuzatishimiz mumkin. Chunki yil sayin sug'urtalovchilar tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari kengayib, sug'urtalovchilarning to'lov

¹⁵Tegishli qonun osti hujjatlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁶Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli qarori, Prezidentning 2007-yil 10-apreldagi 618-son qarori.

¹⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-son.

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2008-yil 21-maydagi PQ-872-son.

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2011-yil 31-maydagi PQ-1544-son.

²⁰O'sha manbadagi PQ asosida

²¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustda "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

²²O'sha manbadagi PQ asosida

qobilyatini oshirishni taqozo etmoqda. Ammo Xitoy sug'urta kompaniyalari uchun belgilangan ustav kapitalining minimal miqdorlari bilan O'zbekiston sug'urta kompaniyalari uchun belgilangan minimal miqdorlarni taqqoslaganimizda katta farq mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Ya'ni hozirgi kurs bilan hisoblaganda Xitoy sug'urta kompaniyasi 347 mlrd.so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi talab etiladi. Bu O'zbekiston sug'urta kompaniyalar uchun belgilangan minimal miqdordan o'n baravar yuqori. Albatta bunday katta ustav kapitali birinchidan, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi yuqori bo'lishini ta'minlasa, ikkinchidan, investitsiyaviy salohiyatining ham yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ustav kapitali minimal miqdorlarining pastligi kichik sug'urta kompaniyalarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, yirik sug'urta kompaniyalariga ko'ra kichik sug'urta kompaniyalarining tashkiliy-xo'jalik xarajatlari 10% yuqori bo'lar ekan. Shu bilan birga, yirik sug'urta kompaniyalarida har jihatdan imkoniyatlar yuqori bo'lib, bu rentabellikning yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek 1.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni o'rganishni davom ettiradigan bo'lsak, sug'urta kompaniyasi sug'urta operatsiyalari natijasida jiddiy falokatga duch kelgan yoki jiddiy yo'qotishlar yuzaga kelgan hollarda aksiyadorlar sug'urta kompaniyasining asosiy vazifasi bajarilishini ta'minlash uchun o'z kapitali bilan sug'urta kompaniyasining faoliyati uchun javobgarlikni zimmalariga oladilar²³. Bunday xarajatlar sug'urta kompaniyasining boshqa kapitallari hisobidan qoplanishi mumkin emas, chunki muammoni bunday hal etish kompaniyaning bundan keyingi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq, sug'urta kompaniyasi barqaror ishlagan holatda va ustav kapitalining hajmi kamaymagan holatda, uning bir qismini investitsiya qilishga ruxsat beriladi.

"Sug'urta faoliyati" to'g'risidagi Xitoy Qonunining o'rnatilgan talablariga muvofiq sug'urta tashkilotlari jamg'arma fondini yaratishi kerak, uni korporativ zahira fondi deb ham atashadi. Ushbu zaxira kpitali sug'urta tashkilotining

²³Li Juan. Research on the Utilization and Supervision of Insurance Funds in my country: Based on the analysis of the case of the equity dispute between Qianhai Life Insurance and Vanke. Changsha: Hunan Normal University 2019, 65p.

zararlarini qoplash uchun ishlatib bo'lmaydigan ustav kapitalini ko'paytirishdan iborat.

Ortiqcha daromad zahirasi kompaniya foydasidan, shuningdek kompaniyaning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Sug'urta kompaniyasining operatsion yo'qotishlari bo'lgan holatda, u yo'qotishlarni qoplash uchun ortiqcha zahiradan foydalanish ustuvorligiga ustunlik beriladi. Shuning uchun, ortiqcha zahira barqarorlik nuqtai nazaridan nisbatan past va ushbu turdagi kapitalga investitsiya qilinganda, likvidlik talabini to'g'ri hisobga olish kerak.

Sug'urta javobgarligi zahirasi, sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga ortiqcha majburiyatlar olish va bartaraf etilmagan da'volarni bartaraf etish uchun sug'urta kompaniyasi sug'urta mukofotlaridan keladigan daromadlarni chiqarib tashlaydi²⁴. Bu sug'urta kompaniyasining operatsion daromadi emas, balki sug'urta kompaniyasining sug'urtalanuvchilar oldidagi javobgarligining puldagi ifodasidir. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari zahira sifatida sug'urta zahirasiiga ekvivalent bo'lgan aktivlarni o'zida saqlab turishi va o'z majburiyatlarini har qanday vaqtda bajarishga tayyor turishlari kerak. Javobgarlik zahirasi to'rt qismga bo'linadi: umumiy zahira, tugagan majburiyatlar zahirasi, bartaraf etilmagan zararlar zahirasi va sug'urta himoyasi fondi.

Umumiy zahira, sug'urta kompaniyalari tomonidan falokatlar yoki yirik xavflar uchun mo'ljallangan holda shakllantiriladi. Umumiy zahira kompaniya tomonidan hisobotlar topshirilgandan keyin kompaniyaning yillik foydasi hisobidan shakllantirilishi kerak. Uzoq davr davomida jamg'arilgandan keyin yirik masshtabdagi fondlar shakllantirilishi mumkin²⁵.

Tugamagan javobgarliklar zahirasi tugamagan mukofotlar zahirasi deb ham yuritiladi. Ushbu zahira keyingi moliyaviy yilda "xavfsizlik yostig'i"ni tashkil etish maqsadida, hisobot yilida kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan

²⁴Lai Yao. Talking about the measurement of insurance liability reserves from the perspective of insurance supervision // Modern economic information.– 2015.– No 4.– P.313.

²⁵Wen Limin, Li Junxue, etc. Estimation of liability reserve in linear model with random effects // Journal of Jiangxi University of Science and Technology.–2021.– Vol. 42.– No 4.– P.103-108.

shakllantiriladi. Bu shu bilan bog'liqki, sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan sug'urta javobgarligi davri moliyaviy yil vaqti bilan to'liq mos kelmaydi²⁶.

Bartaraf etilmagan da'volar uchun zahira kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladi. Ushbu zahira sug'urta kompaniyalari joriy moliyaviy yilda hisobotning so'nggi sanasigacha kompensatsiya to'lovlarisiz olingan sug'urta majburiyatlarini bajarish uchun mo'ljallangan²⁷. Ya'ni, sug'urta hodisasi joriy yilda yuz bergan holatda da'voni bartaraf etish keyingi yilda amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli javobgarlik zahirasi hayot sug'urtasi bo'yicha javobgarlik zahirasi sifatida tanilgan bo'lib, ushbu zahira sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan va polisning amal qilishi tugatilmagan uzoq muddatli javobgarliklar uchun mo'ljallangan.

Yuqorida keltirilgan zahiralar sug'urta shartnomalarini tuzish davomida shakllantirib boriladi va ular bir vaqtning o'zida qonunchilikda belgilangan tartib va miqdorlarda iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya sifatida yo'naltiriladi.

Iqtisodiyotga zarur darajadagi investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion faolligini oshirishga va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga olib keladi²⁸.

Investitsiyalar turli shakllarga ega bo'lib, ular ichida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar investitsiya qabul qiluvchi uchun eng maqbul variant hisoblanadi. Sug'urta tashkilotining ovoz berish huquqini beruvchi oddiy aksiyalarining 10 foizdan kam bo'lmagan ulushiga yoki aksiyadorlik jamiyati shaklida bo'lmagan kompaniyada mos ulushga egalik qiluvchi investor to'g'ridan-to'g'ri investor hisoblanadi. «To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash» tushunchasi o'zaro bog'liq korxonalar o'rtasida mablag' va moddiy resurslar kiritilishini ham qamrab oladi.

²⁶Lin Ruiquan. Research on China's Non-Life Insurance Unexpired Liability Reserve Methodology//Marketing industry.— 2019.—Vol.29.— P. 276 .

²⁷Huang Hongjin. Evaluation and Empirical Study on the Life Insurance Reserve under C-ROSS: Based on CIR Model. Hefei: An Hui University of Finance & Economics, 2020,— P. 3-4.

²⁸Kenjaev I.G'. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. i.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.T.:TMI 2019 y.21 b.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar aksiyadorlik kapitali, reinvestitsiya qilingan daromad va boshqa daromatlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta tashkilotlarining portfel investitsiyalar investitsion fondlari aksiya va paylari hamda qarz qimmatli qog'ozlari kabi shakllarga ega. Xalqaro bozorida muomalada bo'lgan qarz qimmatli qog'ozlari bozor narxlarida aks ettiriladi.

Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati yuqori risk darajasiga ega bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Rossiyalik tadqiqotchi I.T.Balabanova riskka shunday ta'rif beradi: risk – yo'qotishlar xavfining mavjudligi; omadga ishongan holdagi harakat²⁹. A.Mur va K.Xiarndenlar esa risk – xavf-xatar. Istalmagan hodisaning yuz berish ehtimolligi sifatida qaraladi va uning yuz berishi qimmatliklarning yo'qotilishiga³⁰ olib keladi, deya ta'rif beradi. Sharp U.F., Aleksandr G.Dj., Deyli DJ. tomonidan tayyorlangan "Investitsiyalar" nomli kitobda risk – investitsiya qiymati bilan bog'liq noaniqlik deya ta'rif berilgan³¹.

Sug'urta tashkiloti o'zining boshlang'ich kapitali, sug'urta faoliyatidan olgan foydasi hamda jalb qilingan mablag'lardan tashkil topgan vaqtinchalik bo'sh mablag'larni qo'shimcha daromad olish maqsadida ishonchli va foydali sohalarga belgilangan vaqt oralig'ida qaytib olish sharti bilan joylashtirishi investitsiya faoliyatidir. Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatidan olgan daromadi sug'urta tashkiloti tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari narxini pasaytirish imkonini beradi va bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Umuman olganda, sug'urta tashkilotining faoliyatini ikki qismga bo'lish mumkin: aktiv va passiv qismlar. Passiv qismda sug'urta tashkiloti sug'urta xizmatlarini sotish va qoplamalarni amalga oshirish maqsadida sug'urta zahiralarini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Aktiv qismda esa vaqtinchalik bo'sh mablag'larni investitsiya ob'ektlariga joylashtirish bilan shug'ullanadi.

Sug'urta tashkilotlari aktiv hamda passiv qismdagi faoliyati ham birday muhim hisoblanadi. Passiv qismdagi faoliyati bilan iqtisodiyot tarmoqlarining


²⁹Балабанова И.Т. Риск-менеджмент. Москва: Финансы и статистика, 1996.122-стр.

³⁰ Мур А., Харнден К. Руководство по безопасности бизнеса. Москва: Филин, 1998, 128-стр

³¹Шарп У.Ф., Александр Г.Дж., Дейли ДЖ. Инвестициялар. Ingliz tilidan rus tiliga tarjima. M.: "Инфра-М" 1997, 87-стр.

barqaror faoliyati ta'minlanadi. Bunga mazkur tarmoqlarda kutilmaganda yuz bergan turli hodisalar natijasida ko'rilgan zararlarni o'z vaqtida qoplab berish bilan erishiladi. Aktiv qismda esa passiv pul mablag'larini aktiv kapitalga aylantirib, ya'ni investitsiya faoliyati orqali qo'shimcha daromad yuzaga keltiriladi.

Sug'urta tashkilotlari daromadining ko'payib borishi ularning investitsiya faoliyatini kengayib borishiga imkoniyat yaratadi. Shundan kelib chiqib biz ushbu rasmda sug'urta tashkilotlarining daromad manbalarini quyidagicha tasvirladik (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. «Sug'urta tashkilotining daromad manbalari»³²

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'iga bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008-yil

³² Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

15-dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida"gi Nizomda sug'urta tashkilotining investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lari³³ ajratilgan aktivlardan hamda o'z mablag'laridan tashkil topganligi keltirilgan. Sug'urta tashkiloti tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi to'plangan sug'urta mukofotlari, ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda, rezerv kapitali, qo'shilgan kapital hamda boshqa jamg'arma fondlarning hajmiga bog'liq. Shundan kelib chiqib biz sug'urta tashkilotlarining investitsiya mablag'lari manbalarini quyidagicha tasvirladik (1.2-rasmga qarang).



«1.2-rasm. Sug'urta tashkilotlari investitsiya mablag'larining manbalarini»³⁴

Yuqorida tasvirlangan rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotining ustav kapitali investitsiya faoliyatini kengayishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun sug'urta tashkilotining ustav kapitali miqdorini oshirib borish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz sug'urta tashkilotlarining aksariyat qismi o'z ustav kapitallarini faqat davlat tomonidan belgilangan minimal holatdagina oshirib kelmoqda.

Xorijiy mamlakatlar sug'urta tashkilotlari yalpi foyda tarkibini tadqiq qilishda shunday xulosaga kelish imkonini berdiki, mazkur sug'urta tashkilotlarida ijobiy moliyaviy natija asosan investitsiya faoliyati hisobiga yuz beradi. Chet

³³O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'iga bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida"gi Nizom.

³⁴Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mamlakatlarda investitsiya faoliyati sug'urta tashkilotining moliyaviy jihatdan barqarorligi, o'z vaqtida qabul qilingan va samarali amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati va investitsiya strategiyasiga bog'liq. Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyati quyidagi yo'nalishlardan tashkil topadi:

1. Investitsiya manbalarini o'rganish, tahlil qilish va rejalashtirish.
2. Sug'urta tashkilotining investitsiya aktivlarini shakllantirish.
3. Sug'urta tashkiloti tomonidan shakllantirilgan investitsiya aktivlarini joylashtirish.
4. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini nazorat qilish va investitsiya risklarini boshqarishni tashkil qilish orqali investitsiya mablag'lari samaradorligini ta'minlash.

Sug'urta tashkilotlari investitsiya resurslarini boshqarishning asosiy elementi passivlarning o'zgarish dinamikasini tahlil qilgan holda rejalashtirish, shu maqsadda tushumlar va to'lovlarning uzoq muddatli prognozini amalga oshirish kerak. Bu holatda matematik statistika va matematik modellash usullaridan foydalanish zarur.

Sug'urta tashkiloti investitsiya faoliyatini amalga oshirish bilan bir tomondan investitsiya risklari bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olsa, ikkinchi tomondan sug'urta majburiyatlari bilan bog'liq risklar bo'yicha javobgarlikni zimmasiga oladi. Ana shu xususiyati bilan sug'urta tashkiloti boshqa sohalardan farq qiladi. Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyati uning sug'urta faoliyati oldida javobgarligi bilan o'ziga xos hisoblanadi. Chunki u sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'sh mablag'larni investitsiya ob'ektlariga joylashtiradi. Shuning uchun sug'urta tashkiloti investitsiyaga yo'naltirgan mablag'larini istalgan vaqtda qaytarish imkoniyatiga ega bo'lishi muhim shartlardan hisoblanadi.

“Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati” tushunchasini iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida va chop etilgan maqolalarida yetarli darajada yoritilmagan. Shuning uchun ushbu tushunchaga quyidagi ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyati deganda investitsiya imkoniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasini va uni foydalilik, likvidlilik va ushbu faoliyat bilan bog'liq risklar o'rtasidagi optimal darajani topish nuqtai nazaridan investitsiya portfelining optimal tarkibini shakllantirishni ko'zda tutgan holda investitsiya resurslarini iqtisodiyot sohalariga joylashtirish tushuniladi³⁵.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish sug'urta va investitsiya yo'nalishlari o'rtasida juda yaqin bog'lanish mavjud ekanligi haqidagi xulosa chiqarishga olib keldi.

Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini strategik, taktik va operativ tadbirlardan iborat zanjir deyish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining quyidagi yo'nalishdagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif etamiz:

1. Strategik yo'nalishdagi tadbirlar:

sug'urta tashkilotini umumiy kompleks tahlil qilish va shu asosda, rivojlantirishning umumiy strategiyasini ishlab chiqish;

sug'urta tashkilotining investitsiya strategiyasini va siyosatining xususiyatlariga aniqlik kiritish. Bunda investor sifatida sug'urta tashkiloti uchun investitsion daromadni birinchi o'ringa emas, investitsiya kiritilayotgan sohaning ishonchliligi masalasini birinchi o'ringa qo'yish lozimligini e'tiborga olish. Bu esa sug'urta faoliyatining yuqori riskli faoliyat ekanligi bilan izohlanadi. O'z o'rnida sug'urta tashkiloti o'zi tuzga sug'urta shartnomalari asosida olgan majburiyatlarini bajarishi va buning uchun mustahkam moliyaviy zahiraga ega bo'lishi uchun ortiqcha risklarni qabul qilmasligi lozim;

investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini bir necha variantda, ya'ni optimistik, pessimistik va realistik ko'rinishlarda prognozlashtirish kerak;

sug'urta tashkiloti o'z filiallari va sho'ba sug'urta tashkilotlari faoliyatini davriy ravishda kompleks baholab borishi va shu asosda investitsiya strategiyasini qayta ko'rib chiqishi;

³⁵Muallif tomonidan berilgan ta'rif.

sug'urta tashkilotining sug'urta xizmati uchun tarif siyosatini va uning investitsiya strategiyasini takomillashtirish yo'llarini izlashi;

marketing va investitsiya strategiyalarini takomillashtirish imkoniyatini izlashi;

investitsiya jarayoniga maksimal darajada investitsiya imkoniyatlarini jalb etish masalasini aniqlashtiri borishi;

sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rasatishi mumkin bo'lgan omillarni (endogen va ekzogen xususiyatga ega bo'lgan) aniqlash;

Ikkinchi guruh taktik yo'nalishdagi tadbirlar:

joriy o'zgarishlarga mos ravishda investitsiya dasturini ishlab chiqish va tizimli ravishda tuzatib borish;

sug'urtalovchining moliyaviy resurslari miqdorini byudjetlashtirish shaklida aniqlash va bir necha variantda, ya'ni optimistik, pessimistik va real variantlarda prognozlashtirish;

sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyati samaradorligini baholash va investitsiya siyosatini optimallashtirish bo'yicha choralar ishlab chiqish;

investitsiya aktivlari tuzilmasini va sifatining qonunchilikka mosligini aniqlash uchun investitsiya portfelini tizimli ravishda nazorat qilib borish;

investitsiya faoliyatiga sezalarli ta'sir ko'rsatuvchi omillarga, ularning optimal parametrlari asosida sifat va miqdoriy limitlar o'rnatish;

turli yo'nalishlar bo'yicha investitsiya portfelining diversifikasiya darajasini baholash va moliyaviy risklar darajasini tushirish, hamda sof investitsiya daromadlarini oshirish maqsadida qo'shimcha investitsiya diversifikasiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini izlash;

sug'urta tashkilotlarini investitsiya faoliyatining asosiy jihatlarini (masalan, o'ta konservativ, mo'tadil konservativ yoki agressiv elementlari mavjud konservativ) va qoldiq xususiy kapitalini hisobga olgan holda sug'urta tashkiloti uchun ruxsat etilgan va kritik hisoblangan moliyaviy risklar darajasini aniqlash

bilan birga, qimmatli qog'ozlar operasiyalarini amalga oshirish reglamentini ishlab chiqish;

sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatini optimallashtirish maqsadida vaqti-vaqti bilan zahiralarini aniqlab borish;

xarajatlarni iqtisod qilish maqsadida ularni boshqarish tizimini optimallashtirish;

investitsiyalar bo'yicha limitlarning ochiq pozitsiyalarini belgilash va vaqti-vaqti bilan ularni yangilab borish;

soliqqa tortishni optimallashtirish yo'llarini izlash.

Uchinchi guruh operativ boshqarish yo'nalishidagi tadbirlar:

to'lovga qobillikni boshqarish tizimi doirasida aktivlar va passivlarning vaqt parametrlariga rioya qilish maqsadida, investitsiya kapitali transformasiyasi jarayonini boshqarish;

to'lovga qobillikni boshqarish sifatini joriy baholash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash;

sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyati natijaviyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillarga o'rnatilgan sifat va miqdor limitlarining har kungi nazoratini amalga oshirish;

Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatini boshqarishda aniqlangan o'zgarishlarni likvidlilik balansi, daromadlilik va risk nuqtai nazaridan optimal bo'lgan tuzatishlarni amalga oshirish orqali mustahkamlab borishga imkon beradi. Shuni alohida esda tutish kerakki, joriy o'zgarishlar, shu jumladan qonundagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda reglamentga tizimli ravishda mos o'zgartirishlar kiritib borish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash joyizki, sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati quyidagi o'ziga xos tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati ko'p tarkibiy qismli va darajali bo'lishi.

2. Moliyaviy risklar darajasini nazorat qilishni oqilona optimallashtirishga investitsiyadan olingan sof daromadni yo‘naltirish.

3. Investitsiya siyosatini tizimli ravishda to‘g‘ri olib borish.

4. Likvidlilik, daromadlilik va risklar darajasi o‘rtasidagi balans bilan qat’iy bog‘lanish asosida investitsiya portfeli tuzilmasini shakllantirish.

5. Investitsiya strategiyasini sug‘urta tashkilotining umumiy strategiyasi, shu jumladan marketing va tarif strategiyasiga qat’iy bog‘lash.

6. To‘lovga qobillikni boshqarish tizimi doirasida investitsiyaga yo‘naltirilgan mablag‘larni kundalik boshqarib borish.

7. Sug‘urta tashkilotlari moliyaviy resurslarini joylashtirish sifatini tizimli ravishda baholab borish.

Sug‘urta va investitsiya faoliyatlarining o‘zaro aloqasi investitsiya faoliyatining o‘ziga xos tomonlarini belgilab beradi. Shu bois, sug‘urta tashkilotlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun mazkur bog‘lanishni hisobga olish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, uning sifat va miqdor jihatidan baholash kerak. Mazkur majmualari baholash asosida sug‘urta tashkilotlari to‘lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligini oshiruvchi uning faoliyatidagi ikki yo‘nalish o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘un balans shaklini o‘rnatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyati nazariy asoslarining mazmuni haqida xususan Orlanyuk-Maliskaya L.A., Turbina K.E., Fyodorova T.A. kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqiy ilmiy doiralarda investitsiya va sug‘urta faoliyati o‘rtasida yaqin aloqa borligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur aloqaning mavjudligiga nazariy jihatdan ta‘rif berish kerak³⁶.

Biz tomonimizdan berilgan takliflarning barchasida sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish tizimi bog‘liqligini yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu faoliyatni samarali tashkil etishda zanjirning har bir bo‘g‘inini sinchiklab o‘rganish sug‘urta va investitsiya yo‘nalishlari o‘rtasida aloqa borligini nazariy jihatdan asoslashga imkon yaratadi.

³⁶Kenjaev Ilhom G‘iyosovichning “Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari” mavzusida yozilgan dissertatsiya ma‘lumotlari asosida keltirilgan.

Bizning tasavvurimizda sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatini tashkil etish tizimi uch darajali tarkibiy qismlardan iborat; har bir daraja bo'yicha yuklatilgan vazifalar bir-biridan farq qiladi. Masalan, har bir darajadagi alohida olingan qismlar alohida maxsus vazifalarni bajarishi bilan farqlanadi.

Sug'urtalovchilarning strategik yo'nalishdagi tabirlar tuzilmasida sug'urta tashkilotining faoliyatini baholash, uni strategik rejalashtirish va prognozashtirish kabi global masalalar yechiladi. Taxmin qilinadiki, rivojlanishning umumiy strategiyasi doirasida investitsiya strategiyasi shaklanadi.

Shuningdek strategik yo'nalish tuzilmasida investitsiya imkoniyati ko'lamini, ya'ni investitsiya faoliyatidan daromad olish maqsadida investitsiya aktivlariga joylashtirilishi mumkin bo'lgan sug'urta tashkilotining moliyaviy resurslar qismini³⁷ aniqlash va prognozashtirish muhim ahamiyatga ega. Demak, investitsiya imkoniyatining hajmini investitsiya faoliyati belgilab beradi. Investitsiya imkoniyati tuzilmasida sug'urta zaxiralari katta ulushga ega. Investitsiya va sug'urta faoliyatlari o'rtasida yaqin aloqa mavjudligi ko'rinib turibdi. Ushbu ikki faoliyat yo'nalishlari o'rtasida aloqa mavjudligini aniq misollarda ko'rsatish mumkin. Masalan, sug'urta operasiyalarining intensiv rivojlanishi sharoitida sug'urta tashkilotining investitsiya imkoniyatlari oshadi va aksincha, sug'urtalash hajmi kamayishi bilan, odatda, investitsiya faoliyatida sustlashish kuzatiladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, shuni alohida qayd etish mumkinki, sug'urta faoliyatini boshqarishda yo'l qo'yilgan xatolar natijasida sug'urta tashkiloti uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'ta noqulay sharoit sug'urta operasiyalari hajmini kamaytirib yuborishi mumkin. Shuning uchun sug'urta tashkilotining faoliyati bilan bog'liq ko'rsatilgan tendensiyalarning mavjudligi to'lovga bo'lgan qobiliyatsizlik riskiga va moliyaviy barqarorlik yo'qolishiga olib kelishi mumkin³⁸.

³⁷Kenjaev Ilhom G'iyosovichning "Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusida tayyorlangan dissertatsiya ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

³⁸Kenjaev Ilhom G'iyosovichning "Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusida tayyorlangan dissertatsiya ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Bizning fikrimizcha, mazkur sharoit, amaliy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin. Ushbu holat sug'urta tashkilotining katta hajmdagi xususiy kapitaliga hamda qo'shimcha moliyaviy mustahkam zahiraga ega bo'lganda yuzaga kelishi mumkin. Odatda bunday vaziyat sug'urta tashkilotining qo'shimcha investitsiya daromadi hisobiga ehtimoliy zararlarni yoki sug'urta operatsiyasi bo'yicha olinmagan foydani qoplashga bo'lgan harakatini bildiradi. Shu bilan bir qatorda taktik yo'nalish tuzilmasida sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatini tashkil qilish jarayonida investitsiya siyosatini shakllantirish va investitsiya faoliyatining samaradorligini joriy tizimli baholash va uni optimallashtirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish bilan bog'liq amaliy mazmundagi masalalar echiladi. Strategik yo'nalishda belgilangan investitsiya siyosatning maqsadi va vazifalari taktik harakat yo'nalishlarida shakllanadi³⁹.

Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarishning mazkur bosqichida sug'urta tashkilotining umumiy moliyaviy ahvoriga ta'sir ko'rsatuvchi ekzogen va endogen omillar bilan baholanadi. Birinchi navbatda sug'urta operatsiyasini o'tkazishda mavjud bo'lgan barcha kamchiliklar aniqlanadi. Uning asosida moliyaviy resurslarning aniq miqdori hamda sug'urta tashkiloti tomonidan investitsiya aktivlariga bevosita yo'naltirilgan moliyaviy resurslar hajmi belgilanadi.

Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini amalga oshirish tizimidagi operativ yo'nalish tuzilmasida sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyatini optimal darajada kundalik ushlab turish bilan bog'liq masalalar echiladi. Shu bois vaqtincha investitsiya uzilish bo'lmasligi uchun investitsiya kapitalining transformasiya jarayoni har tomonlama tahlil qilinadi va kuzatib boriladi.

Ushbu holatda ochiq investitsiya pozitsiyalari limitlari belgilanadi va yangilanib turiladi. Bu holatda qonun hujjatlarida belgilangan cheklashlar hisobga olinadi, tizimdagi kuchsiz tomonlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish usullari belgilanadi. Darhaqiqat sug'urta va investitsiya faoliyati sug'urtalovchining

³⁹Kenjaev Ilhom G'iyosovichning "Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusida tayyorlangan dissertatsiya ma'lumotlari asosida tayyorlangan

to'lovga qobilligini ta'minlashda bir-biri bilan bog'liqdir.

Sug'urta tashkilotining birinchi galdagi maqsadi sug'urta ta'minoti va sug'urta qoplamasi hamda sug'urta summalari to'lovi bo'yicha o'zining majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotining moliyaviy resurslarini joylashtirish sifati va samaradorligini baholash uning investitsiya faoliyatini tashkil etish tizimining o'ziga xos elementi bo'lib hisoblanadi.

§1.2. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urta tashkilotlari bilan moliya bozorining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turlicha shakllarda amalga oshishi mumkin. Sug'urta tashkilotlari o'z faoliyatida aholi va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larini jalb qilishi bilan, boshqa moliyaviy institutlarning (tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va boshqalar) raqobatchisi hisoblanadi.

Shuningdek sug'urta tashkilotlari moliya bozori boshqa sub'ektlarining xizmatlaridan foydalanuvchi (tijorat banklari, fond birjasi va boshqalar) sifatida ham ishtirok etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sug'urta tashkilotlari moliya bozorining boshqa ishtirokchilari uchun xizmatlar taqdim etuvchi hisoblanadi, masalan, investorning yoki emitentning risklarini qabul qilish, kafolatchi sifatida ishtirok etish, fond bozorida broker sifatida ishtirok etish va boshqalar.

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish barobarida, ko'p sondagi sug'urtalanuvchilarning mablag'larini jalb qilish bilan, sug'urta tashkilotlari katta hajmdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lariga ega bo'ladi va ushbu mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya qilish orqali qo'shimcha daromad topadi.

Mamlakatimizda investitsion jarayonlarni kengaytirish va kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati milliy sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati

bilan faol shug'ullanishlariga imkoniyat yaratmoqda⁴⁰. Shuningdek, so'nggi yillarda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalarining zahiralarini joylashtirish borasidagi siyosati davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda va yangi investitsiya ob'ektlarini yaratib bermoqda⁴¹.

Sug'urta tashkilotlari o'z mablag'lari va daromadlarining oshishi ularga sug'urta zaxiralarini shakllantirish va investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beradi.

Sug'urta tashkilotlari investitsiya portfelining o'sishi bu o'z mablag'lari, daromadlari hajmi va mos ravishda sug'urta zaxiralari hajmining oshishi bilan bevosita bog'liq. Ma'lumki, sug'urtalovchilar sug'urtalanuvchilar bilan tuzilgan sug'urta shartnomalari asosida kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risidagi nizom⁴²ga muvofiq zahira shakllantiradi.

Sug'urta kompaniyalari ushbu zahiralarini sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati to'g'risidagi nizom⁴³ga asosan diversifikatsiya qilish, qaytarilishlik, daromadlilik va likvidlik tamoyillari asosida turli sohalarga investitsiya sifatida joylashtiradi.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan yo'naltirilgan investitsiyalari tarkibining jami bozor bo'yicha dinamikasi tahlili shuni ko'rsatdiki, sug'urta kompaniyalari bank depozitlari va qimmatli qog'ozlar ishonchli investitsiya ob'ektlari deb hisoblashadi va shu munosabat bilan investitsiya mablag'larining asosiy qismini ushbu ob'ektlarga joylashtirilganligini quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

⁴⁰Babayeveva N.M. Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.TMI 2023, Navoiy nomidagi davlat kutubxonasi.

⁴¹ Chrysovalantis Gaganisa, Iftekhar Hasanb, Panagiota Papadimitrie, Menelaos Tasioue. National culture and risk-taking: Evidence from the insurance industry. Journal of business Research 97 (2019) 104-116 p.

⁴²O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risida"gi Nizom..

⁴³Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsion faoliyati to'g'risida nizom. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 29-son, 340-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2020 y., 10/20/1982-1/1321-son).

1.3-jadval

Sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi³⁵ (foizda)

Investitsiya ob'ektlari	Yillar										2014 yilga nisbatan 2023 yilda o'sish, %
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Investitsiyalar hajmi (mlrd.so'm), Shu jumladan:	526,6	623,7	758,1	867,5	2010,7	2711,9	3354,6	3746,7	4 751,8	6 149,9	-
Bank depozitlari (foizda)	45,2	47,1	46,8	45,0	51,8	52,5	53,2	59,0	61,0	65,7	145,3
Qimmatli qog'ozlar (foizda)	41,4	43,4	41,4	43,4	35,2	31,3	28,5	29,3	27,1	22,1	53,3
Zayimlar (foizda)	0,9	1,1	1,0	0,8	0,7	0,8	1,2	1,3	1,3	0,8	89
Ko'zmas mulk (foizda)	3,7	4,4	5,1	5,7	6,0	8,5	9,2	6,6	7,6	8,8	238
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki, (foizda)	5,0	7,0	6,7	7,0	6,2	6,8	7,7	3,8	2,5	2,2	44
Boshqa investitsiyalar (foizda)	0,8	0,2	0,8	0,2	0,1	0,2	0,2	0,1	0,6	0,6	75

Ushbu jadvalda sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning investitsiya ob'ektlariga bo'yicha ulushi keltirilgan. Sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami ulushi 2014-yilda 526,6 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 2023-yilda 6 149,9 ming so'mni tashkil etgan. Yo'naltirilgan investitsiyalarni investitsiya ob'ektlari bo'yicha oladigan bo'lsak, bank depozitlariga yo'naltirilgan investitsiyalar 2014-yilda 45,2 foizni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 65,7 foiz ya'niy 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 145,3 foizga oshgan. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 2014-yil 41,4 foiz bo'lib, 2023-yilda bu ko'rsatkich 22,1 foiz ya'niy 2014 yilga nisbatan 2023 yilda 53,3 foizni tashkil qilgan. Zaymlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 2014 yilda 0,9 foizni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 0,8 foizni ya'niy 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 89 foizga, ko'chmas mulkka yo'naltirilgan investitsiyalar 2014-yilda 3,7 foiz, bu ko'rsatkich 2023-yilda 8,8 foiz ya'niy 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 238 foizga, tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki bo'yicha yo'naltirilgan investitsiya 2014-yilda 5 foizni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 2,2 foiz, 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 44 foizga, sug'urta kompaniyalari tomonidan boshqa investitsiya ob'ektlariga yo'naltirilgan

investitsiyalari 2014-yilda 0,8 foiz bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 0,6 foizni tashkil qilib, 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 75 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiyaga yo'naltirayotgan mablag'lar hajmining o'sish tezligi normal darajada ekanligini qayd etish mumkin. Agar investitsiyalar hajmining o'sishi shunday darajada saqlanib qolsa, besh yildan keyin sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi taxminan 15 trln.so'mdan ortiqni tashkil etishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarining bir vaqtning o'zida hamkori va raqobatchisi hisoblangan tijorat banklari tomonidan 2022-yilda aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar qiymati 203 trln. so'mni tashkil etdi⁴⁴. Mazkur yilda sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan jami investitsiyalar 4,7 trln. so'mni tashkil etganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, sug'urta kompaniyalari bu borada o'z raqobatchilaridan katta farq bilan orqada bormoqda.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy potentsiali uning xususiy kapitali va jalb qilingan kapital (shu bilan birga qarz kapitali) dan tashkil topadi. Jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini sug'urta shartnomalari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari tashkil etadi, ushbu sug'urta mukofotlari hisobidan shakllantirilgan sug'urta zahiralarini olingan javobgarliklar bo'yicha yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan bo'lib, bir vaqtning o'zida ushbu mablag'lar investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag'larning asosini tashkil etadi.

Investitsiya mablag'larining ikkinchi manbasi xususiy kapital hisoblanadi. Davlatning sug'urta sohasini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi vakolatli organi tomonidan investitsion faoliyatga doir me'yoriy hujjatida investitsiyalar – foyda olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga joylashtiriladigan sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) har qanday shakldagi qo'lga

⁴⁴https://cbu.uz/oz/press_center/reports/1077776/. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yilgi hisoboti to'g'risidagi masala yuzasidan Oliy majlis senatining yalpi majlisidagi ma'ruza matni.

kiritilgan yoki nazorat qilinadigan aktivlari, investitsiya faoliyati - sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuidir deb ta'rif berilgan⁴⁵. Ushbu hujjat talablariga ko'ra sug'urta tashkiloti tomonidan investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag'lar diversifikatsiya, likvidlik, foydalilik va qaytarilish talablariga javob berishi zarurligi belgilab qo'yilgan.

Sug'urtalovchilar o'z investitsion faoliyatida davlatning tartibga soluvchisi tomonidan olib boriladigan, investitsion portfelning likvidligi va ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan siyosati natijasida cheklovlarga duch keladi. Ushbu siyosatning asosiy maqsadlari bank sektorini qo'llab-quvvatlash, sug'urtalovchi kapitalini aktivlar diversifikatsiyasini ta'minlash orqali himoya qilish, aktivlarni risk darajasi va o'z o'rnida daromadliligi past bo'lgan sohalarga joylashtirish, davlat moliya sektorining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Shuning uchun sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq shakllantirilishi ehtimolligi past darajada. Sug'urtalovchining investitsiya daromadi mavjud inflyatsiya darajasidan oshmaydigan bunday investitsion-huquqiy tuzilmada investitsiya siyosati faqat yon foydaga asoslangan holda tashkil etilishi mumkin, ya'ni, masalan o'z mablag'larini bank depozitiga qo'yish evaziga garovga qo'yilgan mulkni sug'urtalashga erishish, yoki litsenziya bekor bo'lishining oldini olish maqsadida belgilangan normativni bajarish, bank kreditlarini sug'urtalashga erishish, o'z sug'urta dasturlari bo'yicha takliflarini amalga oshirish va shu kabilar. Ammo sug'urta kompaniyalari iqtisodiyot sub'ektlari barqarorligining kafolatchisi sifatida bu kabi holatlardan chetlab o'ta olmaydi. Sug'urta tashkilotlari manfaatlari va davlat tartibga soluvchisining siyosati o'rtasidagi yo'qotish qiyin bo'lgan bunday qarama-qarshiliklarni belgilangan yo'nalishlar doirasida investitsiya portfelini shakllantirishni optimallashtirish orqali yo'qotish mumkin.

⁴⁵N.G'.Karimov va R.X.Xojimatov "Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-2011.

Ilmiy adabiyotlarda investitsion faoliyatning quyidagi jihatlari odatda ko'proq o'rganiladi: sug'urtalovchining investitsion potensialini baholash va investitsion portfelni modellashtirish. A.Turgaevaning ishlarida sug'urtalovchi investitsion potensialining ko'rsatkichlari tizimi va ushbu ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillar taqdim etilgan⁴⁶. Ye.Juravkaning tadqiqotida sug'urtalovchining optimal investitsiya portfelini shakllantirish masalasi o'rganilgan⁴⁷. O'zbekistonlik sug'urta sohasidagi tadqiqotchi N.Mavrulova umumiy sug'urta sohasida faoliyat yuritadigan sug'urta kompaniyalarining investitsiya imkoniyatlarini oshirish masalasini tadqiq qilgan⁴⁸. Tadqiqot ishlarida sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati mikrodarajada o'rganilgan va ularning ushbu yo'nalishdagi kelajagi sug'urta faoliyati, marketing va sug'urta faoliyatini tashkil qilish sug'urtalovchilar darajasida ko'rib chiqilgan. Bizning ushbu tadqiqot ishimizda sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyati imkoniyatlarini makrodarajada sug'urta bozori rivojlanishi va uning dinamikasi, tarmoq tuzilishi, kapital konsentratsiyasi va boshqa moliyaviy bozorlarning rivojlanishi pozitsiyasidan kelib chiqib tadqiq qilamiz. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining istiqbollari asoslangan.

Sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatini kengaytirishda quyidagi omillar ijobiy ta'sirini ko'rsatadi: sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlarini o'sish dinamikasi; uzoq muddatli hayot sug'urtasi turlarining rivojlanishi; sug'urta zahiralar hajmining o'sish dinamikasi; sug'urta kompaniyalari xususiy kapitalining o'sish dinamikasi; sug'urta tarmog'ida kapital konsentratsiyasi; bank va sug'urta sektorlari o'zaro hamkorligining yo'lga qo'yilganlik holati.

Umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlarida sug'urta operatsiyalaridan keladigan daromad asosiy daromad manbai hisoblanadi,

⁴⁶Тургаева А.А. Инвестиционный потенциал страховых компаний и оценка их конкурентоспособности // Финансы и кредит. 2017. Т. 23. № 2. С. 89—109.

⁴⁷Журавка Е.С. Особенности формирования инвестиционного потенциала страховых компаний // Банковская система: устойчивость и перспективы развития. Сборник научных статей седмой международной научно-практической конференции по вопросам банковской экономики. Пинск: Полесский государственный университет, 2016. С. 56—59.

⁴⁸Mavrulova N.A. Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2023. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi.

ya'ni to'plangan sug'urta mukofotlari bilan to'langan sug'urta qoplamalari o'rtasidagi farq sug'urta kompaniyasi uchun daromad bo'lib hisoblanadi.

Majburiy sug'urta katta o'rin tutadigan bozorlarda majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sug'urta kompaniyalari asosan ijtimoiy himoya funksiyasini bajaradi va bunday tashkilotlar uchun investitsiya faoliyati muhim hisoblanmaydi. Ixtiyoriy sug'urta turlarini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari uchun investitsion faoliyat muhim o'rin tutadi. Ayniqsa bu borada uzoq muddatli hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarda investitsion imkoniyatlar katta bo'lib, bunday sug'urta kompaniyalarining asosiy daromad manbai sug'urta operatsiyalari emas, balki investitsion faoliyat hisoblanadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida sug'urta kompaniyalari uchun yetarli darajada investitsiya instrumentlari taqdim etilgan bo'lib, bularga misol tariqasida davlatning munitsipal va korporativ qimmatli qog'ozlar, uy-joy sertifikatlari, investitsiya fondi paylari, bank va nobank muassasalarining depozit sertifikatlari, ko'chmas mulk, qimmatbaho metallar kabilarni keltirish mumkin. Masalan "Jahon sug'urta amaliyotida sug'urta kompaniyalari asosiy faoliyatdan emas, balki investitsiya faoliyatidan ko'proq daromadga ega bo'ladi"⁴⁹.

Milliy sug'urta bozorimizda sug'urta tashkilotlari foydalanayotgan investitsiya instrumentlari faqat mamlakat ichkarisidagi aksionerlik jamiyatlarining aksiyalari, tijorat banklarining depozit sertifikatlari va ko'chmas mulklar hamda kam turdagi va kam miqdordagi davlat qimmatli qog'ozlari hisoblanadi. Munitsipal qimmatli qog'ozlar muomalada yo'q, korporativ obligatsiyalar bozori shakllanmagan, nobank muassasalarining depozit sertifikatlari mavjud emas. Investitsiya instrumentlarining kamligi investitsion faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatini pasaytiradi.

Jahonda qimmatli qog'ozlar bozori moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiyalarni rag'batlantirish va kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu bozorning rivojlanishi iqtisodiy

⁴⁹Mavrulova N.A. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning rolini oshirish. i.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.T.:TMI,2019 yil. 75-bet.

o'sish va innovatsiyalarga hissa qo'shishi mumkin bo'lsa-da, uning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xil omillar mavjud⁵⁰.

Bugungi kunda fond va sug'urta bozorining iqtisodiy islohotlarni tubdan yangilash jarayonidagi rolini oshirish hamda ularning o'zaro faoliyatini takomillashtirish mamlakat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sanaladi⁵¹.

Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi ko'plab omillarga, jumladan, makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlik, tartibga solish va nazorat qilish darajasi, infratuzilma va texnologik innovatsiyalarning mavjudligi, ma'lumotlarning mavjudligi, investorlarning savodxonlik darajasi va tizimga ishonchiga bog'liq. Bu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish darajasini va barqarorligini belgilaydi⁵².

Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni rag'batlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Normativ-huquqiy muhitni takomillashtirish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish, investorlar xabardorligini oshirish va kapitalni kompaniyalar uchun ochiq qilish orqali investitsiyalar o'sishi, innovatsiyalar va biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish mumkin. Shu bilan birga, sohaning xavf darajasi va potensial afzalliklarini tegishli ehtiyot choralari bilan muvozanatlash uchun nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini yodda tutish ham muhimdir⁵³.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 39-moddasiga ko'ra sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlari faqat aksionerlik jamiyati shaklida tashkil etilishi mumkinligi, ushbu qonunning 14-moddasida sug'urtalovchilar qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishi va

⁵⁰O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot ta'lim veb sayti.
<https://finlit.uz/oz/articles/financial-market/economic-prenet-trt/>

⁵¹Abdullaeva N.A. Sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish. i.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: TMI, 2022 yil. 13-bet.

⁵²O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot ta'lim veb sayti.
<https://finlit.uz/oz/articles/financial-market/economic-prenet-trt/>

⁵³48-manba

bunda mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun sug'urtalovchining litsenziya olishi talab⁵⁴ etilmasligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi qonun talablari asosida bugungi kunda barcha sug'urta kompaniyalari aksionerlik jamiyatlari sifatida qayta tashkil etildi. Demak, sug'urta kompaniyalari mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishidan bir vaqtning o'zida uch yo'nalishda: emitent, investor hamda investitsiya vositachisi sifatida yuqori darajada manfaatdordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e'tirof etilgan⁵⁵. Bu esa, o'z navbatida, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni raqamlashtirish asosida rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi⁵⁶.

1.4-jadval

“Toshkent” fond birjasida amalga oshirilgan qimmatli qog'ozlar savdosi dinamikasi⁵⁷”

Ko'rsatkichlar	Yillar					2018 yilga nisbatan 2022 yilda o'sish/kamayish
	2018	2019	2020	2021	2022	
Tuzilgan bitimlar (dona)	13 750	32 816	36 062	71 489	80 723	+66 973
Sotilgan qimmatli qog'ozlar soni (mlrd.dona)	10,06	8,11	99,08	14,18	16,15	+6,09
Emitentlar soni (dona)	117	99	103	108	114	-3
Sotuv summasi, (trln.so'm)	0,69	0,44	0,58	1,26	4,82	+4,13

⁵⁴O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi 730-son qonun ma'lumotlari asosida.

⁵⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni //www.lex.uz.

⁵⁶ www.lex.uz.

⁵⁷Янов, Вадим Эдуардович Инвестиционная деятельность страховых компаний: принципы организации, регулирование и оптимизация: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10 Санкт-Петербург 2001, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, respublika fond birjasida 2022-yilda amalga oshirilgan sotuv summasining o'sishi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ammo shuni ham ta'kidlash kerak, emitentlar soni 2018-yilga nisbatan kamaygan.

Sug'urtalovchining mikro darajadagi muvaffaqiyatli yoki noqulay investitsiya faoliyati kompaniyaning bozorda mavjud bo'lish imkoniyati va sharoitlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bularga quyidagilarni keltirib o'tish mumkin.

Birinchidan, investitsiya faoliyati yetarli sug'urta fondini shakllantirishni ta'minlash orqali sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini belgilaydi. Bu tariflarni hisoblashda (hayotni sug'urtalash) investitsiyalarning rejalashtirilgan rentabelligi hisobga olinadigan yoki sug'urtalovchining majburiyatlari sug'urta zahirolari shakllanadigan pul birliklaridan tashqari birliklarda ifodalangan sug'urta turlariga taalluqlidir (valyuta ekvivalentidagi sug'urta shartnomalari, majburiyatlar, eng kam ish haqi bilan ifodalangan shartnomalar va hokazo.).

Ikkinchidan, yaxshi tashkil etilgan investitsiya faoliyati, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini va shunga mos ravishda sug'urtalovchining bozordagi mavqeini ta'minlaydi, chunki u quyidagilarga ta'sir ko'rsatadi: a) hayotni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha taklif etilayotgan rentabellik yoki inflyatsiyadan himoya qilish imkoniyati bilan⁵⁸ belgilanadigan sug'urta mahsulotining shartlariga yoki umumiy sug'urta tarmog'ining sug'urta shartnomalarini inflyatsiyadan himoyalash imkoniyatlariga; b) sug'urtalovchining birinchi navbatda sug'urta to'lovlari tezligi bilan belgilanadigan sug'urta majburiyatlarining amalda bajarilishiga.

Uchinchidan, investitsiya sug'urta kompaniyasi muassislariga, o'z biznesini rivojlantirish va uni mustaqil boshqarish imkoniyatini beradi. Ushbu jihat sug'urta fondlarini investitsiyalash hisobiga tashqi investitsiyalarni jalb qilmasdan va ustav kapitali hamda boshqa o'z mablag'lariga bo'lgan talablarning bosqichma-bosqich o'sishi sharoitida nazorat qiluvchi organlarning standartlariga javob beradigan mablag'lar to'planishi bilan bog'liq.

⁵⁸ Янов, Вадим Эдуардович Инвестиционная деятельность страховых компаний: принципы организации, регулирование и оптимизация: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10 Санкт-Петербург 2001

Makro darajada, tegishli davlat organi tomonidan tartibga solingan holda, sug'urta kompaniyalarining muvaffaqiyatli investitsiya faoliyati uzoq muddatli investitsiyalar manbai bo'lib xizmat qiladi, bu o'rta va uzoq muddatli istiqbolda sug'urta operatsiyalarini asossiz qat'iy soliqqa tortish orqali qisqa muddatli foyda olishdan ko'ra ancha katta iqtisodiy samara beradi. Shu sababli, mikro va makro darajada ushbu faoliyat turining barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda, sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini malakali va ilmiy asoslangan holda tashkil etish muammosi juda muhimdir⁵⁹. O'zbekistonda ushbu sohaga oid ko'pgina masalalarning hal qilinmaganligini hisobga olgan holda, sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining xususiyatlarini aniqlash va o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot juda dolzarb ekanligini ta'kidlash mumkin.

Bizning fikrimizcha, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyati quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urtalovchilar har doim eng yirik uchta investorning (banklar, sug'urta kompaniyalari va pensiya fondlari) biri bo'lib kelgan. Ushbu uchta komponentning o'zaro nisbati mamlakatlarga qarab farq qiladi, ammo uning tarkibi har doim bir xil.

2. Sug'urta tashkilotida investitsiya resurslarining ikki turi mavjud-o'z mablag'lari (sug'urta majburiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan va tasodifiylik xususiyatiga ega bo'lmagan) va sug'urta zahiralarini tashkil etuvchi mablag'lar (sug'urta shartnomalari bo'yicha tasodifiy majburiyatlar bilan bog'liq). Tabiiyki, komponentlarning har biri ularni investitsiya qilish imkoniyati nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga va cheklavlarga ega.

3. Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi, ayniqsa sug'urta zahiralaridan tashkil topgan mablag'larni investitsiyalash bilan bog'liq faoliyat.

4. Sug'urta tashkiloti uchun investitsiya faoliyati asosiy faoliyat emas, balki yordamchi hisoblanadi, garchi bu tezis hayotni sug'urtalash bilan shug'ullanadigan

⁵⁹Янов, Вадим Эдуардович Инвестиционная деятельность страховых компаний: принципы организации, регулирование и оптимизация: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10 Санкт-Петербург 2001

sugʻurta kompaniyalari uchun unchalik taalluqli boʻlmasada. Shu bilan birga, asosiy faoliyat sugʻurta faoliyati boʻlib, ushbu faoliyat investitsiya faoliyatiga oʻz cheklovlarini qoʻyadi⁶⁰.

Ushbu xususiyatlarning barchasining mohiyatini va Oʻzbekiston sugʻurta bozorida amalga oshiriladigan shakllarini aniqlash uchun koʻrib chiqamiz. Ushbu ishda bu xususiyatlarning sugʻurtalovchi faoliyatiga taʼsirini baholashga harakat qilamiz va agar dastlabki maʼlumotlar va tajribamiz yetarli boʻlsa, ushbu xususiyatlarni tuzatish yoki ulardan sugʻurta kompaniyasi ishida samarali foydalanish uchun oʻz takliflarimizni beramiz.

Sugʻurtalovchining investitsiya faoliyatini tavsiflovchi konseptual apparat darajasidagi mavjud noaniqlik, yoki investitsiya faoliyatini optimallashtirishdagi cheklovlarni baholashga yaxlit yondashuvning yoʻqligi, bu ularning oʻziga xos qiymatlari va parametrlarini emas, balki barcha mavjud asosiy cheklovlarni hisobga oladi. Biz oʻz ishimizda, bizning fikrimizcha, ilmiy tadqiqotlarning maqsad va vazifalariga mos keladigan ushbu darajadagi muammolarga eʼtibor qaratdik.

Iqtisodiyotga ichki investitsiyalar uchun mablagʻ yetishmasligi bilan tavsiflangan zamonaviy sharoitda, sugʻurta fondlarini investitsiya qilish muammosi ayniqsa dolzarb boʻlib bormoqda. Biroq, bugungi kunda mamlakatimizda ushbu turdagi investitsiya faoliyatining ulushi juda kichik.

Tadqiqot ishimizda sugʻurta fondlari va sugʻurta tashkilotlarining investitsiya faoliyati mablagʻlarini shakllantirish va ulardan foydalanish boʻyicha toʻplangan xalqaro va mahalliy tajribani umumlashtirish va tahlil qilish orqali ushbu sohadagi mavjud boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan⁶¹.

Sugʻurta mukofotlari sugʻurta tashkilotining asosiy daromad manbai boʻlib, ushbu mablagʻlar sugʻurta zahiralarini shakllanishining bazasi hisoblanadi.

⁶⁰Янов, Вадим Эдуардович Инвестиционная деятельность страховых компаний: принципы организации, регулирование и оптимизация: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10 Санкт-Петербург 2001

⁶¹Янов, Вадим Эдуардович Инвестиционная деятельность страховых компаний: принципы организации, регулирование и оптимизация: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10 Санкт-Петербург 2001

Shuningdek sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarining qanchalik darajada ko'p miqdorda yig'ilishi, sug'urtalovchilarning investitsion jarayonlarda ishtirokini ta'minlashda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari hamda amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari o'ziga xos bo'lib, bu holatni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

1.5-jadval

“O‘zbekiston sug‘urta bozorida yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari va amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari”⁶²

Ko'rsatkichlar	Yillar										2014-yilga nisbatan 2023-yilda o'sish, %
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Sug'urta mukofotlari (mlrd.som)	439,1	515,7	692,5	927,4	1628,5	231,3	221,1	373,2	623,1	805,9	183,5
Sug'urta qoplamalari (mlrd.som)	74,6	111,0	130,5	269,9	460,8	28,4	73,2	12,3	259,6	202,2	271,1

Ushbu jadvalda O‘zbekiston milliy sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari hamda amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari 2014-yilda 439,1 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 805,9 mlrd.so'mga yetib, 2014-yilga nisbatan 2023-yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlar ulushi 183,5 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari 2014-yilda 74,6 mlrd.so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 202,2 mlrd.so'mga yetib, 2014-yilga nisbatan 2023-yilda amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari 271,1 foizga o'sganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

⁶²O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga bir vaqtning oʻzida mikrodarajada va makrodarajada ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bundan tashqari, dunyo tajribasidan kelib chiqqanda, yirik sugʻurta tashkilotlarida yillar davomida investitsion faoliyatni samarali tashkil etish barobarida investitsion mablagʻlar hajmi sezilarli darajada ortib borishi natijasida ularda mintaqaviy va xalqaro investitsiya bozorlarida ishtirok eta boshlaydilar. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga valyuta tushumlarining kirib kelishini taʼminlaydi.

Sugʻurta tashkilotlari investitsiyalari tarkibida odatda davlatning turli qimmatli qogʻozlariga yoʻnaltirilgan investitsiyalar katta hajmni tashkil etadi. Masalan, Amerika va Yevropa sugʻurta kompaniyalari tomonidan koʻp hollarda munitsipal obligatsiyalar sotib olinganligini koʻrish mumkin va bu mahalliy byudjetlarni qoʻllab-quvvatlashda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Ushbu omilning zarur darajada amal qilishiga sugʻurta kompaniyalari investitsion faoliyati uchun mazkur davlatlar tomonidan belgilab qoʻyilgan meʼyorlar sabab boʻlmoqda (1.6-jadvalga qarang).

1.6-jadval

«AQSh, Yevropaning baʼzi davlatlari hamda Rossiyada sugʻurta kompaniyalari tomonidan munitsipal obligatsiyalar sotib olishga belgilangan meʼyorlar⁶³»

Investitsiya yoʻnaltiriladigan obʼektlar	Germaniya	Fransiya	Yaponiya	AQSh	Angliya	Rossiya
Davlat qimmatli qogʻozlari va munitsipal obligatsiyalar	<30	<65	<30	<49	<2	<30

Sugʻurta tashkilotlari bir vaqtning oʻzida ikkita vazifani – qimmatli qogʻozlar uchun investor va sugʻurtachi vazifasini bajarib, mazkur qimmatli qogʻozlarning ishonchliligini kafolatlovchi sifatida amal qiladi. Sugʻurta kompaniyalari investitsion faoliyatining ushbu jihati davlat qimmatli qogʻozlarini real qoʻllab-quvvatlashi tufayli davlat tomonidan ragʻbatlantiriladi.

⁶³O.A.Окорокова Зарубежный опыт инвестиционной деятельности страховых компаний. Кибер Ленинка, <https://cyberleninka.ru>.

Sug'urta tashkilotlari ixtiyoridagi bo'sh mablag'larni faol ravishda sanoat sohalariga kiritmoqda. Ushbu holat sug'urta tashkilotlariga sanoat korporatsiyalari ustidan ma'lum darajada nazoratni ushlab turish imkonini beradi. Bugungi kunda sug'urta tashkilotlari moliyaviy va moliya-sanoat guruhlarida asosiy ishtirokchilar va muassislar sifatida ishtirok etib kelmoqda. Ushbu masalada yuzaga kelayotgan ma'lum murakkabliklar sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobilligini baholashda ko'zga tashlanmoqda. Sanoat korporatsiyalari va sug'urta kompaniyalari kapitallarining birlashishi natijasida sug'urta kompaniyalarining aksioner kapitali keskin oshadi va asosan fiktiv xususiyatga ega bo'ladi. Bu aksioner kapitali ishtirokchilaridan birining bankrotligi xavfi bo'lgan taqdirda kumulyativ ta'sirning namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi.

Investitsiya salohiyati sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish imkoniyatini belgilaydi va bu jarayon mikro darajada amalga oshiriladi. Sug'urtalash bilan bog'liq maqsadlarni amalga oshirishda ushbu potensialdan foydalanishni baholaydigan ba'zi ko'rsatkichlar mavjud.

Birinchidan, sug'urta kompaniyalari investitsiya daromadlaridan to'g'ridan-to'g'ri sug'urta operatsiyalarining salbiy moliyaviy natijalarini qoplash uchun hamda yuqori raqobat sharoitida narxlarni optimallashtirish maqsadida foydalanadilar. Albatta buning uchun sug'urta kompaniyasi samarali investitsiya faoliyatini amalga oshirishi zarur. Ushbu faoliyatni baholash, tahlil qilinayotgan davr oralig'ida amalga oshirilgan sug'urta qoplamalari va to'plangan sug'urta mukofotlari (netto-mukofot) o'rtasidagi nisbatni aniqlash bilan amalga oshiriladi. Ushbu baholash natijasida olingan ko'rsatkich 1 dan yuqori bo'lsa, demak qo'llanilayotgan sug'urta tariflari investitsion imkoniyatning yaxshilanishiga sharoit yaratadi. Ushbu ko'rsatkich qanchalik 1 dan yuqorilab borsa, investitsion imkoniyat yanada kengayishiga sharoit yaratiladi. Olingan investitsion daromad bozorda raqobat kuchaygan holatda tarif stavkalarini pasaytirish, sug'urta operatsiyalaridan zarar yuzaga kelganda uni qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Bunday xarajatlarga zarurat bo'lmagan holatda, kompaniya faoliyatini kengaytirish yoki sharoitlarini yaxshilashga ishlatilishi mumkin.

1.7-jadval

«Sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi»⁶⁴ (mln.so'mda)

Ko'rsatkichlar	Yillar					2019 yilga nisbatan 2023 yilda o'sish
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami sug'urta mukofotlari	2 314,1	2 213,7	3 733,0	6 231,7	8 059,7	348,29
Shundan, netto mukofot (jami sug'urta mukofotlarining 80 foizi)	1 851,3	1 771,0	2 986,4	4 985,4	6 447,8	348,29
To'langan sug'urta qoplamalari	813,5	732,3	1 235,0	2 596,9	2 022, 1	248,57
Sug'urta qoplamasining netto mukofotga nisbati	2,28	2,42	2,42	1,92	3,19	+0,91

Ushbu jadval tahliliga ko'ra xulosa qilish mumkin, sug'urta qoplamasining netto sug'urta mukofotiga nisbati, keltirilgan barcha yillarda 1 dan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan va ushbu ko'rsatkich 2022-yildan boshqa yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ushbu o'sish 2023-yilda yuqori darajaga ega bo'lgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta shartnomalari uchun qo'llanilayotgan tarif stavkalari investitsion faoliyatni kengaytirish uchun qulay imkoniyat yaratib bermoqda. Shuning evaziga sug'urta kompaniyalari tomonidan yo'naltirilayotgan investitsiya mablag'lari yillar davomida yuqori darajada o'sib bormoqda.

Ikkinchidan, investitsion faoliyat evaziga sug'urta kompaniyasi sug'urtalanuvchilarga bonuslar hisoblash yoki sug'urta hodisasi yuz bermagan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalanuvchilar to'langan sug'urta mukofotlarining bir qismini qaytarish orqali ularning investitsion faoliyatda ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Albatta bunday imkoniyatga erishishda sug'urta bozorida yuqori daromadli va ishonchli investitsiya instrumentlarining mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

⁶⁴O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Uchinchidan, investitsion faoliyatning daromadi bu sug'urtalovchining xususiy kapitali bo'lib, bunda investitsion imkoniyat xususiy kapitalni ko'paytirishga yo'naltiriluvchi moliyaviy daromadning qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati mikrodarajada uning moliyaviy barqarorligini, to'lovga qobilligini va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Investitsiya mablag'larini aniq loyihalarga va sohalarga yo'naltirilishi sug'urta kompaniyasining investitsiya portfelini tashkil qiladi. Ushbu jarayon turli investitsiya instrumentlari orqali amalga oshiriladi. Investitsion portfelning shakllanishi sug'urta kompaniyasi tomonidan qabul qilingan va sug'urta fondlarini taqsimlash prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan investitsiya siyosati bilan bog'liq. Investitsiya siyosati investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi, sohalari va talablarni o'z ichiga oladi.

Ikkita bir-biridan farq qiluvchi va shu bilan birga o'zaro bog'liq bo'lgan ikki tushunchani yanii sug'urta fondi va sug'urta zahiralarini ko'rib chiqamiz. Sug'urta fondi sug'urtalanuvchilar bilan sug'urta shartnomalarini tuzish orqali kelib tushadigan sug'urta mukofotlari va investitsion faoliyat daromadlaridan tashkil topadi va sug'urta shartnomalarida ko'zda tutilgan sug'urta hodisalari yuz berishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplashga yo'naltiriladi. Sug'urta zahiralarini hisob kategoriyasi hisoblanib, sug'urta kompaniyasi tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalarining turidan va sug'urta kompaniyasi tomonidan qabul qilingan sug'urta siyosatidan kelib chiqib, sug'urta shartnomalari orqali olingan majburiyatlarni bajarish maqsadida shakllantiriladi. Yana shunday tushuncha – texnik zahiralar tushunchasi borki, ushbu zahiralar umumiy sug'urta sohasiga xos bo'lib, ular kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar hajmining hisobidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Sug'urta fondlarini investitsiyaga yo'naltirish bu sug'urta qoplamalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, sug'urtalovchining o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni foydalilik, qaytishlik, likvidlik va diversifikatsiya prinsiplari asosida, turli investitsiya instrumentlaridan foydalangan holda iqtisodiyot

sohalariga yo'naltirishdir. Sug'urta fondlarini investitsiyalash boshqa investitsion faoliyatlardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, sug'urtaning risklilik xususiyati bilan bog'liq, ikkinchidan, sug'urta fondlari vaqtinchalik bo'sh mablag'lar bo'lib, ular har qanday vaqtda talab qilinib qolishi mumkin. Shu munosabat bilan sug'urta sohasining investitsion faoliyati uchun ishonchlilik, likvidlik, diversifikatsiya va daromadlilik prinsiplari kabi alohida prinsiplar shakllangan.

Amaliyotda sug'urta sohasi bir-biridan ko'pgina jihatlari bilan farq qiluvchi ikkita tarmoqqa bo'linadi. Bular hayot sug'urtasi tarmog'i va umumiy sug'urta tarmog'i. Ushbu tarmoqlarning bir-biridan farq qiluvchi jihatlari ularning investitsion faoliyatida ham o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi (1.8-jadval ma'lumotlariga qarang).

1.8-jadval

«Hayot sug'urtasi va umumiy sug'urta sohalarining investitsion faoliyati prinsiplarining o'ziga xos xususiyatlari⁶⁵»

Investitsiyalash parametrlari	Umumiy sug'urta sohasi	Hayot sug'urtasi sohasi
Daromadlilik	Daromadlilik qo'yilgan mablag'ning likvidlik darajasi bilan bog'liq, ya'ni likvidlik yuqori bo'lganda daromadlilik pasayadi.	Barqaror daromad olish ehtiyoji mavjud va bu sug'urta mukofoti yoki sug'urta summasini belgilashda e'tiborga olinadi.
Likvidligi	Sug'urta qoplamasini to'lash zarurati kutilmaganda yuz berishi tufayli likvidlik prinsipi muhim hisoblanadi.	Investitsiyalash muddati vafot etish (yashab qolish)ning matematik statistikasi asosida qoplamani to'lash muddatlari oldindan kelishiladi
Inflyatsiyaning hisobga olinishi	Ba'zi sug'urta turlari bo'yicha inflyatsiyani hisobga olmasa ham bo'ladi.	Investitsiyalar uzoq muddatli bo'lgani uchun inflyatsiyani albatta hisobga olish zarur.
Investitsiya hajmi	Investitsiya hajmi sug'urta mukofotlari qiymati va yirik sug'urta qoplamalaridan kelib chiqib turlicha.	Yuqori, barqaror, kapitalizatsiya hisobidan investitsiya hajmi ortib boradi.
Muddati	Qisqa muddatli investitsiyalar	Uzoq muddatli investitsiyalar

Ushbu jadval ma'lumotlarida hayot sug'urtasining ob'ekti insonning hayoti, sog'lig'i, uning mehnat qobiliyati, daromadlari bo'lsa, umumiy sug'urtaning ob'ekti turli baxtsiz hodisalar bilan bog'liq inson sog'lig'i, kasallanishi, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, ularning javobgarligi bilan bog'liq hodisalardan

⁶⁵Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ko‘riladigan zararlar keltirilib, umumiy va hayot sug‘urta sohasi bilan solishtirilgan.

Sug‘urta kompaniyasi investitsion imkoniyatlarining katta qismi uning xususiy kapitali hissasiga to‘g‘ri keladi. Sug‘urta zahiralaridan investitsion maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari sug‘urta qoplamalari hajmi bilan ko‘proq bog‘liq. Sug‘urta kompaniyasining sug‘urta portfeli uning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashi kerak va bu odatda davlat sug‘urta nazoratining standartlari belgilaydi. Ushbu standartlar vaqtinchalik bo‘sh sug‘urta zahiralarini joylashtirish tartiblarini belgilaydi⁶⁶.

Shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyati ijobiy istiqbolga ega yo‘nalish hisoblanadi. Sug‘urta tashkilotlari yetarli darajada barqaror institut hisoblanib, ular uchun aktivlar tarkibida keskin o‘zgaruvchanlik xususiyati xos emas. Bu esa ularga bozor kon’yunkturasini o‘zgartirish bilan bog‘liq keskin o‘zgarishlar riskisiz investitsion faoliyat bilan erkin shug‘ullanish imkonini beradi. Bugungi kunda sug‘urtalovchilarda mavjud resurslar va sug‘urta zahiralarini hisobidan o‘z aktivlarini tezlikda oshirish imkoniyati mavjud.

Investitsion faoliyatning istiqboli faqatgina sug‘urta tashkilotlarining imkoniyatlari bilan bog‘liq emas, balki mavjud moliya bozorining rivojlanishi bilan ham bog‘liq. O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari investitsion portfelida aktivlar ulushi bo‘yicha kelajakda quyidagi investitsiya instrumentlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi: bank sektori va depozitlarni joylashtirish shartlari, qimmatli qog‘ozlar bozori (aksiya va obligatsiyalar bozori), davlat qimmatli qog‘ozlar bozori.

O‘zbekistonda banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlik rivojlanib bormoqda va bunda banklar tomonidan iqtisodiyot sohalarini kreditlash faoliyatining kengayib borayotganligi ham muhim rol o‘ynamoqda. Kredit risklarini sug‘urtalash hajmining kengayishi natijasida to‘planayotgan sug‘urta

⁶⁶Sh.A.Tursunov. Особенности инвестиционной деятельности страховых компаний. Milliy Iqtisodiyotni Isloh Qilish Va Barqaror Rivojlantirish istiqbollari Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Materiallari to‘plami., 247–250.

mukofotlari hajmi ortib bormoqda. Sug'urta sohasini davlat tomonidan tartibga solish vakolati Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga berilishi va ushbu agentlik tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida sug'urta bozorida sog'lom raqobat muhiti shakllanmoqda va sug'urta xizmatlari hajmi sezilarli ortib bormoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024 yilning 1 martida qabul qilingan "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" gi 108-son qarorida majburiy sug'urta turlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining amal qilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida majburiy sug'urta turlari amal qilishining kuchayishi sug'urta xizmatlari hajmiing sezilarli ortishiga olib kelmoqda. Bularning barchasi sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining yanada kengayishiga oli kelmoqda.

§1.3. Sug'urta tashkilotlarida investitsion kapital yetarliligini ta'minlashning institutsional shartlari

Bugungi kunda turli xil sug'urta hodisalarni oldini olish yetarli darajada mablag'ni talab etadi. Bu esa sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta kafolatini ta'minlashdagi ishtirokini yetarliligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu holatda kapital yetarliligi bilan bog'liq muammo sug'urta jarayoni ishtirokchilarining yetarli bo'lmaslik holatlari va ular soni o'sishi masalasini nazorat qilinmasligi holatlari hamda sug'urta kompaniyasi xususiy kapitalining yetarli emasligi va ushbu masalaning nazorat qilinmasligi holatlarida yuzaga keladi.

Ushbu muammoni hal etishning tashqi manbalari har doim ham mavjud bo'lavermaydi. Ushbu masalani hal etish maqsadida doimiy ravishda aksioner kapitalini jalb qilish sug'urta kompaniyasining intensiv rivojlanishini emas, balki ekstensiv rivojlanishiga olib keladi va natijada sug'urtalovchini o'z faoliyatida innovatsion metodlarni qo'llashga bo'lgan motivatsiyani pasaytiradi hamda kompaniya qiymatini oshirishni ta'minlovchi asosiy ko'rsatkich sifatidagi sug'urta mukofotidan aksioner kapitalining shakllanganlik darajasi ko'rsatkichini oshirishni ta'minlamaydi.

Yuqorida aytilganlar sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligini ta'minlash maqsadida uning aksioner kapitali va boshqa xususiy mablag'larining o'sishini ta'minlashga qaratilgan doimiy talablardan boshqa usul va yondashuvlarni izlanishlar asosida topishni talab qiladi. Ushbu yondashuvlar pul shaklidagi kapital tarkibini va uning turli segmentlarini boshqarish yo'llarini o'rganishga tayanishi kerak.

Sug'urtalovchining tartibga solinadigan xususiy kapitali hajmi quyidagicha tuzilgan.

Birinchidan, u qonunchilik bilan belgilangan va litsenziyalash uchun zarur bo'lgan minimal hajm.

Ikkinchidan, bu sug'urtalanuvchilar uchun kafolatni ta'minlaydigan, tartibga soluvchi tomonidan nazorat qilinadigan, sug'urtalanuvchi hisobidan shakllantirilgan sug'urta kapitali sug'urtalovchining tadbirkorlik risklari bilan bog'liq yetishmovchilik yuzaga kelganda zarur bo'ladigan qo'shimcha kapitaldir.

Sug'urtalovchining tadbirkorlik risklari tizimli, doimiy va operatsion risklar bo'lib, ushbu risklarning yuzaga kelishi, ya'ni sug'urta zararlarini qoplashga qaratilgan da'volarning kelib tushishi natijasida sug'urtalanuvchi mablag'lari hisobidan shakllantirilgan aktivlarning yetishmasligi muammosini keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan, sug'urtalovchi ixtiyorida aksionerlar tomonidan shakllantirilgan, sug'urta kompaniyasining asosiy faoliyati hisoblangan sug'urta himoyasining kafolati sifatidagi qo'shimcha kapital bo'lishi va bu uning nizomida ham ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. Bunday kapitalning hajmi uning nimaga mo'ljallanganligiga mos ravishda, sug'urtalovchi tomonidan berilgan kafolatlar hajmidan kelib chiqadi va sug'urtalovchi tomonidan shakllantirilgan majburiy kapital hajmidan tashqari qo'shimcha kapital bo'lib, maxsus marja hisoblanadi. Solvency I to'lovga qobillik standartiga ko'ra, bu zaruriy kafolat kapitali "to'lovga qobillik marjasi" deb ataladi, Solvency II standarti bo'yicha – bu Solvency Capital Requiremen (SCR) ning pul ko'rinishidagi qo'shimcha kapitali hisoblanadi.

Uchinchidan, sug'urta xizmatini ko'rsatishdan ma'no shundan iboratki, jami sug'urta kombinatsiyasi maxsus kapitalni shakllantiradi, shuning evaziga ushbu

xizmat sug'urta qoplamalarida o'z aksini topadi. Bu kapitalni uning shakllanishi va ishlatilish xususiyatidan kelib chiqqan holda, maxsus sug'urta kapitali deb atash to'g'ri bo'ladi. "Sug'urta kapitali" tushunchasi Rossiyalik tadqiqotchi O.G.Gorbachyovning ko'pgina ishlarida qo'llanilgan. Uning talqini bo'yicha bunday kapital sug'urta xizmatining kafolatini ta'minloachi jami kapital: tartibga soluvchi talablari bo'yicha zarur bo'lgan kapital, qo'shimcha, to'lovga qobillik marjasiga kiritilgan, hamda sug'urtalanuvchilar to'lagan mablag'lardan shakllantirilgan aktivlar hisoblanadi⁶⁷.

Ammo, bizning fikrimizga ko'ra, tashkil etish manbasi bo'yicha va ishlatilishi bo'yicha maxsus hisoblangan, faqat sug'urtalanuvchilar mablag'idan shakllantirilgan aktivlarni "sug'urta kapitali" sifatida e'tirof etish kerak.

Sug'urta kapitali "sug'urta zahiralarini qoplash uchun aktivlar" bilan bir xil emas (teng emas), chunki bu hajm jihatidan ular bilan mos kelmaydi. Bu aktivlarning hajmi ma'lum bir sanada bo'lajak sug'urta majburiyatlariga teng. "Sug'urta kapitali" esa ushbu davrda sug'urtalanuvchilardan kelib tushgan va qoplamalar hamda boshqa xarajatlar amalga oshirilgandan keyin qolgan va sug'urtalovchi boshqaruvida bo'lgan aktivlarning to'liq hajmi hisoblanadi. Aslida sug'urta kapitali hajmi suurta xizmatlarini sotishdan shakllangan sug'urta kompaniyasining aylanma mablag'lari hisoblanadi.

Sug'urta kapitaliga nisbatan taklif etilayotgan nuqtai-nazar shundan iboratki, ko'rilishi mumkin bo'lgan jami zararlar qiymatini ushbu zararni qoplashdan manfaatdor bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash va sug'urta mukofoti ko'rinishida to'lash orqali kompensatsiya fondini tashkil etish tushunilishi kerak. Bunda zararlarni kompensatsiya qilish, bunday zarar yuzaga kelgan har bir ishtirokchiga kafolatlanadi. Demak, Dj. Xiks, sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini sharhlash bilan, ta'kidlaydiki, "bir-biridan deyarli mustaqil bo'lgan bir nechta xavflarni birlashtirib, umumiy xavfni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Agar

⁶⁷Горбачев, О.Г. Страховой капитал в структуре экономических отношений/О.Г.Горбачев//Вестник Костромского государственного университета имени Н.А.Некрасова.–2011.–№3.–С. 396–397.–ISSN 1998-0817.

bu kuzatuv bo'lmaganida, sug'urta sohasi hech qachon bunday darajaga erisha olmagan va u qadar keng tarqalmagan bo'lar edi"⁶⁸.

Kapital aylanishining klassik formulasi $P-T-P+\text{sug'urta}$ uchun boshqacha ko'rinish oladi, buning sababi u moliyaviy kafolat berish bo'yicha xizmatni taqdim etadi. Sug'urta faoliyati ushbu sohani qandaydir darajada tartibga solish talab etiladigan hajmdagi kapital (P) bilan ish olib boradi. Bunday kapitalning mavjudligi sug'urta mukofotlarini to'plash imkonini beradi va sug'urta qoplamalarini (SQ) va boshqa xarajatlarni to'lagandan keyin ushbu mukofotlarning qolgan qismi bazaviy ishlab topilgan sug'urta mukofoti (BITSM) sifatida sug'urta kompaniyasining erkin aktivlariga aylanadi.

Doimiy amalga oshadigan sug'urta biznesi uchun sug'urta faoliyatining natijasini olish jarayonini quyidagi formula orqali aks ettirish mumkin.

$$P - (\text{BITSM} - \text{SQ}) - P +,$$

Bunda

P – taqdim etilgan sug'urta kafolatining sug'urtalanuvchini qoniqtiradigan darajadagi xususiy aktivlar hajmi;

BITSM - bazaviy ishlab topilgan sug'urta mukofoti;

SQ – to'langan sug'urta qoplamasi;

P+ - ko'paytirilgan xususiy aktivlar hajmi.

Kapital tarkibini ifodalash uchun zarur bo'lgan keyingi tasniflash manipulyatsiyasi uning asosiy va aylanma qismlarga bo'linishidir.

Ma'lumki, aylanma kapital o'z qiymatini mahsulotga bir aylanish va sotish davomida "o'tkazadi", bunda asosiy kapitalni ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi⁶⁹. Ya'ni, asosiy kapitalning asosiy ajralib turadigan xususiyati o'zining qiymatini asta-sekinlik bilan yaratilayotgan mahsulotga "o'tkazishi" hisoblanadi.

⁶⁸Хикс Дж. Теория экономической истории/Дж.Хикс.— Москва : Вопросы экономики, 2003.— 224 с.- ISBN 5-901389-07-7.

⁶⁹Маркс, К. Капитал. Критика политической экономии; в 4 томах.Том1.Книга2./К.Маркс.—Москва : Политиздат, 1984.— С.176–189.—539 с.- ISBN 5-250-00155-6.

Tartibga soluvchi tomonidan nazorat qilinadigan sug'urta kompaniyasining har bir xususiy kapital qismlarini va ularning qiymatini ishlab chiqarilayotgan xizmatga "o'tkazishi"dagi darajasini ko'rib chiqamiz.

Sug'urta faoliyatida, albatta, moddiy shaklda ifodalangan asosiy kapital ishtirok etishi mumkin: bular binorlar, ofis uskunolari, transport vositalari va boshqalar, ya'ni ularsiz ishlab chiqarish faoliyatini boshlash mumkin bo'lmagan narsalar.

Sug'urtalovchi sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziya olish uchun qonunchilikda belgilangan talablarning eng asosiysi ustav kapitalini shakllantirish talabi bo'lib, sug'urta kompaniyasi o'zining dastlabki faoliyatini boshlashini tashkil etish maqsadida ustav kapitalini litsenziya olish uchun ariza bergunga qadar shakllantirishi kerak. Ustav kapitali sug'urta kompaniyasining muassislari tomonidan shakllantirilishi va ushbu mablag'lar kredit, garovga olingan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan shakllantirilishi mumkin emas⁷⁰. Shu munosabat bilan ushbu kapital sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi uchun dastlabki zarur imkoniyatni yaratadi va ushbu kapitalni sug'urta kompaniyasining asosiy kapitali deb qarash mumkin.

Vaqt o'tishi va shu bilan birga inflyatsiya jarayonlarining mavjudligi mulkiy manfaatlarni sug'urtalash qiymati oshib boradi, o'z o'rnida sug'urta kafolatini ta'minlash uchun ustav kapitali hajmini ham oshirish zarurati paydo bo'lib boradi. Ushbu holatlar ustav kapitalining minimal darajasiga nisbatan "kapitalning qadrsizlanishi" tushunchasini qo'llash va qadrsizlanish darajasini aniqlash va shu asosda uni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish talab etiladi. Bu minimal kapital hajmining o'ziga xos nisbaiy "amortizatsiya"si bo'lib, bu inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan miqdorda yuz beradi.

Faraz qilaylik, sug'urtalashga berilayotgan mulk qiymatining o'sishi inflyatsiya darajasiga teng, vakolatli davlat organining aktivlarni joylashtirishga nisbatan talablari ushbu inflyatsiya kompensatsiyasini qoplaydi, bunday holatda

⁷⁰O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida» qonunining 40-moddasi. O'RQ-730, 2021-yil 23-noyabr.

uni qat'iy maqsadli "amortizatsiya zahirasi"ga ajratish uchun sug'urtalovchining soliq solinadigan bazasini investitsion daromad hajmi darajasiga kamaytirish zarur.

Sug'urta tashkiloti kapitalining minimal miqdoridan tashqari, sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasi talablariga ko'ra, sug'urtalovchi faoliyatida tadbirkorlik xatarlari (biznes xatarlar) mavjud bo'lishidan qat'i nazar, sug'urtalovchi o'zi olgan majburiyatlarning bajarilishini kafolatlaydigan qo'shimcha kapitalni shakllantirish talabi belgilangan. Ushbu kapital bilan kafolatlangan risklar: noto'g'ri andarrayting, sug'urta portfeli hajmining yetishmasligi, kontragentning defolt riski, tabiiy ofatlar va katastrofalarni tadbirkorlik noaniqliklari sharoitida amal qiluvchi risklar qatoriga kiritish mumkin⁷¹. Sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasining mazkur tavsiyasini qabul qilgan davlatlarda, ushbu qo'shimcha kapital shakllantirish talabini bajarmagan holda sug'urta faoliyatini amalga oshirish kompaniya litsenziyasini dastlab ma'lum muddatga yoki butunlay to'xtatishga sabab bo'ladi. Demak, sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi bunday qo'shimcha kapital, belgilanishiga ko'ra asosiy kapital hisoblanadi. Solvency II terminologiyasining standartiga ko'ra, bu qo'shimcha kapital SCR hisoblanadi.

Amalga oshirilishi sug'urta kapitalining yetishmasligiga olib kelgan xatarlar sug'urta biznesining xatarlari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi sababli, sug'urtalovchining o'z kapitali minimal darajadan oshib ketishi va ushbu xavflarni ta'minlash uchun SCR kapitaliga teng bo'lishi tabiiydir⁷². Biroq, kelgusi faoliyat davri uchun bunday kapital yetarliligi navbatdagi muddat uchun qabul qilingan majburiyatlarni va ular uchun olingan sug'urta mukofotlariga mos ravishda o'tgan davr natijalari bo'yicha baholanadi. Shu bilan birga, o'tgan davrda qabul qilingan risklar natijasida bunday kapital hajmiga nisbatan talablar oshgan bo'lishi mumkin.

Sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyati marjasi ostida kerakli miqdordagi aktivlarni ta'minlaydigan ushbu kapital ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u inflyatsiya tufayli qadrsizlanadi. Ushbu qadrsizlanish minimal

⁷¹ Найт, Ф.Х. Риск, неопределенность и прибыль/Ф.Х. Найт; перевод с английского; Россия–Будапешт. – Москва: Дело, 2003. – 359 с. – ISBN 5-7749-0306-0.

⁷² URL: <http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&base=INT&n=28489#018905644514203468>.

tartibga soluvchi kapitalning qadrsizlanishi kabidir va uni inflyatsiya munosabati bilan sug'urtalovchi to'lovga qobilligining pasayishini kompensatsiya qilish maqsadida shakllantiriladigan zahira fondiga yo'naltirilgan, soliqqa tortishdan ozod qilingan daromad orqali qoplash zarur.

Ikkinchidan, aytish mumkinki, bu tartibga soluvchi qo'shimcha kapital hajmi sug'urta faoliyati davomida qabul qilingan sug'urta risklari kafolat hajmining ortishi hisobiga qayta ishlanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, sug'urta faoliyatining boshlang'ich davri uchun yetarli bo'lgan kapital hajmi vaqt o'tishi bilan yetarli bo'lmay qolishi mumkin.

Mablag' yetishmovchiligi yuzaga kelgan paytda tashqi investitsiyalarni jalb qilish qiyin kechishi yoki umuman bunday mablag'ni topishning imkoni bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun sug'urta kompaniyasi tarif stavkasini oshirish evaziga yana bir maxsus zahira fondini oldindan shakllantirib borishi, bundan maqsad, sug'urtalangan mulkiy manfaatlar qiymatining ortishi munosabati bilan xususiy kapitalga bo'lgan talabni qondirishdan iborat. To'lovga qobillikni ta'minlash zahirasi shakllantirish uchun, tarif stavkasini oshirish evaziga sug'urta mukofoti qiymatini oshirish orqali to'lovga qobillik zahirasi shakllantirishga yo'naltirilgan mablag'larni soliqqa solish bazasidan chiqarish va bunda ushbu mablag'larni to'lig'icha "to'lovga qobillikni ta'minlash zahirasi"ga yo'naltirilishini monitoring qilib borish zarur.

Yuqorida aytib o'tilgan zahiralarini yaratishga imkon beradigan to'lov qobiliyatini saqlab qolish uchun sug'urta kapitalini boshqarish bo'yicha aniq qarorlarni shakllantirishni va aniqlashtirishni talab qiladi.

Birinchidan, sug'urtalovchi moliyaviy resurslarining yagona manbai (tashqi investitsiyalardan tashqari) sug'urtalanuvchilar tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofoti hisoblanadi. Ushbu sug'urta mukofotining aktuar hisoblar asosida hisoblangan qiymatiga nisbatan, sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga taqdim etayotgan sug'urta mukofoti qiymatining yuqori bo'lishi sug'urta mahsuloti sifatining yaxshi bo'lganligi tufayli sug'urtalanuvchini qoniqtirishi kerak.

Ikkinchidan, sugʻurta xizmatini shakllantirish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish orqali ushbu xarajatlarni bozordagi oʻrtacha darajadan pasaytirishga erishish orqali koʻzlangan natijaga erishish mumkin.

Ikkala holatda ham kompaniyaning xarajatlari bilan bogʻliq bunday ajratmalar daromadni oshirish orqali taʼminlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida aksionerlik jamiyatining moliyaviy barqarorligini taʼminlashga qaratilgan talablar mavjud boʻlib, bu Oʻzbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunda oʻz aksini topgan. Mazkur qonunning 32-moddasiga koʻra, aksionerlik jamiyati ustavida nazarda tutilgan, ammo uning ustav fondining (ustav kapitalining) oʻn besh foizidan kam boʻlmagan miqdorda zahira fondini tashkil etiladi. Ushbu zahira fondi jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori jamiyat ustavida nazarda tutiladi, ammo bu miqdor jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam boʻlmasligi kerakligi belgilab qoʻyilgan⁷³. Boshqa mablagʻlar mavjud boʻlmagan taqdirda, jamiyatning zahira fondi jamiyatning zararlari oʻrnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividendlar toʻlash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun moʻljallanishi va ushbu zahira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas deb belgilab qoʻyilgan.

Yuqoridagi ikki qonunchilik hujjatining oʻziga xosliklardan kelib chiqqan holda taʼkidlash mumkin, aksionerlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sugʻurta tashkilotining moliyaviy barqarorligi qonunchilik asosida mustahkamlangan. 2021-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “”Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunga koʻra bundan buyon sugʻurta kompaniyalari faqat aksionerlik jamiyati shaklida tashkil etilishi ular moliyaviy barqarorligini taʼminlashda qonunning ham roli mavjud ekanligidan dalolatdir.

⁷³Oʻzbekiston Respublikasining Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi qonun. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.

Shakllantirilgan fondning maqsadli ishlatilishini qat'iy nazoratga olishni sug'urta biznesi uchun adolatli yondashuv deb bo'lmaydi. Sug'urta biznesining investitsion jozibadorligini oshirish uchun, sug'urtalovchining to'lovga qobilligini oshirishni ko'zda tutuvchi fondga ajratiladigan mablag'larni sug'urtalovchining xarajatlari qatoriga kiritish zarur.

Endi sug'urtalanuvchilarning mablag'laridan shakllantiriladigan sug'urta kapitalini asosiy yoki aylanma mablag'lar kategoriyasiga kiritish masalasiga e'tiborni qaratamiz.

Ushbu kapital sug'urta xizmatlarini taqdim etishning bir marta aylanishini to'liq ta'minlaydi, qoidaga ko'ra ushbu davr bir yilni tashkil etadi. Bir yil sug'urtalovchi tomonidan tuzilgan shartnomalar portfeli uchun ehtimollikni matematik hisobining bazaviy muddati bo'lib hisoblanadi. Ma'lum vaqt va makonda qabul qilingan risklar bilan bog'liq zararlarni uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash orqali, ushbu ishtirokchilar tomonidan to'langan badallar hisobidan shakllangan kapital sug'urtaning asosiy kapitali hisoblanadi. Uning yo'naltirilganligi – ishtirokchilarga taqdim etilgan sug'urta xizmatining davri uchun o'z qiymatini to'liq ravishda “o'tkazish”ga mo'ljallangan. Ushbu holat mazkur kapitalni sug'urtaning aylanma kapitali sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Sug'urta kapitali sug'urta operatsiyalariga nisbatan qaraganda omadli yil bo'lgan, ya'ni sug'urta hodisalari kam yuz bergan yillar hisobidan sug'urta kompaniyasi uchun omadsiz kelgan, ya'ni sug'urta hodisalari ko'p yuz berishi, ya'ni sug'urta tarifiga kiritilgan zarar (barqarorlashtirish zahirasi) hajmidan ortib ketishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash uchun ishlatiladigan mablag'larni ham o'z ichiga oladi. Sug'urta kapitalining ushbu qismini Rossiyalik tadqiqotchi O.G.Gorbachev o'zining ilmiy maqolasida asosiy kapital sifatida e'tirof etadi va buni u ushbu mablag'ning bir yilda to'liq bir marta aylanmasligi bilan izohlaydi⁷⁴. Ushbu nuqtai-nazarga nisbatan biz e'tiroz bildiramiz va bu e'tirozimizni

⁷⁴Горбачев, О.Г.Сущность страхового капитала в системе эволюционного развития экономических отношений /О.Г. Горбачев//Теоретическая экономика.–2014.– № 6.– С. 45–51.– ISSN 2076-7633.

kapitalning aylanish davri taqdim etilayotgan xizmat davridan kelib chiqishida deb hisoblaymiz.

Barqarorlashtiruv kapitali sug'urta kafolatini shakllantirishda bir yilda emas, balki tarif davrida ishtirok etadi. Tarif davri zarar yuzaga kelishining o'rtacha ehtimolligini hisoblash imkonini berdi, uning tarif davrida vakil emasligi barqarorlashtiruv kapitali hisobidan kompensatsiya qilinadi. Shuning uchun, sug'urta kapitalining bu barqarorlashtiruv qismini aylanma kapitalga kiritish to'g'ri bo'ladi.

Sug'urta kompaniyasining sug'urta va xususiy kapitalini barcha sug'urtalanuvchilar manfaatlarini qondirish uchun yetarli deb hisoblash faqat ma'lum bir ishonch bilan qondirish uchun yetarli deb hisoblanishi mumkin. Salbiy xavf omillarining amalga oshirilishi, garchi ularning ehtimolligi kam bo'lsada, halokatli bo'lsa, sug'urtalovchining bankrotligi e'lon qilinishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarning qilingan da'volari qondirilmasligiga olib kelishi mumkin. Bu kompaniya sug'urtalanuvchilarining himoyalanmaganlik holatini ta'minlaydi: sug'urtalovchining moliyaviy to'lovga layoqatsizligi boshlanganidan keyin to'lov to'g'risida da'vo qilganlar ham, sug'urta shartnomalari shu daqiqadan keyin ham amal qilayotganlar ham.

Shuningdek bankrotlik to'g'risidagi ishni yuritish uchun ariza bergandan keyin, bankrot bo'lgan kompaniyaning shartnomalari portfeli bozorda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa sug'urta kompaniyasining javobgarligi ostiga tegishli aktivlar bilan birga o'tkazilishini e'tiborga olish mumkin. Shunday bo'lsada, ushbu qoida sug'urta faoliyatini tugatish paytida majburiyatlari bajarilmagan sug'urta qildiruvchilar uchun kafolatlangan yo'l emas.

Bu borada sug'urtaning ixtiyoriy turlariga kelsak, sug'urta portfelini o'tkazish taklif etilayotgan sug'urta kompaniyasi ob'ektiv sabablarga ko'ra ham (tegishli faoliyatni amalga oshirishning tasdiqlangan qoidalari mavjudligi, yangi portfelni uni qoplash zahirasi mavjud bo'lmagan holatida qabul qilinganligi sababli moliyaviy barqarorlikni yo'qotish), kompaniya qarorlarida o'z aksini topgan sub'ektiv sabablarga ko'ra ham uni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin.

Bunday holatda, bajarilmagan majburiyatlarga ega bo'lgan polis egalari bankrotlik bilan bog'liq qarzdorliklarni qoplashning boshqa choralari kutayotgan bankrot sug'urta kompaniyasining kreditorlari bo'lishadi. Ushbu holat iste'molchilarning sug'urta himoyasi sifatini avtomatik ravishda pasaytiradi, chunki bankrotlik jarayoni juda uzoq davom etadi va uning natijasi kreditorlarning manfaatlarini to'liq qondirish nuqtai nazaridan aniq emas⁷⁵. Shuning uchun sug'urta kompaniyasi bankrot bo'lgan taqdirda ham sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlay oladigan o'z kapitaliga yoki shunday holat yuz berganda foydalanish imkonini beruvchi uchinchi tomon kapitaliga ega bo'lishi kerak. Bu yerda, Yevropa sug'urta bozorlari tajribasida mavjud bo'lgan, sug'urta to'lovlarini kafolatlash jamg'armasini (bundan keyin STKJ deb ataladi) tashkil etish zarurligini tan olish kerak. STKJning maqsadi - agar tiklash imkoniyati mavjud bo'lsa, moliyaviy nochor kompaniyaning to'lov qobiliyatini tiklashdir. Aslida, yaratilayotgan jamg'armaga sarmoya kiritishni, sug'urta kompaniyasi to'lovga qobilligining yo'qolishi munosabati bilan, sug'urtalanuvchiga sug'urta to'lovini to'lashni rad etish riskini boshqarish usuli deb hisoblash mumkin. Oddiy qilib aytganda, bunday jamg'armani yaratish orqali uning ishtirokchilari bankrotlik holatidan sug'urta qilinadi. Har bir ishtirokchi sug'urta kompaniyaning ushbu jamg'armani shakllantirishdagi ulushi, uning faoliyatida mavjud bo'lgan bankrotlik xavfining hajmi va xususiyatiga bog'liq holda shakllantiriladi.

Sug'urta kompaniyasining sug'urta to'lovlarini kafolatlash jamg'armasidagi ishtiroki uning xususiy kapitalining bankrotlik bilan bog'liq risklarga aloqadorligini pasaytirishi kerak, chunki ushbu holat bo'yicha javobgarlikni mazkur jamg'arma o'z zimmasiga oladi. Sug'urta kompaniyasining xususiy mablag'lariga talablarning bunday kamayishi uchun asos bo'lib, sug'urta kompaniyasida yuzaga keladigan to'lovga qobillikning yo'qolishi va bankrotlik holati yuzaga kelishi munosabati bilan majburiyatlarning STKJga o'tkazilishi

⁷⁵Цыганов А.А. Развитие институтов защиты и обеспечения прав страхователей в России: монография А.А.Цыганов. –Москва: Издательство Российской академии государственной службы и народного хозяйства, 2009. –188 с. –500 экз. –ISBN 978-5-7729-0443-5

hisoblanadi. Bunday Fond sug'urta bozorining barqarorligini sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar, benefitsiarlar va umuman sug'urta bozorining keng doiradagi da'volarini to'lashni kafolatlash orqali ta'minlaydi.

STKJni tashkil etish, ushbu jamg'armaga a'zo bo'lgan sug'urta tashkilotlari mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi ushbu mablag'larning manbasini ularning sug'urta mukofotlari tarkibida aks etishiga olib keladi. STKJni shakllantirishda sug'urta qildiruvchilarga og'irlik tushishini kamaytirish uchun davlatning ishtiroki zarur bo'ladi. Agar kafolat jamg'armasi davlatning qarori asosida tashkil etiladigan bo'lsa, barcha sug'urta kompaniyalari ushbu jamg'armaning a'zosiga aylanishi va ular tomonidan to'lanadigan badallar ularni faoliyat yo'nalishi va ko'rsatayotgan xizmatlarining zararlilik darajasidan kelib chiqqan holda badallar belgilanishi portfelning balanslashuvini ta'minlaydi. Bunday qaror qabul qilingan holatda, fondni shakllantirish va undan foydalanish uchun maxsus metodologiyani, portfelning muvozanat darajasini ta'minlash metodlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Tashkil etilgan STKJga sug'urtalovchilar badal to'lashi va mohiyatan, shu orqali ularni bankrotlikdan kafolatlovchi "sug'urtalovchilarni sug'urtalash" fondi shakllanadi⁷⁶. Bunday sug'urta fondi uchun to'langan badallar sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlari sifatida tan olinishi kerak va ushbu badallar amalda yuqori sifatga ega bo'lgan sug'urta xizmati sifatida sug'urtalanuvchilar tomonidan to'lanishi kerak.

STKJga ajratmalar aslida sug'urta uchun to'lov qiymatini oshiradi, bu esa sug'urta qoplamasini to'lashni kafolatlash bo'yicha sug'urtalanuvchilarni tanlab olish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Sug'urta mukofotlari uchun qo'shimcha hisob-kitoblarning adolatliligini tushunish uchun, shartnoma shartlarini sug'urtalovchining to'lov qobiliyati yo'qligiga qaramay, unda sug'urta to'lovi kafolati bor-yo'qligi aniq bo'ladigan tarzda shakllantirish kerak.

⁷⁶Адамчук, Н.Г. Возможные пути совершенствования систем страхования вкладов / Н.Г. Адамчук, В.И. Зимовцев // Страховое дело.– 2010.– № 12.– С. 18-23.- ISSN 0869-7574

Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, sug'urtalovchilarning ishtiroki STKJni shakllantirish va undan foydalanish, kapitallashuv talablarini parallel ravishda oshirmagan holda ularning moliyaviy barqarorligi o'sishini ta'minlaydi⁷⁷. Mazkur bo'limda amalga oshirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1) Sug'urta kompaniyasi boshqaruvi va ixtiyorida bo'lgan kapital, uning maqsadiga ko'ra, quyidagicha tuzilishi mumkin:

sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziya olish uchun zarur bo'lgan kapital, ya'ni minimal ustav kapitali;

sug'urtalovchining biznes xatarlarini qoplash imkoniyatini beruvchi kapital, ushbu kapitalning mavjud bo'lishi sug'urta faoliyatini davom ettirish imkoniyatini beradi, ya'ni sug'urtalovchining to'lov qobiliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha o'zlik kapitali;

sug'urta uchun qabul qilingan xatarlarni taqsimlovchi kapital, ya'ni sug'urta kapitali;

vaqt o'tishi bilan moliyaviy natijalarning tengsizligini taqsimlovchi kapital, ya'ni sug'urta kapitalining barqarorlashtirish qismi.

2) Sug'urta xizmatlarini shakllantirishda kapitaldan foydalanish intensivligidan kelib chiqib, uni quyidagicha tuzish mumkin:

moddiy aktivlar ko'rinishidagi asosiy kapital;

sug'urta faoliyati davomida inflyatsiya darajasi bo'yicha devalvatsiya qilinadigan me'yoriy normalarda nazarda tutilgan ustav kapitalining minimal darajasi miqdorida pul shaklidagi asosiy kapital, bu amortizatsiya uchun soliqlardan ozod qilish shaklida kompensatsiyani talab qiladi. Minimal kapital, bu devalvatsiya qilingan inflyatsiya miqdoriga teng;

sug'urta portfeli oshgani sayin dinamik o'sishni talab qiladigan to'lov qobiliyati standartini ta'minlaydigan naqd puldagi asosiy (qo'shimcha) kapital, uni shakllantirish uchun xarajatlarga ajratmalar tayinlash huquqi bilan.

⁷⁷Орланюк-Малицкая, Л.А. Проблемы формирования гарантий защиты потребителей страховых услуг / Л.А. Орланюк-Малицкая // Вестник Финансового университета. – 2012. – № 3. – С. 64 –72. – ISSN 2226-7867

3) Sug'urta kapitali aylanma kapital hisoblanadi va zararining o'rtacha ehtimolligi va qiymati uchun hisoblangan davr uchun sug'urta xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ishtirok etadi.

4) Barqarorlashtirish kapitali - bu aylanma mablag'lar bo'lib, ularning aylanish davri tahlil asosida aniqlangan davrga to'g'ri keladi, bu davrda sug'urta operatsiyalari yo'qotilishining o'rtacha qiymati atrofida o'zgarishi amalga oshiriladi.

5) Sug'urta kompaniyasi kapitalining bir qismini asosiy yoki aylanma kapital sifatida qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilishda kapital harakatining ko'plab sikllari davomida sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda kapitalning ishtiroki yoki uning bitta siklda bir martalik ishtiroki tahlilidan foydalanildi. Ushbu tadqiqot sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turli segmentlar uchun bitta kapital oqimining davomiyligi har xil bo'lishi mumkin degan xulosa hosil qilindi. Bunda, hatto kapital aylanmasining uzoq sikli ham uni asosiy kapital deb tasniflash uchun sabab bo'la olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, sug'urta tashkilotlarining investitsiyot imkoniyatlarini oshirishda albatta sug'urtalovchi ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni to'g'ri joylashtirishga bog'liq bo'ladi. Chunki sug'urta tashkiloti ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni to'g'ri joylashtirsa ular ixtiyorida kata miqdordagi mablag'lar to'planib, investitsiyon jarayonlarda ishtiroki kengayib, moliyaviy barqarorlik darajasi oshib boraveradi. Bu esa sug'urta ta'rif stafkalarini bir maromda bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Sug'urta mukofotlari uchun qo'shimcha hisob-kitoblarning adolatligini tushunish uchun, shartnoma shartlarini sug'urtalovchining to'lov qobiliyati yo'qligiga qaramay, unda sug'urta to'lovi kafolati bor-yo'qligi aniq bo'ladigan tarzda shakllantirish kerak bo'ladi. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi hamda tahlil va tadqiq qilindi. Shu bilan birga sug'urta tashkilotining kapital manbalari tasnifi amalga oshirildi.

Dunyo mamlakatlar sug'urta bozorlarini o'rganish natijasida aniqlandiki, mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari uchun ustav kapitallarining belgilangan minimal miqdorlari dunyoning aksariyat mamlakatlari bilan taqqoslanganda sezilarli darajada past ekanligi va bu ularning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligini past darajada saqlanishiga sabab bo'lishi to'g'risida xulosa qilishga sabab bo'ldi. Shu bilan birga ustav kapitalining past darajasi sug'urta kompaniyasi investitsion faoliyatini ham cheklab qo'yadi.

Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati yuqori risk darajasiga ega bo'lgan sohalardan biri ekanligi asoslangan bo'lib, ushbu riskni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobda sug'urta tashkilotining daromad manbalari chizma ko'rinishida keng tasvirlangan va ular chuqur ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda sug'urtalash bilan bog'liq maqsadlarni amalga oshirishda mazkur potentsialdan foydalanishni baholaydigan bir necha ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Bulardan biri sifatida sug'urta qoplamalari va netto sug'urta mukofoti o'rtasidagi nisbat besh yillik davr oralig'i bo'yicha tahlil qilingan bo'lib, ushbu davrda ikki ko'rsatkich o'rtasidagi nisbat barcha yillarda 1 dan yuqori bo'lganligi va yuqorilab borganligi, bu esa mamlakat sug'urta bozorida investitsion imkoniyatning yaxshilanib borishini ta'minlaganligi asoslangan.

Ushbu bobda muallif tomonidan sug'urta fondi va sug'urta zahirasi tushunchalariga aniqlik kiritilgan va sug'urta fondlarini investitsiyaga yo'naltirish tushunchasiga ta'rif berilgan. Shu bilan birga mazkur bobda hayot sug'urtasi va umumiy sug'urta sohalarining investitsion faoliyat prinsiplarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Sug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlarini belgilovchi ko'rsatkichlar aniqlangan va ular bo'yicha tushunchalar berilgan.

Mazkur bobda sug'urta tashkilotlarida investitsion kapital yetarliligini ta'minlash masalalari o'rganilgan, sug'urta kapitali tushunchasiga aniqlik kiritilgan. Sug'urta kapitali bilan bog'liq xatarlar tahlil qilingan.

II-BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING YO'NALISHLARI TAHLILI

§ 2.1. Sug'urta tashkilotlari investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishda sug'urta xizmatlarining o'rni

Sug'urta bozorining holatini o'rganishni uning tashkiliy tuzilmasini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston sug'urta bozorining so'nggi yetti yillik tarkibiy tuzilmasini quyidagi jadvalda aks ettirildi (2.1-jadvalga qarang). Sug'urta kompaniyalarida son jihatidan 2021-yilga qadar o'sish tendensiyasi saqlanib qolgan bo'lib, 2022-2023-yillarda ba'zi sug'urta kompaniyalari tomonidan litsenzion talablarning buzilishiga yo'l qo'yilishi natijasida tugatilishi, hayot sug'urtasi sohasida soliq imtiyozining bekor qilinishi natijasida ushbu sohadagi bitta sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini to'xtatishi natijasida sug'urta kompaniyalari sonida pasayish yuz bergan bo'lsada, mantiqan yoki potensial sug'urtalanuvchilar sonidan kelib chiqqanda, O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi darajasi uchun 38 ta sug'urta kompaniyasi bizningcha yetarli hisoblanadi.

Sug'urta brokerlari bo'yicha so'nggi ikki yilda son jihatidan biroz o'sish yuz berganligi ijobiy holat hisoblanadi. Shunday bo'lsada, 38 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston bozori uchun 8 ta brokerlik tashkiloti yetarli emas va ushbu tashkilotlarning aksariyati qayta sug'urta sohasiga xizmat ko'rsatishini hisobga olganda, sug'urtalanuvchilar brokerlik xizmatlaridan deyarli foydalanmayapti degan xulosani berish mumkin. Aslida sug'urta agentlariga nisbatan brokerlar sug'urtalanuvchilarga ko'proq mukammal xizmatni taklif etadi. Sug'urta brokerlari sug'urta bozorida yaxshi faoliyat olib borsalar, ularning sug'urtaning rivojlanishiga olib keladi hamda aholi o'rtasida sug'urtaga bo'lgan ishonch yanada mustaxkamlanib borayotganligidan dalolat beradi. Bu esa sug'urtalovchilarning investitsiyon samaradorligini oshishiga olib keladi.

2.1-jadval

“O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari yillar davomida o‘zgarish dinamikasi”⁷⁸



Sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari	Yillar										O‘sinh (+) kamayish (-)
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Sug‘urta kompaniyalari (sonda)	31	32	29	27	32	36	40	42	41	38	+7
Sug‘urta brokerlari (sonda)	3	3	3	3	4	5	5	5	7	8	+5
Sug‘urta agentlari (sonda)	5800	5800	5800	7 200	7460	8 657	8 870	9 536	9 155	4 736	-1064
Assistans (sonda)	3	4	5	10	8	10	9	9	9	9	+6
Syurver (sonda)	15	13	12	8	6	8	7	7	7	7	-8
Adjaster (sonda)	15	11	12	6	5	6	6	6	6	6	-9
Aktuariy (sonda)	2	2	4	4	4	5	5	5	5	5	+3
Sug‘urta kompaniyalari, bo‘linmalari, (sonda) Shu jumladan:	924	963	1133	1284	1416	1787	1874	1966	1967	1910	+986
Shaxarlarda (sonda)	831	842	970	1105	1134	1185	1226	1328	1413	1358	+527
Qishloqlarda (sonda)	93	121	163	179	282	602	648	638	554	552	+459

Ushbu jadvalda O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlari yillar davomida o‘zgarishlar dinamikasi keltirilgan bo‘lib, sug‘urta kompaniyalari 2014 yil 31 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 38 taga yetib, 2014 yilga nisbatan 2023-yilda 7 ta ko‘p demakdir. Sug‘urta brokerlari 2014-yilda 3 tani qilib, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 8 tani yoki 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 5 ta ko‘p. Shuningdek sug‘urta agentlari 2014-yilda 5800 ta bo‘lib, 2023-yilga kelib 4736 ta ya’ni 2014 yilga nisbatan 2023-yilda 1064 taga kamdir. Assistans xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar 2014-yilda 3 tani tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 9 taga yoki 6 taga ko‘pdir. Sug‘urta bozorida syurver xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilotlar 2014-yilda 15 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 7 tani ya’ni 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 8 ta kam dekmakdir. Shu bilan bir qatorda sug‘urta bozori bo‘yicha sug‘urta kompaniyalari bo‘linmalari soni 2014-yilda 924 tani tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 1910 tani

⁷⁸IMDA.UZ маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган

yoki 986 taga ko'pdir. Ushbu bo'linmalardan kelib chiqib shaharlardagi bo'linmalari 2014-yilda 831 tani 2023-yilda 1358 tani yoki 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 527 taga ko'p demakdir. Qishloq joylarda sug'urta kompaniyalarning bo'linmalariga to'xtaladigan bo'lsak, 2014-yilda qishloq joylarda sug'urta kompaniyalarining bo'linmalari 93 tani tashkil qilib, 2023-yilda 522 tani yoki 2014-yilga nisbatan 2023-yilga 459 taga oshgan.

Sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari syurveer va assistanslar sonida yanada kamayish yuz bergan, adjusterlar soni o'zgarmagan va aktuariylar bittaga ko'paygan bo'lib, ushbu holatlar sug'urtalanuvchilar uchun turli qulayliklarni taqdim etishi mumkin bo'lgan mazkur sub'ektlar faoliyati rivojlanmay qolayotganligi to'g'risida xulosa qilish imkonini beradi.

Iqtisodiyot sug'urta sektorining rivojlanish darajasini tavsiflovchi asosiy statistik indikator bo'lib, yillar davomida sug'urta bozorida to'planayotgan yalpi sug'urta mukofotlari hajmi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni O'zbekiston sug'urta bozori misolida quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin (2.2-jadvalga qarang).

2.2-jadval

«O'zbekiston sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari va uning YaIMga nisbati dinamikasi⁷⁹»

Ko'rsatkichlar	Yillar										2014/ 2023 o'sish va kamayish (marta)
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami sug'urta mukofotlari (mlrd.som)	439,1	515,7	692,6	927,4	1628,5	2 314,1	2 213,7	3 733,0	6 231,7	8 059,7	18,3
YIM (mlrd.som)	145846,4	171808,3	199325,1	249100,1	407500,0	511800,0	580200,0	734600,0	888340,0	1,07 kvadrillion (90,8 (mlrd.som))	7,40
YIMda sug'urta xizmatlari hissasi (foizda)	0,30	0,32	0,35	0,37	0,40	0,45	0,38	0,50	0,70	0,80	0,50

Ushbu jadvaldan 2019-2023-yillar davomida sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining sezilarli darajada oshib borganligini va mazkur ko'rsatkich 2023-yilda bazis yilga nisbatan 3,48 marta ortganligini ko'rish mumkin. Bunday o'sish besh yil oralig'i uchun sezilarli darajada yuqori o'sish ekanligini ta'kidlash mumkin. Albatta ushbu davrda iqtisodiyotda inflyatsiya

⁷⁹O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

jarayonlari davom etgan bo'lib, bu sug'urta xizmatlari narxining oshishiga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsada, ushbu ma'lumotlar sug'urta xizmatlari hajmida sezilarli o'sish yuz berganligidan dalolat beradi. Bu xulosani quyidagi hisoblar orqali asoslash mumkin: 2023-yilda to'plangan sug'urta mukofotlari 8059,7 mlrd. so'm, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra mazkur yilda yillik inflyatsiya darajasi 8,77 % ni tashkil etgan. 2022-yilda to'plangan sug'urta mukofotlari 6231,7 mlrd. so'm. 2023-yilda inflyatsiya hisobiga narxlarning oshishi natijasida sug'urta mukofotlarining ko'paygan qismini hisoblab topamiz, buning uchun 2023-yilda to'plangan sug'urta mukofotining 8,77 foizi qancha ekanligini hisoblab topishimiz kerak: $8059,7 \text{ mlrd} \times 8,77 \% = 706,8 \text{ mlrd. so'm}$. $8059,7 \text{ mlrd.} - 706,8 \text{ mlrd. so'm} = 7352,9 \text{ mlrd. so'm}$. Demak, 2023 yilda to'plangan sug'urta mukofotidan inflyatsiya hisobiga ko'paygan qismini ayirib tashlaganimizda, mazkur yilda to'plangan sug'urta mukofoti 7352,9 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bunday holatda 2022-yilga nisbatan 2023 yildagi sug'urta mukofotlarining o'sishi: $7352,9 \times 100 : 6231,7 = 118,0 \%$. Demak, inflyatsiya darajasini hisobga olganimizda, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan o'sish 18 % ni tashkil etgan.

2.3-jadval

“Sug'urta bozorida sug'urtalovchilar tomonidan olingan sug'urta majburiyatlari dinamikasi⁸⁰”

	Yillar					2023/2019 (marta)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami sug'urta majburiyatlari, shu jumladan:	848 609,4	1 098 323,3	1 236 985,3	2 103 037,6	2 341 558,5	2,8
Umumiy sug'urta sohasida (mlrd.so'mda)	845506,9	1 095447,8	1226 732,2	2 073 999,4	2 325 472,0	2,7
Jami sug'urta majburiyatida umumiy sug'urtaning hissasi, %	99,6	99,7	99,2	98,6	99,3	-0,3
Hayot sug'urtasi sohasida (mlrd.so'mda)	3 102,5	2 875,5	10 253,1	29 038, 3	16 086,5	5,2

⁸⁰O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu jadval ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, sug'urta mukofotlari hajmining ortishi sug'urta kompaniyalari tomonidan olingan javobgarliklar hajmining ham ortishiga olib keladi, bu sug'urta qonuniyati. Ammo o'sish hajmiga e'tibor qaratilganda, 2.2-jadvalga ko'ra, o'tgan o'n yil oralig'ida sug'urta mukofotlari 18,3 marta o'sgan bo'lib, ushbu davr oralig'ida olingan javobgarliklar hajmi nisbatan kam, ya'ni 2,8 marta o'sganligini 2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. Ushbu holat shundan dalolat beradiki, mazkur davr oralig'ida sug'urta xizmatlari uchun qo'llanilgan tarif stavkalari ortgan, ya'ni sug'urta xizmatlari narxi oshganligidan dalolat beradi. Mazkur holat ham sug'urta kompaniyalari investitsion imkoniyatlarining ortishiga olib keladi.

Sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalarida ko'zda tutilgan sug'urta hodisalari yuz berishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarining hajmi va uning to'plangan sug'urta mukofotlariga nisbati quyidagi jadvalda keltirilgan (2.4-jadval).

2.4 – jadval

«Sug'urta mukofotlariga nisbatan sug'urta qoplamalarining ulushi va oldingi yilga nisbati»⁸¹

Йиллар	Суғурта мукофотлари (млрд.сўм)	Суғурта қопламалари (млрд.сўм)	Суғурта мукофотларига нисбатан суғурта қопламаларининг улуши, (фоизда)	Олдинги йилга нисбатан нисбатнинг ўсиши (+) ёки камайиши (-) (фоизда)
2014	439,1	74,6	16,9	-
2015	515,7	111,0	21,5	+4,6
2016	692,6	130,5	18,8	-0,5
2017	927,4	269,9	29,1	+10,3
2018	1628,5	460,8	28,2	-0,9
2019	2 314,1	284,2	16,5	-11,7
2020	2 213,7	419,6	22,3	+5,8
2021	3 733,0	618,7	20,5	-1,8
2022	6 231,7	1 098,7	23,3	+2,8
2023	8 059,7	1 568, 5	20,3	-3,0
2014/2023 ўсиш ва камайиш, мартада	+18,4	+21,0	+3,4%	-

⁸¹O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadvalda sug'urta mukofotlariga nisbatan sug'urta qoplamalarining ulushi va oldingi yilga nisbatan nisbati keltirilgan bo'lib, 2014-yilda sug'urta mukofotlariga nisbatan sug'urta qoplamalarining ulushi 16,9 foizni, 2019-yilda sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlariga nisbatan sug'urta qoplamalarning ulushi 16,5 foizni tashkil qilib, keyingi yillarda ushbu ko'rsatkichning o'sish tendensiyasi davom etgan va 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 20,3 foizni tashkil etgan.

Demak, jadval natijalaridan xulosa qilish mumkinki, sug'urta bozorida to'plangan jami sug'urta mukofotlariga nisbatan to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalari hajmi yillar davomida ortib bormoqda. Albatta bu bugungi kun uchun ijobiy holat, chunki sug'urta qoplamalari hajmining ortishi sug'urtalanuvchilarda sug'urta sohasiga nisbatan ishonchni oshiradi va oxir oqibatda sug'urtalanuvchilar sonining ortishiga olib keladi. Ushbu natijaga bir nechta omillar xizmat qilgan degan xulosaga kelish mumkin, bular:

sug'urtalanuvchilarda sug'urta sohasidagi huquqiy bilimlarning va sug'urta madaniyatining ortganligi;

sug'urta kompaniyalari strategik maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan holda va sug'urtalanuvchilar ishonchini qozonish maqsadida sug'urta shartnomalari shartlarini o'z vaqtida bajarishga e'tibor qaratishi;

sug'urta qoplamalarini amalga oshirishda tezkor usullarning amalda qo'llanilishi (evroprotokolning amalga kiritilishi);

sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro raqobatning kuchayishi;

vakolatli organ tomonidan sug'urta shartnomalari shartlarining o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratning kuchayishi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatini ta'minlovchi ikkinchi asosiy manba bu sug'urta kompaniyasining ustav kapitali hisoblanadi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining jami ustav kapitallari to'g'risidagi so'nggi besh yillik ma'lumot keltirilgan (2.5-jadvalga qarang).

“O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalari ustav kapitallari hajmi dinamikasi⁸²” (mlrd so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2019/2023 o‘sish/kamayish (marta)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami ustav kapitallari	755,2	1 439,0	1 590,0	1 884,0	2 299,0	+3
Sug‘urta kompaniyalari soni	36	40	42	41	38	+2
Bir sug‘urta kompaniyasi hissasiga to‘g‘ri kelgan ustav kapitali	21,0	36,0	37,9	46,9	61,7	+2,9

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilga nisbatan 2020-yilda jami ustav kapitallari miqdori ikki baravar oshgan bo‘lib, buning asosiy omili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi 4412-son qarori asosida 2021-yilning 1-iyulidan sug‘urta kompaniyalari uchun belgilangan ustav kapitallari minimal miqdorlarining oshirilishi hamda ushbu yilda sug‘urta kompaniyalari sonining oshgan. 2023-yilda ustav kapitallariga minimal talablar o‘zgarmagan bo‘lsada, bir sug‘urta kompaniyasi hissasiga to‘g‘ri kelgan ustav kapitali sezilarli darajada oshganligini qayd etish mumkin.

Demak bu, sug‘urta kompaniyalarida o‘z ustav kapitallarini oshirishga bo‘lgan qiziqish va imkoniyat mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ta’kidlash kerak, sug‘urta kompaniyalari tomonidan investitsiya sifatida erkin foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘lar hajmi ham olingan besh yil oralig‘ida sezilarli ortib borgan.

Yevroosiyo ittifoqiga kiruvchi qo‘shni davlatlarda sug‘urta kompaniyalari uchun belgilangan ustav kapitallarining minimal miqdorlari bilan taqqoslaganimizda ma’lum bo‘ldiki, mamlakatimizda belgilangan minimal miqdorlar Armaniston va Qirg‘iziston respublikalarida belgilangan minimal miqdorlarga nisbatan keskin farq qilmasada, Belorussiya, Qozog‘iston va Rossiyada belgilangan minimal miqdorlardan bir necha baravar past (2.6-jadvalga qarang).

⁸²O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

«Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari uchun belgilangan ustav kapitallarining minimal miqdorlari»⁸³

Davlatlar				
Armaniston	Belorussiya	Qozog'iston	Qirg'iziston	Rossiya Federatsiyasi
“Sug'urta va sug'urta faoliyati to'g'risida” Armaniston Respublikasi Qonuni. Armaniston Respublikasi Markaziy bankining 02.10.2007 yildagi 311-son qarori	Belorus Respublikasi Prezidentining 25.08.2006 yildagi farmoni bilan tasdiqlangan “Belorus Respublikasida sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Nizom	Qozog'iston Respublikasi milliy banki ning 2016 yil 26 dekabrda №304 sonli qarori.	Qirg'iziston Respublikasi hukumatining 2016 yil 1 iyundagi №292 son qarori.	Rossiya Federatsiyasida sug'urta ishini tashkil qilish to'g'risidagi Qonuni. Sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligi to'g'risidagi 25 modda
Hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari uchun				
2 mln. AQSh doll. (1 mlrd. dram)	6,1 mln. AQSh doll. (5 mln. yevro)	11 mln. AQSh doll	2,1 mln. AQSh doll.	2 mln. AQSh doll.
Hayot sug'urtasi uchun				
3,1 mln. AQSh doll. (1,5 mlrd. dram).	6,1 mln. AQSh doll. (5 mln. evro).	11 mln. AQSh doll. (3,6 mlrd. tenge).	11 mln. AQSh doll. (150 mln. som).	3,8 mln. AQSh doll. (240 mln. rubl).
Qayta sug'urta sohasi uchun				
3,1 mln. AQSh doll. (1,5 mlrd. dram).	6,1 mln. AQSh doll. (5 mln. evro).	15 mln. AQSh doll. (5 mlrd. tenge).	2,1 mln. AQSh doll. (150 mln. so'm).	7,3 mln. AQSh doll. (480 mln. rubl).

Sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatlari birinchi o'rinda ular tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta faoliyatidan to'planadigan sug'urta mukofotlarining hajmi bilan belgilanadi. O'zbekiston sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlarining hajmi so'nggi besh yillikda yuqori o'sish darajasiga ega bo'lib, 2023-yilda to'plangan jami sug'urta mukofotlari 2019-yilga nisbatan 3,5 baravar ortdi. Shu bilan birga, ba'zi klasslar bo'yicha o'sish past darajada va ba'zi klasslar bo'yicha o'sish emas, balki pasayish yuz berganligini ta'kidlash mumkin (1-ilovaga qarang).

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sug'urta kompaniyalari investitsion imkoniyatlarining ikkinchi omili ustav kapitallarining hajmi bo'lib, jami ustav kapitallari so'nggi besh yilda 3 marta oshgan (2.5-jadvalga qarang). Investitsion

⁸³Ю.А.Сплетухов.Регулирование страховой деятельности в странах ЕАЭС: сходство и различия. Финансовый журнал//Financial journal №3 2015

imkoniyatning oshishiga yana bitta omil ta'sir ko'rsatadi, bu sug'urta kompaniyalari tomonidan to'lab berilayotgan sug'urta qoplamalarining ular tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlariga nisbati ko'rsatkichidir.

Sug'urta kompaniyasi investitsion manbalaridan yana biri sug'urta kompaniyasining foydasi hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasi hisobot yilini foyda bilan yakunlasa, foydaning bir qismi qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiya sifatida yo'naltiriladi. Foydani oshirishning asosiy manbalari sifatida sug'urta mukofotlarining tushum hajmi, sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasini pasaytirish va xarajatlarni minimallashtirishga erishishdir.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari tomonidan olingan foyda dinamikasi so'nggi yillarda quyidagi ko'rinishda bo'lgan (2.7-jadvalga qarang).

2.7-jadval

“O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining sof foyda dinamikasi”
(mln.so'mda)⁸⁴

Ko'rsatkich	Yillar				
	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Sof foyda	159 047,2	162 460,8	190 124,3	274 550,4	324 257,5

Ushbu jadvalda sug'urta kompaniyalari sof foyda dinamikasi keltirilgan bo'lib, mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan yil yakunlari bo'yicha olingan foyda doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, o'sish darajasi so'nggi uch yilda sezilarli darajada yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin. 2.4-jadvalga ko'ra sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasi so'nggi uch yilda oshganligini yuqorida guvohi bo'lgan edik. Ammo shunga qaramasdan foydaning o'sishi yuqori bo'lganligining asosiy sababi to'plangan sug'urta mukofotlarining yuqori o'sish darajasiga ega bo'lganligi bilan asoslanadi.

⁸⁴O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**“O‘zbekiston sug‘urta bozorida to‘plangan sug‘urta mukofotlarining
majburiy va ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha nisbati⁸⁵”**

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2019/2023 o‘sinh va kamayish (marta/%)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami sug‘urta mukofotlari (mlrd. so‘m)	2 314,1	2 213,7	3 733,0	6 231,7	8 059,7	3,48
Shu jumladan majburiy sug‘urta mukofotlari (mlrd. so‘m)	313,3	360,0	476,7	491,3	668,1	2,1
Jami sug‘urta mukofotlarida majburiy sug‘urtaning hissasi, (%)	13,5	16,3	12,8	7,9	8,3	-5,2%

Odatda majburiy sug‘urta turlari ijtimoiy ahamiyati yuqori bo‘lgan javobgarliklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq risklarga nisbatan qo‘llaniladi. Shu bilan birga, sug‘urta sohasi endi rivojlanayotgan mamlakatlarda majburiy sug‘urta turlarining joriy qilinishi odamlarda sug‘urta xizmatlari to‘g‘risidagi tushunchalarning hamda sug‘urta madaniyatining shakllanishiga olib keladi. Mamlakatimizda ham sug‘urta sohasi rivojlanishining ikkinchi bosqichi hisoblangan 2008-2015-yillar oralig‘ida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, sug‘urtaning javobgarlik tarmog‘iga taalluqli bo‘lgan uchta majburiy sug‘urta turi qonunchilik asosida amalga kiritilgan edi. Mazkur sug‘urta turlarining qo‘llanilishi natijasida jami sug‘urta mukofotlarida majburiy sug‘urtaning hissasi keltirilgan davr oralig‘ida 30 foizdan ortiqni tashkil etdi. Ammo keyinchalik majburiy sug‘urta turlarini amalga oshirishni nazorat qilish mexanizmining nomukammalligi natijasida jami sug‘urta mukofotlarida majburiy sug‘urtaning hissasi keskin kamayib ketdi, ya’ni transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasidan tashqari qolgan ikkala majburiy sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urtalanishi majburiy bo‘lgan sub’ektlarning katta qismi sug‘urtalanmasdan qoldi. Natijada jami sug‘urta xizmatlarida majburiy sug‘urtaning hissasi kamayib,

⁸⁵O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2023-yilda jami sug'urta mukofotlarida majburiy sug'urtaning hisssasi 8,3 foizga tushib qoldi (2.9-jadvalga qarang).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martda 108-son qarori qabul qilinib, unda⁸⁶ majburiy sug'urta turlarini amalga oshirishni nazorat qilish vakolati tegishli vazirlik va idoralarga yuklatilishi va Istiqbolli loyihalar milliy agentligining sa'y-harakatlari natijasida amaldagi majburiy sug'urta turlari bo'yicha shartnoma tuzish belgilangan yuridik va jismoniy shaxslar ustidan nazorat olib borish yo'lga qo'yildi. Ushbu tadbir kelajakda bozorda majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumining sezilarli oshishiga va natijada sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatlari yanada ortishiga olib keladi.

Ushbu paragrafda keltirilgan statistik ma'lumotlar va amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda bugungi kunda milliy sug'urta bozorida mavjud muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

xususiy va kichik biznes vakillari hamda aholi o'rtasida sug'urta madaniyati yetarli emas, ya'ni ushbu sub'ektlardagi mavjud shaxsiy, iulkiy va javobgarlik bilan bog'liq risklarni ular ongli ravishda sug'urtalashga harakat qilmayapti, bu borada shunday tushunchani shakllantirish bo'yicha sug'urta tashkilotlari tomonidan yetarlicha harakatlar olib borilmayapti;

sug'urta tashkilotlari aholi qatlamlarini sug'urtalashni kengaytirishga qaratilgan tizimli ishlarni olib bormayapti;

majburiy sug'urta turlari son jihatidan va hamj jihatidan kichik hajmni tashkil etib kelmoqda. Majburiy sug'urta sifatida kiritilishi mumkin bo'lgan bir qancha risklar (aholi va yuridik shaxslarga tegishli ko'chmas mulklarni yong'indan va boshqa ofatlardan sug'urtalash, qishlooq xo'jaligi bilan bog'liq risklar sug'urtasi va h.k.) sug'urtalanmay qolmoqda;

hayot sug'urtasi bo'yicha amal qilgan imtiyozlarning bekor qilinishi va muddatining tugashi natijasida ushbu sug'urta tarmog'ining hisssasi keskin pasayib ketdi;

⁸⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martda "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi 108-son qarori

sug'urta kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan sug'urta xizmatlari son jihatidan kam va mavjudlarining aksariyati amalda deyarli qo'llanilmaydi, chunki ular iste'molchilar talabiga mos kelmaydi;

ichki qayta sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni qondiradigan va xalqaro bozorda o'z xizmatlarini taklif eta oladigan, yuqori kapitalga ega bo'lgan maxsus qayta sug'urta kompaniyasi mavjud emas;

o'zaro sug'urta sohasining qonuniy asoslari mukammal yaratilmaganligi tufayli mazkur soha shakllanmagan;

sug'urta tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilib, amalda qo'llanilayotgan sug'urta shartnomalari shartlari tomonlar manfaatlarini birday e'tiborga olgan holda ishlab chiqilmaydi va ular vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqilib keyin amalda qo'llash tizimi yo'lga qo'yilmagan;

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari assotsiatsiyasi o'z nizomida belgilangan vazifalarni to'liq amalga oshira olmayapti va bozorda uning o'rni sezilarli emas.

§2.2. Sug'urta tashkilotlarini institutsional investor sifatida tasniflash

Sug'urta bozori moliya bozori ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlari turli shakllarda bo'lishi mumkin. Sug'urta kompaniyalari korxona va tashkilotlar hamda aholining vaqtinchalik bo'sh mablag'larini jalb qilishga bo'lgan qiziqishi bilan boshqa moliya institutlariga nisbatan raqobatchi hisoblanadi⁸⁷. Sug'urtalovchi moliya bozorining boshqa ishtirokchilari xizmatlarining iste'molchisi ham hisoblanadi. O'z o'rnida sug'urta tashkilotlari moliya bozorining boshqa ishtirokchilari uchun o'z xizmatlarini taqdim etadi, masalan, investor yoki emitentning risklarini qabul qilish yoki kafil sifatida ishtirok etish va hokazo. Oxir oqibatda, sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchilarning katta zararlari yuzaga kelishi ehtimolligi bilan bog'liq zararlarni qoplash kafolatini berish evaziga ularning pul mablag'larini jalb qilish bilan katta miqdordagi vaqtinchalik bo'sh pul

⁸⁷Козлова О.Н., Калачева Е.А., Калачева И.В. Инвестиционная деятельность страховых организаций: возможности, перспективы и направления развития // Финансы и кредит.— 2018.— Т.24, № 9.— С.2056 — 2074.

mablag'lariga ega bo'ladi va ushbu mablag'larni qo'shimcha daromad topish maqsadida iqtisodiyot sohalariga investitsiya sifatida yo'naltiradi.

Sug'urta tashkilotlari, klassik tushunchada institutsional investorlar hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati imkoniyati sug'urtaning o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq. Sug'urta faoliyatiga xos bo'lgan, vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lgan, zahiralar sifatida to'plangan katta hajmdagi mablag'lar va o'z mablag'lari kompaniyaning investitsiya va moliyaviy faoliyatini belgilaydi. Sug'urta xizmatlarini taqdim etish jarayonida to'plangan mablag'lar biznesning investitsion tarkibiy qismi sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Sug'urta tashkilotlari tomonidan katta hajmdagi pul mablag'larini to'plash va investitsiyaga yo'naltirish sug'urta tarmog'ini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim sohasi sifatida e'tirof etilishiga olib keladi.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiya qilingan mablag'lar miqdori va kapital bozoridagi faol ishtirok etishi, ularni institutsional investor sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Institutsional investor sifatidagi faoliyat sug'urtaning o'ziga xos xususiyati bilan belgilanadi⁸⁸. Sug'urta faoliyati natijasida to'plangan sug'urta mukofotlari ma'lum davr oralig'ida (sug'urta qoplamasini to'lash bo'yicha majburiyatni bajarish vaqti kelguniga qadar) sug'urtalovchi ixtiyorida bo'ladi va belgilangan qonunchilik doirasida ularni investitsiya mablag'i sifatida yo'naltirishi mumkin bo'ladi.

Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati vaqtinchalik bo'sh mablag'larni va o'z mablag'larini investitsiya sifatida joylashtirishga asoslanadi⁸⁹. Vaqtinchalik bo'sh mablag'lar investitsion faoliyatning asosiy manbai bo'lib, ushbu mablag'lar sug'urta kompaniyasining sug'urta faoliyati davomida olingan javobgarliklar bo'yicha sug'urta hodisalarining ehtimollik xususiyati va hodisalarining yuz berish vaqti va zarar hajmining noaniqligidan kelib chiqqan holda katta hajmdagi zahiralarining shakllantirilishi bilan bog'liq. Sug'urta

⁸⁸Насырова Г.А. Инвестиционная составляющая страхования. //Финансы и кредит. 24 (192)-2005

⁸⁹ Пылов К.И. Страховое дело в России. М.: ЭДМА, 2012. 143 с.

zahirolari investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi, hayot sug'urtasi esa ushbu mablag'larni uzoq muddatli manbaga aylantiradi.

Sug'urta tashkilotlarining kapitali va vaqtincha bo'sh sug'urta zahiralaridan foydalanishga asoslangan investitsion faoliyati sug'urta tashkilotining o'z mablag'larini joylashtirish, sug'urta zahirolari va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish hamda zahiralariga qo'yiladigan me'yoriy talablar asosida davlat tomonidan tartibga solinadi. Sug'urta zahiralarini joylashtirish ularning garovini qoplash uchun qabul qilingan aktivlarni anglatadi. Barcha me'yoriy cheklovlar va limitlar sug'urta kompaniyalarining xavfsizligi va zarur moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Sug'urta zahiralarini shakllantirish uchun qabul qilingan aktivlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi: diversifikatsiyalanganlik, qaytishlik, foydalilik, likvidlik va ishonchlilik.

Sug'urta sektori investitsion faoliyatining milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir darajasi sug'urta kompaniyasi investitsion potensialining son va sifat xususiyatlari bilan belgilanadi. Sug'urta kompaniyasi investitsion kapitalining son jihatidan xususiyati investitsiya manbai sifatida foydalanilayotgan xususiy kapital, jalb qilingan kapital va qarz kapitalining aniq summasida o'z aksini topadi. Sug'urta sektorining investitsion faoliyati potensialini belgilovchi asosiy omil bo'lib quyidagilar hisoblanadi: sug'urta bozorining hajmi va tuzilishi, davlat nazoratining samaradorligi, sug'urta bozorining kapitallashuvi va konsentratsiyasi, fond bozorining rivojlanganligi va ishonchli moliyaviy instrumentlarning mavjudligi, iqtisodiyot rivojlanishining barqarorligi, moliyaviy rejalashtirishning samaradorligi, sug'urtalovchi xususiy kapitalining hajmi, yangi sug'urta turlarining joriy etilganligi, malakali kadrlarning yetarliligi.

Sug'urta tashkilotlarining fond bozoridagi faoliyati mamlakatdagi mavjud makroiqtisodiy holat va investitsion muhit asosida shakllangan iqtisodiy tizimning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Agar bozorda jozibador moliyaviy instrumentlar mavjud bo'lmasa, sug'urta kompaniyalarining faoliyati samarali⁹⁰ bo'lmaydi. Sug'urta bozori to'g'ridan-to'g'ri fond bozoriga bog'liq ravishda

⁹⁰ Никулина Н.Н., Березина С.В. Страхование. Теория и практика: учебное пособие. Юнити-Дана, 2013 г.

rivojlanadi va uning amal qilishi samaradorligi bozor kon'yunkturasi bilan belgilanadi.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsion faoliyatga e'tibor qaratilishi, ushbu faoliyatning sug'urta kompaniyasi moliyaviy holatiga yuqori darajada ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Moliyaviy natija foyda yoki zarar ma'lum darajada sug'urta kompaniyasi tomonidan yuritilayotgan investitsion siyosatiga bog'liq. Ko'p hollarda sug'urtalovchilar o'zlarining sug'urta faoliyatidan ko'rgan zararlarini investitsion faoliyatdan ko'rilgan foyda hisobidan qoplaydi. Sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati daromadli va bu sohadagi mavjud risk darajasini prognoz qilish mumkin. Sug'urta tashkiloti sug'urta faoliyatining moliyaviy natijasi asosan ob'ektiv omillar bilan bog'liq kechadi. Investitsion faoliyat sug'urta kompaniyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Investitsion faoliyat orqali sug'urta kompaniyasi bozordagi raqobatda o'z mavqeini tarif stavkasini pasaytirish va sug'urtalanuvchilarni jalb qilish maqsadida turli bonuslar taqdim qilish orqali saqlab qolishga erishadi.

Hayot sug'urtasida, kutilmagan hodisalardan hosil bo'ladigan zararlardan himoyalash bilan birga, bonuslar va investitsion daromad olish kafolatlanadi. Bundan tashqari, hayot sug'urtasida va ba'zi boshqa sug'urta turlarida soliq imtiyozlari orqali sug'urtalanuvchilarga qo'shimcha daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Sug'urta tashkilotlari ixtiyoridagi katta hajmdagi pul mablag'larini sug'urta tarmog'iga kiritib, uni investitsiya sifatida iqtisodiyot sohalariga yo'naltirish va bir vaqtning o'zida iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashdagi hissasi bilan sug'urta sohasi iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim moliyaviy instituti sifatida amal qiladi.

Sug'urta kompaniyalari o'zlarining investitsiya mablag'larining katta qismini odatda davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltirish bilan (davlat qimmatli qog'ozlari yetarli miqdorda emissiya qilingan mamlakatlarda) davlat byudjetiga katta hissa qo'shadi. Masalan, AQSh sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiya sifatida yo'naltirilgan mablag'larning katta qismi munitsipal

obligatsiyalar sotib olishga yo'naltirilgan bo'lib, bu mahalliy byudjetlar uchun muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Sug'urtalovchilar qimmatli qog'ozlar bozorida nafaqat investor sifatida, balki kafolatlar taqdim etish bilan ushbu bozorning barqaror rivojlanishini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ya'ni qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'layotgan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq risklarni sug'urtalash bilan ishtirokchilar faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Sug'urta kompaniyalarining ushbu faoliyati davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Sug'urta sohasi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larining katta qismini iqtisodiyotning sanoat sektoriga yo'naltiradi. Bu bilan sug'urtalovchilar sanoat korporatsiyalari ustidan nazoratni o'zlarida ushlab turishga erishadilar. Hozirda dunyodagi yirik sug'urta tashkilotlari moliya va moliya-sanoat guruhlarida muassis yoki asosiy ishtirokchi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu holatda ma'lum qiyinchilik yuzaga keladiki, bu sug'urta kompaniyalarining haqiqiy to'lov qobiliyatini baholash muammosidir, chunki kapitallarning birlashishi tufayli sug'urta kompaniyasining ustav kapitali keskin oshadi va asosan fiktiv xususiyatga ega. Bu ustav kapitali ishtirokchilaridan birining bankrotlik xavfi bo'lgan taqdirda kumulyativ samaraning namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi.

Sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar bo'lishi zarur:

sug'urta bozor infratuzilmasining, shu jumladan yaxshi tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanganligi;

investitsiya instrumentlarning mavjudligi;

moliyaviy barqarorlik darajasi yuqori bo'lishi kerak;

qonunchilik hujjatlar yetarli bo'lishi kerak;

xalqaro moliyaviy munosabatlar yetarli darajada yo'lga qo'yilganligi.

Sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatining daromadi investitsion mablag'lar manbaidan kelib chiqqan holda, sug'urta zahiralarini investitsiya

qilishdan olingan daromadlar va o'z mablag'larini investitsiya qilishdan olingan daromadlarga bo'linadi.

O'zbekiston sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion faoliyat hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsada, rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslanganda investitsion bozorda yetakchi mavqega ega emas. Sohadagi mavjud investitsion quvvat investitsion portfel tarkibi va yuqori samarali moliyaviy instrumentlarning yo'qligi tufayli yuqori investitsion daromad olish imkonini bermayapti.

Odatda, rivojlangan mamlakatlarda hayot sug'urtasi tarmog'i yuqori investitsion potensialga ega bo'lib, ushbu tarmoqdagi investitsion resurslarning asosiy qismi uzoq muddatli mablag'lardan tashkil topgan bo'lib, ushbu xususiyat mazkur tarmoqning jozibadorligini yanada oshiradi. Ammo O'zbekistonda hayot sug'urtasining katta rivojlanish potensialiga ega ekanligiga qaramasdan, iqtisodiyotining yuqori rivojlanish darajasiga ega emasligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, aholi daromadlarining nisbatan pastligi, hayot sug'urtasi ishtirokchilari uchun davlat tomonidan yaratilgan imtiyoz va preferensiyalarning yetarli emasligi kabi omillar ushbu bozor investitsion nufuzining past darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. O'z o'rnida hayot sug'urtasining ommaviylashmaganligi va rivojlanmaganligi mamlakatda inflyatsiya darajasining yuqori darajada saqlanishiga sabab bo'layotgan va bu hayot sug'urtasi mukofotlarining qadrsizlanishiga olib kelayotgan bo'lishi va shu bilan birga, fond bozorida uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarning yo'qligi ushbu bozorning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan bo'lishi mumkin.

Alohida sug'urta tashkilotlari tomonidan katta hajmdagi pul mablag'larining jamg'arilishi va ulardan sug'urta zahiralarining shakllantirilishi sug'urta biznesining moliya bozorlaridagi muhim roli mavjudligini belgilaydi. Sug'urta tashkilotlarining bosh maqsadi – sug'urta majburiyatlarini bajarishdan iborat bo'lsada, ushbu tashkilotlarning investitsiya yo'nalishidagi siyosati ularning sug'urta faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, investitsion faoliyat sug'urtalovchilarga xos bo'lgan ma'lum prinsiplarga bo'ysunadi, bular:

ishonchlilik prinsipi, likvidlilik prinsipi, diversifikatsiyaviylik prinsipi, foydalilik prinsipi va bo'ysunish prinsipi.

Sug'urtalovchi investitsion faoliyatining maqsadi, har qanday xo'jalik sub'ekting investitsion faoliyatining maqsadi kabi - investitsion daromad olishdir. Ammo sug'urtalovchining investitsion faoliyatida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, ushbu o'ziga xoslik sug'urtalovchi investitsiya faoliyatining sug'urta faoliyatiga bo'ysunishidadir. Investitsiya faoliyatining sug'urta operatsiyalariga bo'ysunishi sug'urta faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillardan biri ekanligi quyidagilarda ko'rinadi:

sug'urta majburiyatlarini bajarish bilan kelishilgan vaqtda investitsiya daromadlarini o'z vaqtida olishni ta'minlaydigan tarzda tashkil etish zarurati. Boshqacha qilib aytganda, sug'urta majburiyatlarining tarkibi investitsiya aktivlarining tuzilishini belgilaydi;

sug'urta to'lovlarini amalga oshirish bilan bog'liq investitsiya aktivlari likvidlik, ishonchlilik, yo'naltirilganlik va rentabellikni ta'minlash maqsadida qonun bilan tartibga solinadi.

Hozirgi zamonaviy sharoitda sug'urta kompaniyalarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyatini anglash ortib bormoqda. Asta-sekin sug'urtalovchilar iqtisodiyotning zarur va to'laqonli elementiga aylanmoqda: sug'urta tashkilotlari moliya bozorlarining to'liq ishtirokchisiga aylanmoqda va sug'urta biznesining ko'lami o'sib bormoqda.

Sug'urtalovchining moliyaviy salohiyati investitsiya jarayonini tashkil etish uchun asosiy omil hisoblanadi. U ikki komponentdan tashkil topadi: sug'urtalovchining o'z kapitali va sug'urta mukofotlaridan shakllanadigan sug'urta zahiralar. Bunda shuni ta'kidlash kerak, sug'urta qildiruvchilarning mablag'lari (sug'urta mukofotlari) hisobidan shakllantiriladigan sug'urta zahiralar investitsiya manbasining asosi hisoblanadi. Chunki ular kompaniyaning o'z mablag'lariga nisbatan katta hajmni tashkil etadi va sug'urta shartnomasining amal qilishi davrida zahiraga olinib, vaqtinchalik investitsiya sifatida yo'naltiriladi. Ushbu davrda sug'urta odisasi yuz bergan holatda qoplama uchun yo'naltiriladi. Shu

sababli ular likvidlilik va qaytishlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Sug'urta shartnomasining amal qilishi davrida sug'urta hodisasi yuz bermagan holatda, agar uni sug'urtalanuvchiga qaytarish ko'zda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti sug'urta kompaniyasining daromadiga aylanadi.

Demak, sug'urta kompaniyasining daromadliligi sug'urta hodisalarining yuz berish tezligiga ko'p jihatdan bog'liq va buni oldindan prognoz qilib bo'lmaydi. Shu tufayli sug'urta sohasida investitsion faoliyatdan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natija foyda yoki zarar ko'p jihatdan kompaniya tomonidan investitsion siyosatni to'g'ri shakllantirishga bog'liq. Ko'p hollarda sug'urta tashkilotlari sug'urta faoliyatidan zarar ko'radi va ushbu zarar investitsion faoliyatdan ko'rilgan foyda hisobidan qoplanadi. Investitsion daromad sug'urta kompaniyasi uchun muhim rivojlanish manbai hisoblanadi. Investitsiyalardan olingan daromad tufayli sug'urta kompaniyasi sug'urta stavkasini pasaytirish yoki bonuslar berishni kafolatlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sug'urta tashkilotlari xususiy kapitalini tashkil etuvchi boshqa manbalar bo'lib qo'shilgan kapital, zahira kapitali, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar hamda kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zahiralar hisoblanadi. Sug'urta zahirolari sug'urta faoliyati jadal rivojlanayotgan sug'urta tashkilotlarida ortib boradi va bu holat, ular investitsiya faoliyatining kengayishida muhim rol o'ynaydi. Bu esa sug'urta tashkilotlarining investitsiyon jarayonlarida ishtirokini hamda ko'lamini oshirish uchun zamin yaratadi. Sug'urta tashkilotlarining sug'urta zahirolari, xususiy kapitali va aktivlarining o'sish dinamikasi o'ziga xos bo'lib, quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. (2.9-jadvalga qarang).

“Sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta zahiralar, xususiy kapitali va aktivlarining o‘shish dinamikasi⁹¹” (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Yillar										2014/2023
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	o‘shishi, marta
Sug‘urta zahiralar	345,8	428,4	566,7	766,0	1112,2	1 869,0	1 899,6	2 651,6	3 827,5	5 576,4	16,2
Xususiy kapital	523,0	595,3	654,5	1118,3	1385,2	755,2	1 439,2	1 589,8	1 884,1	2 298,6	4,39
Aktivlar	871,5	1043,5	1183,5	2009,7	2534,1	3 475,9	4 425,3	5 115,3	7 092,6	9 010,8	10,4

Ushbu jadvalda sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta zahiralar, xususiy kapitali va aktivlari o‘shish dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, sug‘urta zahiralar 2014-yilda 345,8 mlrd.so‘mni tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 5,576,4 mlrd.so‘mni tashkil etib, sug‘urta zahiralar 2014-yilga nisbatan 2023-yilda o‘shishi 16,2 marta o‘sganligini ko‘rish mumkin. Sug‘urta tashkilotlari xususiy kapitali 2014-yilda 523,0 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 2298,6 mlrd.so‘mni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkich 2014 yilga nisbatan 2023-yilda 4,39 martaga oshgan. Sug‘urta tashkilotlarining aktivlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2014-yilda 871,5 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 9010,8 mlrd.so‘mni yoki 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 10,4 barobarga oshgan.

Demak, investitsiya manbalarining o‘shishiga nisbatan investitsiyaga yo‘naltirilgan mablag‘larning o‘shishi nisbatan pastroq ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Bu sug‘urta tashkilotlarining investitsiya imkoniyatidan to‘liq foydalanmayotganliklaridan dalolat beradi.

⁹¹O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

“Sug‘urta kompaniyalarining aktivlar tarkibi”⁹² (2024 yil)

№	Ko‘rsatkichlar	foizda
1.	Asosiy vositalar	9,9
2.	Depozitlar	40,6
3.	Pul mablag‘lari	3,2
4.	Qimmatbaho qog‘ozlar	15,9
5.	Zaymlar	1,1
6.	Boshqa omonatlar	4,7
7.	Debitor qarzdorliklar	22,8
8.	Tovar-moddiy zahiralar	0,3
9.	Boshqalar	1,4

Ushbu jadvalda sug‘urta kompaniyalarining aktivlari tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, asosiy qismi depozitlar, qimmatbaho qog‘ozlar va debitor qarzdorliklardan tashkil topgan bo‘lib 79,3 foizni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyati mamlakatdagi mavjud iqtisodiy tizim, investitsion muhit va makroiqtisodiy holat bilan bog‘liq hisoblanadi⁹³. Fond bozorida investorni o‘ziga jalb qiladigan moliyaviy instrumentlar yetarli bo‘lmasa, sug‘urta kompaniyalarining ushbu bozordagi faoliyati samarali bo‘lmaydi.

Sug‘urta bozoridagi investitsion faoliyat fond bozori bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning samaradorligi bozor kon’yunkturasi bilan belgilanadi.

Sug‘urta tashkiloti investitsion faoliyati daromadining manbasi ikkita bo‘lib, birinchisi sug‘urta zahiralar bo‘lsa, ikkinchisi sug‘urta kompaniyasining xususiy kapitali hisoblanadi. Davlat tomonidan sug‘urta sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayotganligiga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlar sug‘urta

⁹²O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

⁹³Никулина Н.Н., Березина С.В. Страхование. Теория и практика: учебное пособие. Юнити-Дана, 2013 г.

bozorlari bilan taqqoslanganda, hozirga qadar investor sifatida milliy iqtisodiyotda yetakchi kuchga ega emas.

Sug'urta bozori o'zining mavjud investitsion quvvatidan samarali foydalanayotgani yo'q. Buning asosiy sabablaridan biri, investitsion portfel tarkibi yuqori investitsion daromad olish imkonini bermasligida, buning asosiy sabablaridan biri esa yuqori daromadli investitsion instrumentlarning yetarli emasligida.

Investitsion faoliyatda hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari odatda yetakchi hisoblanadi. Ular tomonidan tijorat banklarida bo'lmagan imkoniyat, ya'ni iqtisodiyot sohalariga investitsiya sifatida "uzun pullar"ni yo'naltirish imkoniyati mavjud. Afsuski hayot sug'urtasidan foydalanuvchilar uchun taqdim etilgan soliq imtiyozining bekor qilinishi ushbu tarmoq rivojlanishining keskin ravishda pasayishiga sabab bo'ldi. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan yana bir holat, iqtisodiyotda davom etayotgan yuqori darajadagi inflyatsiyadir.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion faoliyatning yillar davomidagi o'sish dinamikasi ular tomonidan to'planayotgan sug'urta mukofotlari va jami ustav kapitallarining o'sish dinamikasiga nisbatan past ekanligini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin (2.11-jadvalga qarang).

Quyida keltirilgan jadvalga ko'ra, investitsion faoliyatning asosiy manbai hisoblangan ikki ko'rsatkich, ya'ni to'plangan sug'urta mukofotlari 348,3 foiz va jami ustav kapitallari hajmi 304,4 foizga o'sgani holatida, sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi yuqoridagi ikki ko'rsatkichga nisbatan ancha past, ya'ni 226,8 foizga o'sgan. Buning sababi ikkita bo'lib, yaniy birinchi sabab sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining ulushi past bo'lgan yoki sug'urta tashkilotlar ixtiyorida yig'ilgan moliyaviy resurslar investitsiya ob'ektlariga to'g'ri joylashtirilmaganligidan dalolat beradi.

2.11 –jadval

“O‘zbekiston sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari, ustav kapitali va investitsiya mablag‘larining o‘shish dinamikasi (mlrd.so‘m)”⁹⁴

Ko‘rsatkichlar	Йиллар										
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2014-yilga nisbatan 2023-yilda o‘shish, %
Sug‘urta mukofotlari	439,1	515,7	692,6	927,4	1628,5	2314,1	2213,7	3 733,0	6 231,7	8 059,7	18,3
Jami ustav kapitali	361,3	420,7	443,1	321,6	543,0	755,2	1439,0	1 590,0	1 884,0	2 299,0	6,3
Investitsiya mablag‘lari	526,6	623,7	758,1	867,5	2010,7	2711,9	3354,6	3746,7	4 751,8	6 149,9	11,6

Ushbu jadvalda sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari, ustav kapitali va investitsiya mablag‘larining o‘shish dinamikasi keltirilgan. Sug‘urta tashkilotlari tomonidan 2014-yilda yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari 439,1 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 8059,7 trln.so‘m tashkil qilib, 2014-yilga nisbatan 2023-yilga sug‘urta mukofotlari ulushi 18,3 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Sug‘urtalovchilarni jami ustav kapitali 2014-yilda 361,3 mlrd.so‘mni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 2 299,0 trln.so‘mga tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 6,3 barobarga oshganligini guvohi bo‘lamiz. Shu bilan bir qatorda sug‘urta tashkilotlari tomonidan investitsiyaga yo‘naltirilgan mablag‘lar 2014-yilda 526,6 mlrd.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2023-yilda 6 149,9 trln.so‘mga yetib, 2014-yilga nisbatan 2023-yilda investitsiyaga yo‘naltirilgan mablag‘lar 11,6 martaga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hamda ularning

⁹⁴O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ustav kapitallari miqdorini o'sishiga nisbatan sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmining nisbatan past bo'lishiga sabab bo'lgan degan fikrni ilgari surish mumkin.

§2.3. Mamlakat ichki investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining rolini oshirish

Bir mamlakat miqyosidagi investitsion soha to'g'risida mushohada qilganda, ikki masalaga aniqlik kiritish to'g'ri mushohada yuritish imkonini beradi, birinchisi mamlakatda investitsion mablag'larga bo'lgan ehtiyoj qay darajada ekanligi va ikkinchisi ichki va tashqi investitsion imkoniyatlar darajasi. Mamlakatimizdagi mazkur ikki jihatni tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'zbekiston turli xil foydali qazilmalarga boy. Yer qa'rida mineral xom ashyoning 100 dan ortiq turlari aniqlangan. Oltin, uran, mis, kumush, qo'rg'oshin, rux, volfram, tabiiy gaz va boshqa ba'zi foydali qazilmalar zahiralari bo'yicha mamlakatimiz dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Birgina mineral resurslarning tasdiqlangan zahiralari taxminan 3,3 trillion dollarga baholanmoqda. Qayta ishlash sanoatidagi korxonalarni modernizatsiya qilish va qayta jihozlash uchun faqat keyingi uch yil ichida 3,7 milliard dollar sarmoya jalb qilish zarur. Neft-gaz xom-ash'yosini qayta ishlab tayyor mahsulotga aylantirish orqali uni hozirgiga nisbatan 10 baravar ko'paytirish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagi ma'lumotlar mamlakatimizda investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj juda katta ekanligini ko'rsatadi.

Ichki investitsion imkoniyatdan foydalanish darajasiga e'tibor qaratamiz. Mamlakatda ichki investitsion imkoniyatlar mavjud va ushbu imkoniyat yildan-yilga ortib bormoqda. Bu ishga yaroqli aholi sonining yuqori darajada ortib borayotganligi va mazkur aholi daromadlari yildan-yilga ko'payib borayotganligi, tadbirkorlik sub'ektlari sonining ortib borayotganligi bilan belgilanadi.

Ammo ushbu aholi qatlamlari va tadbirkorlik sub'ektlari qo'lida to'planayotgan pul mablag'larini investitsiya sifatida jalb qiladigan ishonchli va o'ziga tortuvchi investitsiya instrumentlari juda kam va amaldagilari jozibador

emas. Chet mamlakatlarda aholi mablag'larining katta qismini jamlab investitsiya sifatida yo'naltirayotgan pensiya jamg'armalari mamlakatimizda amalda mavjud emas. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiya sohasida birinchi yoki ikkinchi o'rinni egallab turgan sug'urta sohasi talab darajasida rivojlanmagan. Investitsiya jamg'armalari (PIF) amalda mavjud emas. Fond bozori va ayniqsa ikkilamchi fond bozori deyarli rivojlanmagan, shu jumladan ichki obligatsiyalar bozori deyarli mavjud emas. O'zbekiston kapital bozorining kapitallashuvi mamlakat YaIMga nisbatan 1 foizga teng. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30–60 foiz, rivojlangan davlatlarda esa 100 foiz va undan ham ortiqni tashkil etadi. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori amalda mavjud emas. Tijorat banklari faoliyati nisbatan rivojlangan bo'lsada, chet mamlakatlar bilan taqqoslanganda kapitallashuv darajasi past, ular tomonidan taqdim etilayotgan kredit foizlari sezilarli darajada yuqori.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z faoliyatini yo'lga qo'yganiga o'ttiz yildan ortiq davr o'tgan bo'lsada, mamlakat milliy sug'urta bozori hali ham o'z rivojlanishining dastlabki bosqichida deya qayd etilmoqda. Sug'urta sohasining bir vaqtning o'zida hamkori va raqobatchisi hisoblangan bank sektori bugungi kunda ajoyib natijalarga erishdi va mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i sifatida amal qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda esa sug'urta sektori iqtisodiyotga investitsiyalar kirituvchi uchta eng yirik manbalaridan biri hisoblanadi. Bular davlat, pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari. Ushbu uchtalikda banklar belgilanmagan. Shu sababli, kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotiga uzoq muddatli xususiy investitsiyalarni jalb qiluvchi mustaqil manbaga ega bo'lish uchun biz sug'urta biznesini rivojlantirishimiz juda muhimdir. Sug'urta bozorining katta sig'imga ega ekanligi har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun katta imkoniyatdir, chunki ushbu soha yo'qotishlarni moliyalashtirish manbai sifatida, ulkan investitsiya resurslari manbai sifatida, ham barqarorlashtiruvchi vosita sifatida muhim rol o'ynaydi.

Hukumatimiz tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda, ya'ni ularni jalb qilish uchun turli soliq va boshqa imtiyozlar berilmoqda. Agar mazkur investitsiyalar real investitsiya bo'lsa, zamonaviy

texnika va texnologiyalar ko'rinishida kirib kelsa yaxshi, ammo bunda ham investor foydani valyuta ko'rinishida olib chiqib ketadi. Ularga berilgan imtiyozlar qanchalik katta bo'lsa, mamlakat uchun keltiradigan foydasi shunchalik kamayadi, agar ularga berilgan imkoniyatlar monopolistik sharoitning paydo bo'lishiga olib kelsa, xalq uchun yoki uning mijozlari uchun katta zarar olib keladi. Shunday ekan, chet el investitsiyalarini jalb qilish doim ham mamlakat uchun, uning iqtisodiyoti va xalq uchun foydali bo'lavermaydi. Chunki chet ellik investorning yagona maqsadi bo'ladi, bu ham bo'lsa, barcha imkoniyatlardan foydalangan holda ko'proq foyda olib, uni olib chiqib ketish.

Mamlakatning ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanganishga qaratilgan tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirish orqali aholi va yuridik shaxslar qo'lidagi mablag'larni jalb qilgan holda investitsion manbalar shakllantirish va uni iqtisodiyot sohaslariga yo'naltirish bir vaqtning o'zida mamlakat uchun va xalq uchun har jihatdan foyda keltiradi. Bu kabi bo'sh mablag'larni to'plash va investitsiyaga yo'naltirishning tajribadan o'tgan usuli sug'urtadir. Sug'urta vositasida bir vaqtning o'zida quyidagilarga erishish mumkin:

majburiy sug'urta turlarini amalga kiritish orqali ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan risklar sug'urta himoyasiga olinadi;

hayot sug'urtasi vositasida turli toifadagi aholi qatlamlari ijtimoiy himoyalaniadi;

tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urta turlari orqali tadbirkorlar faoliyati bilan bog'liq risklar sug'urta himoyasiga olinib, ular faoliyatining barqarorligi ta'minlanadi;

xalqaro munosabatlar, savdo, investitsiyalar va turizm sohasidagi risklar sug'urtalanadi;

katta hajmdagi, uzoq muddatga mo'ljallangan investitsion manba shakllanadi va uni iqtisodiyot sohaslariga investitsiya sifatida yo'naltirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu bo'yicha oddiy arifmetikani keltiramiz:

Dunyo bo'yicha kishi boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti o'rtacha 400 AQSh dollarini tashkil etmoqda. Agar mamlakatimizda sug'urta sohasi

bugungi kunda oʻrtacha darajada rivojlanish darajasiga erishganda, bir yilda toʻplanadigan sugʻurta mukofotlari hajmini hisoblash uchun dunyo miqyosidagi kishi boshiga toʻgʻri kelayotgan oʻrtacha sugʻurta mukofotini (400 \$) mamlakat aholisining soniga koʻpaytirgan holda, $400 \times 37\,000\,000 = 14\,800\,000\,000$ AQSh dollari miqdoridagi sugʻurta mukofoti toʻplanishini hisoblab topishimiz mumkin. Bu degani oʻrtacha shuncha miqdordagi mablagʻni investitsiya sifatida iqtisodiyot sohalariga yoʻnaltirish mumkin. Agar sugʻurta faoliyati yanada rivojlanib, yana 10 yildan keyin bir yilda toʻplangan jami sugʻurta mukofotlari kishi boshiga 1000 AQSh dollaridan toʻgʻri kelsa (Shvesariyada kishi boshiga toʻgʻri keladigan sugʻurta mukofoti oʻrtacha 7000 AQSh dollarini tashkil etadi) va oʻsha davrda mamlakatimiz aholisi 42 0000 000 kishini tashkil etsa, unda $1000 \times 42\,000\,000 = 42\,000\,000\,000$ AQSh dollari miqdoridagi sugʻurta mukofotlari toʻplanadi va taxminan shuncha miqdordagi mablagʻlarni investitsiya sifatida iqtisodiyot sohalariga yoʻnaltirish mumkin boʻladi.

2.12-jadval

“Oʻzbekiston sugʻurta bozorida toʻplangan sugʻurta mukofotlari va yoʻnaltirilgan jami investitsiyalarning oʻzaro nisbati”⁹⁵

Koʻrsatkichlar	Yillar										2014/2023 oʻsish
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Жами сугʻурта мукотлари (млрд.сўм)	439,1	515,7	692,6	927,4	1628,5	2 314,1	2 213,7	3 733,0	6 231,7	8 059,7	18,3 barobar
Jami investitsiyalar (mlrd.soʻm)	526,6	623,7	758,1	867,5	2010,7	2711,9	3354,6	3746,7	4 751,8	6 149,9	11,6 barobar
Jami sugʻurta mukofotlariga nisbatan jami sugʻurta inves- titsiyalari,(%) da	119,92	120,94	109,4	93,54	123,46	117,19	151,54	110,09	76,25	76,30	Oʻrtacha 109,86 %

2.12-jadval hamda 2.7-jadval maʼlumotlaridan xulosa qilish mumkin, sugʻurta kompaniyalarining investitsion faolligi 2019-yildan 2021-yilgacha boʻlgan davrga nisbatan soʻnggi ikki yillikda (2022-2023-yillar) pasaygan. Chunki birinchi davr oraligʻida toʻplangan sugʻurta mukofotlariga nisbatan investitsiyaga yoʻnaltirilgan

⁹⁵Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

mablag'lar hajmi ancha yuqori bo'lib, so'nggi ikki yilda to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larga nisbatan ancha yuqori bo'lgan. Shunga qaramasdan, o'n yillikdagi o'rtacha ko'rsatkich hisoblanganda, yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari to'plangan sug'urta mukofotlariga nisbatan 109,86 % ni tashkil etgan. Demak, yuqoridagi prognozimizdagi kabi, yillik investitsiya mablag'lari hajmini o'rtacha mazkur yilda to'plangan sug'urta mukofotlari miqdorida bo'lishini prognoz qilish mumkin. Ammo chet el tajribasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati samarali tashkil etilgan va sug'urta faoliyatining zararlilik darajasi o'rta darajada bo'lgan holatda, sug'urta kompaniyasining investitsiya mablag'lari hajmi ortib boraveradi va yillik sug'urta mukofotlari hajmiga nisbatan sezilarli darajada katta bo'lishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, sug'urta vositasida ichki imkoniyatdan foydalangan holda katta investitsion manba to'plash imkoniyati mavjud. Albatta ushbu mablag'larni hozirgidagidek, asosiy qismini bank depozitlariga yo'naltirish kerak emas deb hisoblaymiz. Axir nima uchun tayyor investitsion mablag'lar bir investordan ikkinchi investorga o'tib, qimmatlashgan holda iste'molchi, ya'ni tadbirkorning qo'lga yetishi kerak? Sug'urta bozorida yuqorida keltirganimiz kabi, katta hajmdagi investitsion mablag'lar to'plangan holatda, sug'urta kompaniyasiga kredit faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatini berish kerak, shunday holatda mamlakatda kredit foizlari pasayadi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larini tadbirkorlik sub'ektlarining ustav kapitalini shakllantirishga ko'proq yo'naltirishi kerak deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan masalalarning barchasi sug'urtaning investitsion faoliyatini rivojlantirish orqali mamlakatdagi mavjud ichki investitsion imkoniyatlardan to'liqroq foydalanishga erishish masalalari edi. Ikkinchi tomondan, sug'urta xizmatlarini rivojlantirish bilan, uning ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan funksiyasini davlat bilan hamkorlikda rivojlantirish orqali davlat o'z fuqarolarining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni yo'lga qo'yishi mumkin. Ma'lumki, davlatimiz tomonidan

kam ta'minlangan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash maqsadida turli nomdagi daftarlar tashkil qilgan holda, ularga mablag'lar ajratib kelmoqda. Albatta bu ham o'z o'rnida ijtimoiy himoyaning bir turi. Ammo ushbu vositalar mazkur aholida biror bir baxtsiz hodisa yuz berganda ko'rilgan zararining o'rnini operativ tarzda qoplash tizimiga ega emas. Bunday tizimga faqat sug'urta sohasi ega. Sug'urtaning iqtisodiyot uchun, xususan, mamlakatdagi investitsion shart-sharoitlarni yaxshilashdagi o'rni ham muhim hisoblanadi. Ichki va tashqi investorlar kiritadigan mablag'lar bilan bog'liq risklarni sug'urtalashning yo'lga qo'yilishi investorlarning ko'payishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sug'urta sohasi bir vaqtning o'zida iqtisodiyot rivoji uchun, ham aholining ijtimoiy himoyasi uchun, ham investitsion muhitning yaxshilanishi uchun hamda investitsiya mablag'larining ko'payishi uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 2016-2019-yillar oralig'ida sug'urta mukofotlari o'rtacha 150 foizga o'sdi, 2020-yilda esa pandemiya oqibatida sug'urta mukofotlari hajmi 2019-yilga nisbatan 94 foizni tashkil etdi. Buning sababi sug'urta kompaniyalarining masofadan ishlash bo'yicha yetarli tajribaga ega emasligi hamda pandemiya davrida aholi va yuridik shaxslar daromadlarining pasayganligi bo'ldi. Pandemiyadan keyingi davrda sug'urta sektori o'z faoliyatini yuqori darajada rivojlantirishga erishdi va 2020-yilga nisbatan 2023-yilda sug'urta mukofotlari 364 foizga oshdi. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faolligi doimiy o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib, ushbu o'sish 2016-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda 287 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga nisbatan 2023-yildagi o'sish 183 foizdan ortiqni tashkil etdi.

Ammo shunday bo'lsada, sug'urta sohasining yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 1 foizdan ham kam hajmni (0,8 foiz) tashkil etmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Akvizitsion xarajatlar (komission rag'batlantirishlar) ning yuqoriligi, bu sug'urta zahiralari kengaytirishga imkoniyat bermayapti. Bizning nazarimizda bu ixtiyoriy sug'urta bozoridagi yuqori korrupsion muhitning mavjudligi tufaylidir.

2. Ixtiyoriy sug'urta klasslari bo'yicha transchegaraviy qayta sug'urta xizmatlarining yuqoriligi. Bu birinchidan nazoratsiz pul mablag'larining chetga chiqib ketishi bo'lsa, ikkinchidan maxsus qayta sug'urta kompaniyasining ichki bozorda mavjud emasligi va sug'urta kompaniyalari past kapitallashuvi holatida katta risklarni o'zida ushlab qolish imkoniyati yo'qligining natijasidir.

3. Sug'urta shartnomalarining katta qismi bank risklari bilan bog'liq shartnomalar bo'lib, ushbu hududda (banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi munosabatlar) sog'lom raqobat muhitining mavjud emasligi. Banklar va moliya-sanoat guruhlarining o'zlarining sho'ba sug'urta kompaniyalarini tashkil etgan bo'lib, ushbu hududga boshqa sug'urta kompaniyalarining kirish imkoniyati yo'q. Bu esa sog'lom raqobatga yo'l bermaydi va natijada rivojlanish bo'lmaydi. Albatta, chet el tajribasida ham banklar va moliya-sanoat guruhlaridan tomonidan yirik sug'urta kompaniyalari tashkil etish amaliyoti mavjud bo'lib, ammo ular bunda asosiy maqsad sifatida o'z risklarini begonalashtirmaslik emas, balki tashqi bozorni egallash maqsadini qo'yishgan.

Yuqoridagi va boshqa to'siqlar bo'lishiga qaramasdan sug'urta bozori asta-sekin rivojlanishda davom etmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi PQ-291 sonli qarori asosida sug'urta sohasini davlat tomonidan tartibga solish, litsenziyalash va rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borish vakolati Istiqbolli loyihalar milliy Agentligiga berilgandan keyingi o'tgan qisqa davrda agentlik tomonidan tizimli ravishda bir qancha salmoqli tadbirlar amalga oshirilishi natijasida bozorning bundan keyingi rivojlanishi yanada yaxshilanishidan dalolat bermoqda. Bunday tadbirlar sifatida onlayn xizmatlar hajmining kengaytirilishiga qaratilgan tadbirlar, tizimni raqamlashtirishga qaratilgan harakatlar, sug'urta kompaniyalari kapitallashuv darajasini oshirish, majburiy sug'urta turlarining to'laqonli amalga oshirilishi bo'yicha nazoratni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar kabilarni keltirish mumkin.

Hozirgi amaldagi qonunchilikka ko'ra, sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilar quyidagi investitsiya instrumentlaridan foydalanish imkoniyatiga ega:

- O'zbekiston Respublikasi va chet davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari;
- bank depozitlariga qo'yilmalar;
- ko'char va ko'chmas mulklar;
- yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtiroki;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

zaymlar;

qonunchilikka xilof bo'lmagan boshqa vositalar.

Sug'urta tashkilotlarining investitsiyaviy instrumentlar borasida cheklangan imkoniyatlarga ega. Ushbu imkoniyatlarni kengaytirgan holatda, ya'ni yangi investitsiya instrumentlari amalga kiritilsa, sug'urta tashkilotlari byudjet moliyalashtirishda va xususiy investitsiya loyihalarida ishtirok etish imkoniyati yuzaga keladi. Ular investitsiya fondlarining muassislari sifatida ishtirok etishlari mumkin va bu o'z o'rnida kapital bozorining rivojlanishiga olib keladi.

Investitsiyalar daromadlilik darajasi va risk darajasi bo'yicha farqlanadi. Yuqori daromad olish uchun yuqori riskni qabul qilish kerak bo'ladi. Aksiyalar risk darajasi yuqori va shu bilan birga qimmatli qog'ozlar bozoridagi yuqori daromadli instrument hisoblanadi. Aksiyalarning yana bir muhim afzalligi emitent-kompaniyaning ma'lum qismiga egalik huquqini beradi; daromadning kattaligi kompaniyaning fundamental qiymati va faoliyat samaradorligiga bog'liq; shu bilan birga aksiyadan ham kafolatlangan daromad olish mumkin.

Obligatsiya sug'urta kompaniyasi uchun har jihatdan to'g'ri keladigan investitsiya instrumenti, past risk bilan optimal daromad beradi. Obligatsiyaning afzalliklari: oddiy; shaffof va barqaror: ayniqsa, daromad qiymati oldindan ma'lum va butun amal qilish davri uchun taalluqli; narxlar oshib borish sharoitida daromad topish imkoniyati. Ammo mamlakatimizda obligatsiyalar bozori yaxshi rivojlanmagan.

Past riskka ega bo'lgan, me'yorlar bo'yicha sug'urta kompaniyasiga katta ta'sir ko'rsatmaydigan investitsiya instrumenti bu davlat qimmatli qog'ozlaridir. Davlat qimmatli qog'ozlari yuqori likvidli va risk darajasi past investitsiya instrumenti hisoblanadi. Bank kreditini taqdim etishda ta'minot sifatida foydalanish mumkin, hamda repo orqali qisqa muddatli moliyalashtirishga jalb qilish mumkin. Ammo davlat qimmatli qog'ozlari bozori ham katta emas.

Yuqori likvidli investitsiya instrumenti bu bank depozitidir. Ammo bank depozitlari yuqori daromadga kafolat bermaydi, faqat banksug'urta xizmatlaridan foydalanishga yo'l ochadi. Ushbu maqsadga erishish maqsadida sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larining katta qismini bank depozitlariga yo'naltirmoqda.

Sug'urta tashkilotlari o'zlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida o'z aktivlari sifatiga doimiy e'tibor qaratishi va o'z aktivlarini qaytishlik, likvidlik, diversifikatsiya va foydalilik prinsiplariga asosan joylashtirishi kerak.

Umuman, har qanday tijorat tashkiloti o'z investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun investitsiya siyosatini amalga oshirishi kerak. Tijorat tashkilotining investitsiya siyosati – bu tashkilotning yaqin va uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida investitsiyalarga o'z mablag'i, qarz va boshqa mablag'larning foydali investitsiyalarini ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmuidir. Tashkilotning investitsiya siyosatini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish kerak deb hisoblaymiz:

- 1) investitsiya siyosatining tashkilotning strategik rejalariga va uning moliyaviy barqarorligiga erishishga yo'naltirilganligi;
- 2) inflyatsiya va xavf omillarini hisobga olish;
- 3) investitsiyalarning iqtisodiy asoslanishi;
- 4) investitsiya siyosatini shakllantirish, portfel va real investitsiyalarning maqbul tuzilishi;

5) loyihalar va investitsiyalarning ahamiyati va amalga oshirish ketma-ketligi bo'yicha, mavjud resurslarga asoslangan va jalb qilishni hisobga olgan holda tartiblash;

6) investitsiyalarni moliyalashtirishning ishonchli va arzon manbalari va usullarini tanlash.

Shu va boshqa prinsiplarni qo'llash tashkilotda investitsiya siyosatini ishlab chiqishda ko'plab xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblarning oldini olishga yordam beradi. Ushbu prinsiplar bilan birga, investitsiya faoliyatini amalga oshirishda sug'urta kompaniyasi quyidagi asosiy shartlarga amal qilishi kerak:

1. Investitsiyalar va ular bilan bog'liq risklarni boshqarish kompetensiyasiga ega bo'lish.

2. Ma'lumotlar shaffofligi va konfidensialligini ta'minlash.

Investitsiyalar va ular bilan bog'liq risklarni boshqarish kompetensiyasi sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi kerak:

kompaniya investitsion siyosatini ishlab chiqish va unda sug'urtalovchining investitsion faoliyatdagi asosiy yo'nalishlarini belgilab olish;

investitsiya ob'ektlarini investitsiya yo'naltirishdan oldin o'rganish va tahlil qilish, investitsiya yo'naltirilgandan keyin uning daromadlilikini vaqti-vaqti bilan baholab borish.

Ma'lumotlar shaffofligi va konfidensiallikni ta'minlash uchun:

qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda ma'lumotlarni oshkor qilish;

amalga oshirilgan investitsiyalar to'g'risida muassislarning oldida yillik hisobot berish.

Har bir kompaniya tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlangan investitsiya siyosatiga asosan, ushbu faoliyatga aloqador bo'lgan barcha xodimlar kompaniya mablag'larining maksimal darajada samaradorligi va likvidligi bo'yicha javobgarlik olib borishi kerak. Har bir xodim mablag'larning samaradorligi, foydaliligi va likvidligining ta'minlanishiga qaratilgan takliflar kiritishi va taklif kiritishdan uning shaxsiy manfaatdorligi ta'minlanishi kerak.

Sugʻurta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqiladigan investitsiya siyosati yana quyidagi prinsiplarga asoslanishi investitsion faoliyat samaradorligini taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi deb hisoblaymiz:

depozitlar faqatgina faoliyati oʻrganilgan va tahlil qilinib, investitsiya rejasiga kiritilgan bank muassasalariga yoʻnaltirilishi kerak;

mablagʻ prudensial koʻrsatkichlar bilan tasdiqlangan meʼyoriy talablarga javob beradigan bank yoki boshqa muassasaga joylashtirilishi kerak;

barcha qatʼiy belgilangan daromad beradigan qimmatli qogʻozlar mahalliy kredit reytingiga ega boʻlishi kerak;

barcha qatʼiy belgilangan daromad beradigan xorijiy qimmatli qogʻozlar kamida bitta xalqaro kredit reytingiga ega boʻlishi kerak. Xalqaro reyting tan olingan reyting agentligi boʻlishi va ushbu agentlik tomonidan berilgan reyting kamida VVV boʻlishi kerak;

joylashtirish faqat bank yoki boshqa muassasa obroʻsi (reputatsiya) yoki yuridik shaxs sifatida kamchilik va muammolarga ega boʻlmasligi yoki aktivlarga xos boʻlgan muammoli bitimlarda ishtirok etmagan boʻlishi kerak, chunki bunday holatlar kompaniyaning investitsion portfeliga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Sugʻurta kompaniyasining investitsiya rejasi kamida quyidagi qismlardan tashkil topishi kerak:

- 1) Asosiy taxminlar va fikrlar;
- 2) Kapital va likvidlikka qoʻyilgan talablar;
- 3) Kutilayotgan rentabellik;
- 4) Aktivlarni amal qilish muddati, daromadlilik va risk darajasi boʻyicha guruhlariga ajratilgan klasslar boʻyicha maqsadli taqsimlash;
- 5) Amaldagi qonunchilik va qoidalarga amal qilish.

Endi ushbu paragrafda sugʻurta sohasi rivojlanishining Oʻzbekiston iqtisodiyotiga taʼsirini tahlil qilishimiz kerak. Ushbu tahlil bizga sugʻurta kapitalidan foydalanish samaradorligi boʻyicha tadqiqotlar olib borish qanchalik dolzarbligi toʻgʻrisida xulosa qilish imkonini beradi.

Sug'urta faoliyati tadbirkorlik tavakkalchiligi oqibatlarini, xalqaro munosabatlardagi savdo, turizm va boshqa jarayonlarda yuzaga keladigan xatarlarni bartaraf etishi, ijtimoiy hayotdagi barqarorlikni ta'minlashi hamda iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilish uchun sezilarli manbalarni shakllantirishi, investitsiya risklarini yumshatishi bilan ajralib turadi⁹⁶. Shunday ekan, sug'ura sohasi va xususan, sug'urtaning investitsiya faoliyati iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida sug'urta sohasi tobora muhim o'rin tutib bormoqda. Sug'urta mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash bilan birga, asta-sekin boshqa ijtimoiy va iqtisodiy xavflardan himoya qilish vositasi sifatida, xususan, tabiiy ofatlar va pandemiya epidemiyalari ta'siridan himoya qilish bilan mamlakatning barqaror va jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlamoqda. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati ularning sug'urta biznesidan tashqari daromadini oshirishi orqali sug'urta kompaniyasining to'lov qobiliyatini oshiradi va sug'urta sanoati kapitalini foydali holatga keltiradi. COVID -19 pandemiyasidan keyin sug'urta kompaniyalari tomonidan to'planayotgan sug'urta mukofotlari hajmi va o'z o'rnida sug'urta qoplamalari hamda investitsiyalari doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi va bu o'sish oldingi davrlarga nisbatan yuqori bo'lmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida, mamlakat prezidenti boshchiligida xalqaro munosabatlarning kengayib borayotganligi, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanib borayotganligi va o'z o'rnida aholi daromadlarining ortib borayotganligini ko'rsatish mumkin.

Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati ularning sug'urta faoliyatining holatiga bog'liq holda rivojlanadi, ya'ni qachonki sug'urta faoliyati yuqori darajada rivojlansa, ularning investitsiya imkoniyatlari ortadi va ushbu faoliyatning rivojlanishiga shart-sharoit yaratiladi. Albatta bunga qo'shimcha ravishda to'g'ri investitsiya siyosati, davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar,

⁹⁶Qo'ldoshev Q.M. "O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusida iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya avtoreferati. T.:Iqtisod-moliya nashriyoti, 2019 y. 5 b. TDIU kutubxonasi.

investitsiya instrumentlarining turli-tumanligi talab darajasida bo'lishi kerak. Davlatimiz tomonidan xalqaro va ichki siyosatda olib borilayotgan ijobiy harakatlar kelajakda sug'urta sohasining rivojlanishidan dalolat beradi. Faqat bu xulosa bugungi kun holati bilan qaraganda, umumiy sug'urta tarmog'iga taalluqli. Hayot sug'urtasi tarmog'iga taalluqli bo'lgan soliq sohasidagi imtiyozlarning ba'zilarining bekor qilinishi va qolganlarining muddati tugayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, mamlakatimizda hayot sug'urtasining yaqin kelajakda rivojlanishiga asoslar yetarli emas. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqanda, investitsion faoliyatning hajmi ko'proq hayot sug'urtasiga bog'liq.

Oxirgi yillardagi (2023-yil) natijalari bo'yicha hayot sug'urtasining jami sug'urta bozoridagi hisssasi 4 ga tushib qoldi. Mazkur yilda hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan 1 ta sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini to'xtatdi, qolgan 7 ta sug'urta kompaniyalari barchasining to'plagan sug'urta mukofotlari oldingi yilga nisbatan pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

Yuqoridagi holatning yuzaga kelishiga olib kelgan va umuman O'zbekistonda hayot sug'urtasining talab darajasida rivojlanmay qolayotganligiga sabab bo'layotgan omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

1. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, 2023-yil 1-apreldan boshlab jismoniy shaxslarning hayotini uzoq muddatga sug'urtalash uchun ular to'lagan sug'urta mukofotlari bo'yicha daromad solig'i imtiyozini bekor qilindi. Mazkur soliq imtiyozining olib tashlanishi hayot sug'urtasi bo'yicha yillar davomida erishilgan o'sish darajasining keskin tushib ketishiga sabab bo'ldi.

2. Hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasining yo'qligi fuqarolarda ushbu sug'urtaga bo'lgan ishonchni pasaytirmoqda.

3. Hayot sug'urtasi uchun maxsus qonunchilik hujjatlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi.

Hayot sug'urtasi bo'yicha mamlakatimizdagi mavjud potensialning 5 foizidan ham foydalanilmayapti. Aytaylik, aholining 30 foiz qismi hayot

sug'urtasi bilan sug'urtalansa - $36 \text{ mln} : 30 = 10\,800\,000$ kishi. Demak, bunday holatda sug'urtalanganlar soni $10\,800\,000$ kishini tashkil qiladi. Dunyoda hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotining o'rtacha qiymati 400 AQSh dollarini tashkil etishini hisobga olganda, $10\,800\,000 \times 400\$ = 4\,320\,000\,000 \$$. Demak, bir yilda hayot sug'urtasi tarmog'ida to'planadigan sug'urta mukofotlari hajmi $4\,320\,000\,000$ AQSh dollarini tashkil etadi. Demak shuncha miqdordagi mablag'larni uzoq muddatli investitsiya sifatida iqtisodiyot sohalariga sug'urta kompaniyalari tomonidan yo'naltiriladi.

Mamlakatda hayot sug'urtasini rivojlantirish har jihatdan foydali. Shuni e'tiborga olgan holda, ushbu sohani huquqiy jihatdan takomillashtirish va bekor bo'lgan soliq imtiyozlarini qaytarish orqali hayot sug'urtasi sohasini qayta yo'lga qo'yish mumkin. Odamlarda hayot sug'urtasiga bo'lgan ishonchni to'liq ta'minlash maqsadida to'lovlarni kafolatlash jamg'armasini tashkil etish zarur. Mamlakatimizda davom etayotgan inflyatsiya jarayonlarini e'tiborga olgan holda, inflyatsiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish orqali hayot sug'urtasi kompaniyalarining investitsiya faoliyatini rag'batlantirish zarur. O'z o'rnida, sug'urta kompaniyalari tomonidan inflyatsiyaga bog'langan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va aholi qatlamlariga taklif etish ham yaxshi samara beradi. Aholi o'rtasida hayot sug'urtasi mahsulotlari va ularning afzalliklari to'g'risida targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish, «Cashback» tizimiga ega bo'lgan mobil ilovasini ishlab chiqish va qo'llash, bonuslar berish orqali hayot sug'urtasini rivojlantirishga erishish mumkin.

Sug'urta tashkilotlari notijorat milliy rivojlanish strategiyasi loyihalarini amalga oshirishda davlat korxonalarini qo'llab-quvvatlashi va tirikchilik sektorining rivojlanish ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan arzon, katta hajmdagi mablag'larni taqdim etadi⁹⁷. Shunday qilib, sug'urta kompaniyalarining investitsion yo'nalishdagi harakatlari bir vaqtning o'zida milliy rivojlanish

⁹⁷Xiaohe, Xie Xiaofei. Financial risk management of digital development of insurance companies // Science and Technology. –2020. – Vol. 1. – P. 66-70.

strategiyasida ishtirok etadi va ijtimoiy iqtisodiyotning tez tiklanishiga yordam beradi.

Shuning uchun sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyat mikro darajada kanallarini kengaytirish orqali o'zlarining xususiy daromadini oshirishi va investitsiya masshtabini kuchaytirishi mumkin, bu o'z o'rnida butun sug'urta tarmog'ining rivojlanishini va to'xtovsiz ishlashini kafolatlashi mumkin⁹⁸. Makrodarajada sug'urta tarmog'ining uzoq muddat davomida barqaror rivojlanishi ijtimoiy iqtisodiyotning bir tekisda o'sishini ta'minlashi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni investitsiya qilishda ikki tomonlama rol o'ynaydi. Agar sug'urta sohasining investitsiya yo'nalishi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning holatiga mos keladigan bo'lsa, u katalitik rol o'ynaydi. O'rta va uzoq muddatli sug'urta kompaniyalari mablag'lari kutilmagan hodisalardan ko'rilgan zararlar o'rnini qoplash uchun ishlatiladi, ijtimoiy kapitalni qayta taqsimlashda ishtirok etadi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida va milliy barqarorlikni ta'minlashda ijobiy rol o'ynaydi. Biroq, agar sug'urta sohasining investitsiya faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishiga mos kelmasa, u ushbu sohaning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sug'urta sektoriga ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan investitsiyalarning jalb qilinishi ma'lum investitsiya xatarlarining paydo bo'lishiga va moliyaviy bozorlarida haddan tashqari o'zgaruvchanlikka olib kelishi mumkin. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Sug'urta fondlari investitsiyalari investitsiyalar hajmini aks ettirish uchun ishlatiladi, chunki investitsiyalar hajmi asosan muayyan davr ichida iqtisodiyotga qilingan investitsiyalarning umumiy hajmini, ya'ni investitsiyalar ko'lamini aks ettiradi. Qo'yilgan gipotezalarni tasdiqlash yoki rad etish uchun o'zgaruvchilar tanlandi va ushbu jarayonlar 2.13-jadvalda tasvirlangan.

⁹⁸Ren Zeping. 2021 China Insurance Industry Development Report: From rapid expansion to high-quality development. 17.03.2021. URL: <http://finance.sina.com.cn>

2.13-jadval

«Tadqiqot o'zgaruvchilarining tavsifi»⁹⁹

Ko'rsatkichlar	Kod	O'lchov birligi
Investitsion balans	ins	mlrd. so'm
Sug'urta qoplamalari qoldig'i	ica	mlrd. so'm
Yalpi ichki mahsulot	gdp	mlrd. so'm
Kishi boshiga to'g'ri kelgan daromad	dpi	mlrd. so'm

Tadqiqot o'zgaruvchilari uchun ma'lumotlar misol tariqasida, 2004-2023-yillar uchun shartli ravishda tanlab olindi. O'zgaruvchilarning tavsiflovchi tahlili 2.14-jadvalda keltirilgan.

2.14-jadval

«Tadqiqot o'zgaruvchilarining tavsifiy tahlili»¹⁰⁰

Variant	Kuzatuvchilar soni	O'rta		Min.	Maks.		
gdp	20	486000.00	302000.00	110863.00	1000000.00	0.34	1.80
dpi	20	15368.60	9295.78	4070.00	32189.00	0.41	1.84
ins	20	72814.43	66167.22	3702.79	216801.00	0.78	2.36
ica	20	5441.18	4575.80	598.25	13907.10	0.61	1.89
ln(gdp)	20	12.87	0.74	11.62	13.83	-0.33	1.77
ln(dpi)	20	9.44	0.68	8.31	10.38	-0.21	1.70
ln(ins)	20	10.64	1.23	8.22	12.9	-0.44	2.07
ln(ica)	20	8.16	1.05	6.39	9.54	-0.25	1.73

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi ma'lumotlarda keltirilgan tavsiflovchi tahlil natijalarini tahlil qilishdan xulosa qilish mumkinki, ma'lumotlar o'zgaruvchilarida haddan tashqari qiymatlar mavjud emas va logaritmik qiymatlarni olgandan keyin olingan ma'lumotlar qiymatlari ko'proq statistik tahlil uchun mos keladi.

Umuman olganda, iqtisodiy tadqiqotlar ob'ektlarining vaqt qatorlari asosan statsionar emas. Agar statsionar vaqt qatorlarini o'rganishning empirik usuli

⁹⁹Muallif tomonidan tayyorlangan.

¹⁰⁰Muallif tomonidan tayyorlangan

iqtisodiyotda statsionar bo'lmagan o'zgaruvchilarni o'rganish uchun ishlatilsa, unda statistik natijalar odatda ideal korrelyatsiyani ko'rsatadi, ammo bu statistik natija haqiqiy iqtisodiy vaziyatni aks ettirmayapti.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyati hisoblangan sug'urta operatsiyalari va ushbu faoliyatning sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyati rivojidagi tutgan o'rni to'g'risidagi nazariy fikrlar shakllantirilib, O'zbekiston sug'urta bozorida amaldagi mazkur ikki yo'nalishning holati o'rganilib, xulosalar shakllantirilgan.

Tahlil qilingan 2019-2023-yillar davomida sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari yuqori darajada oshib borgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda bazis yilga nisbatan 3,48 marta ortganligi aniqlandi va bunday o'sish besh yil oralig'i uchun sezilarli darajadagi yuqori o'sish degan xulosa qilindi. Sug'urta mukofotlarining yuqori darajada o'sishi foyda hajmining ham yuqori o'sishiga olib kelgan va bu ham investitsion imkoniyatning o'sishini ta'minlagan.

Investitsion imkoniyatning asosiy manbalaridan biri bo'lgan sug'urta kompaniyalarining ustav kapitali hajmi ham tahlil qilingan davr ichida uch martadan ortiq o'sishga erishgan, shu bilan birga ushbu davrda sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasi ortib, ushbu holat sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatini biroz pasaytirgani holda, tahlil qilingan davrda investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi 2,3 baravar ortgan. Ushbu ko'rsatkich tahlil qilingan besh yil ichida sug'urta mukofotlari hamda ustav kapitallarining o'sishiga nisbatan pastroq o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lganligi sug'urta xizmatlarining zararlilik darajasi ortganligi bilan asoslandi.

Sug'urta tashkilotlari institutsional investor sifatida dunyoning rivojlangan mamlakatlarida pensiya jamg'armalari va tijorat banklari bilan birga yetakchi o'ringa ega ekanligi aniqlandi hamda sug'urtaning moliyaviy bozorlarda faol ishtiroki va katta hajmdagi mablag'larni iqtisodiyot sohalariga investitsiya sifatida yo'naltirishi sug'urta kompaniyalarini muhim institutsional investor sifatida tan

olish imkonini beradi degan xulosaga kelindi.

Mamlakat ichki investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining roliga baho berildi. Sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyati uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga aniqlik kiritildi. Bunday shart-sharoitlar sifatida: tegishli bozor infratuzilmasi va shu bilan birga barcha turdagi investitsiya instrumentlarining mavjudligi; barqaror moliya tizimi va moliya qonunchiligi; xalqaro moliyaviy munosabatlarning yo'lga qo'yilganligi kabi shart-sharoitlar keltirib berildi.

Sug'urtalovchining investitsion faoliyatida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, bu o'ziga xoslik sug'urtalovchi investitsiya faoliyatining sug'urta faoliyatiga bo'ysunishidir degan xulosa shakllantirildi. Ushbu holat sug'urta faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplaridan biri ekanligini keltirib chiqaradi.

Ushbu bobda mamlakat iqtisodiyoti uchun investitsiyalarni jalb qilishda ichki imkoniyatlarning qay darajada katta ekanligi va ushbu imkoniyatdan foydalanilmayotganligi ko'rsatib berilgan. Bu imkoniyatdan samarali foydalanishda sug'urtadan foydalanish yuqori samara berishi va sug'urta vositasida qanday hajmdagi mablag'larni to'plash mumkinligi hisob-kitoblar asosida ko'rsatib berilgan.

Mazkur bobda sug'urta tashkiloti o'z investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun investitsiya siyosatini amalga oshirishi kerakligi, ushbu siyosat sug'urta tashkilotining yaqin va uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida investitsiyalarga o'z mablag'i, qarz va boshqa mablag'larning foydaliligini ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmui ekanligi asoslanib, investitsiya siyosatini amalga oshirishda amal qilish zarur bo'lgan tamoyillar ko'rsatib berilgan. Ushbu prinsiplar bilan birga, investitsiya faoliyatini amalga oshirishda sug'urta kompaniyasi amal qilishi zarur bo'lgan shartlar ko'rsatib berilgan.

III-BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING XORIJ TAJRIBASI

§3.1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlarida investitsiya siyosatini tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi....¹⁰¹ deb ta'kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan investitsion muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2018-yil 1-avgustda e'lon qilindi¹⁰².

Shuningdek investitsiya siyosati davlat iqtisodiy siyosatining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Uning yordamida davlat to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish darajasiga, ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirishgaijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish va boshqa ko'plab ijtimoiy muammolarni hal etishga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda har bir mamlakat investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun o'zining investitsiya siyosatini yuritib, investitsion faoliyatni rivojlantiradi hamda iqtisodiyotini ko'tarish uchun ishlab chiqarish samaradorligin oshirish maqsadida yangi texnologiyalarni joriy etadi va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan maqsadli kompleks tadbirlarni amalga oshiradi.

¹⁰¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018-yil 29-dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.

¹⁰²O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. <http://www.lex.uz> (normativhuquqiy hujjatlar tizimi).

Davlat investitsion faollikka turli vositalar yordamida ta'sir ko'rsatadi: moliya-kredit va soliq siyosati; ishlab chiqarish sohasi uchun investitsiya kirituvchi investorlarga soliq imtiyozlari taqdim qilish; asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash siyosati; chet el investorlari uchun qulay investitsion muhit yaratish; ilmiy-texnika yangiliklarini joriy etishga qaratilgan imtiyozlar yaratish va hokazo.

Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsion siyosat nafaqat hozirgi zamonning, balki yaqin o'tgan zamonning ham eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Masalan, Yaponiya dunyoda eng rivojlangan davlat darajasiga qisqa muddatda erishishiga ushbu davlatning ikkinchi jahon urushidan keyin innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsion siyosatni yuritganligi sabab bo'lgan.

Albatta, sug'urta bozorlarida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati ham har bir davlatning qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlari asosida belgilab qo'ygan tartib qoidalar asosida, xalqaro darajada amalga oshirgan investitsiya faoliyati esa milliy tartib-qoidalar bilan birga investitsiya kiritilayotgan mamlakatning hamda xalqaro darajadagi tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyati bo'yicha amal qilayotgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartib-qoidalarga amal qilgan holda har bir sug'urta kompaniyasi o'zining investitsion siyosatini ishlab chiqadiki, ushbu siyosatning mukammal ishlab chiqilganligi sug'urta kompaniyasi investitsiya faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi.

To'g'ri investitsion siyosat tufayli sug'urta kompaniyalari o'z mablag'larini ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Biroq, sug'urta kompaniyalarining mablag'larni investitsiya qilish imkoniyati nafaqat o'z mablag'lari, balki sug'urta zahiralar hajmiga ham bog'liq. Shu tufayli, investitsiya va sug'urta faoliyati bir-biriga bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Biroq, investitsion faoliyat rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator ob'ektiv sabablar bor. Shu sababli investitsion faoliyat samaradorligini ta'minlash uchun chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish zarurati sug'urta kompaniyalari investitsiya siyosatining asosini tashkil etadi. Sug'urta

kompaniyalari o'z xususiy ehtiyojlarini ta'minlash nuqtai-nazaridagina emas, balki moliya bozori va xususan, qimmatli qog'ozlar bozori imkoniyatlaridan hamda mavjud qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda investitsiya siyosatini ishlab chiqadi. Har bir mamlakatning moliya bozori rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib turlicha imkoniyatlarga ega bo'lsa, investitsiya faoliyati bilan bog'liq davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunchiliklar albatta qandaydir cheklovlarni ko'zda tutadi, bu esa sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi.

Bir tomondan davlat tomonidan chegaralarni qo'yishdan maqsad, sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lib, sug'urtalanuvchilar oldida kafolat sifatida sug'urta kompaniyalarining likvidligini, ishonchliligini, joylashtirilgan mablag'lar daromadliligini ta'minlashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urta tashkilotlarining investitsion sohadagi potensial imkoniyatlari chegaralanib qoladi¹⁰³.

Sug'urta kompaniyalari investitsion siyosatining yanada samarali bo'lishiga quyidagi cheklovlar salbiy ta'sir ko'rsatadi:

1. Moliya bozorining (fond bozorining) amal qilishi bilan bog'liq fundamental to'siqlar. Birinchi o'rinda, bunday to'siqlar sifatida moliyaviy instrumentlar turli-tumanligining yetarli emasligi, ishtirokchilarning turli darajadagi o'zaro hamkorligining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, soliqlar yoki boshqa vositalar orqali yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaganligi, moliya bozori professional ishtirokchilari faoliyatining erkin emasligi.

2. Moliya bozorini raqamlashtirilganlik darajasining pastligi va bu yo'nalishdagi infratuzilmaning takomillashmaganligi. Raqamli texnologiyalar orqali yaratiladigan, sug'urta bozori ishtirokchilari, tadqiqotchilar va boshqa qiziquvchilar uchun foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan katta ma'lumotlar bazasi bugungi sug'urta bozori uchun yechimini kutayotgan eng muhim masala hisoblanadi.

¹⁰³ Журавлева, Т.А., Пономарев О.В. Правовые аспекты инвестиционной деятельности страховых организаций //Пут науки.— 2015— № 12— С.55-57.

Mazkur muammoni hal etishda O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari Assotsiatsiyasi asosiy tashkilotchi vazifasini bajarishi va bunda quyidagi masalalar hal etilishi zarur:

a) sug'urta bozori professional ishtirokchilarida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni yagona raqamlashgan bazaga to'plash;

b) tashkil etilayotgan mazkur baza hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ma'lumotlar bazalari bilan ma'lumotlar almashinuvi bo'yicha o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

v) sug'urta sohasidagi xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan tashkil etilayotgan mazkur baza o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

3. Investitsion faoliyatning rivoji sug'urta faolyatining darajasiga bog'liq ekanligidan kelib chiqqan holda, davlat organlari bilan hamkorlikda, sug'urtalanuvchilar va potensial sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta hodisalarining oldini olishga qaratilgan ogohlantirish tadbirlarini tizimli yo'lga qo'yish va shu bilan birga, sug'urta tovlamachiligining oldini olishga qaratilgan ma'naviy tadbirlarni tashkil etish.

Rossiya Federatsiyasi mintaqaviy muammolar institutining mintaqaviy kriminologiyalar reytingi ma'lumotlariga ko'ra, mintaqalardagi kriminologik va ijtimoiy-iqtisodiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sug'urta tovlamachiligi hisoblanadi. Sug'urta tovlamachiligi sug'urtalanuvchilarning o'zlari tomonidan yoki ko'p hollarda sug'urtalovchilar bilan kelishgan holda amalga oshirilib, bunday harakatlar natijasida mintaqaviy sug'urta tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari sezilarli darajada pasayadi va bu mazkur mintaqadagi aholining moliyaviy va ijtimoiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur institutning ta'kidlashicha, sug'urta tovlamachiligi Rossiya iqtisodiyotiga sezilarli yo'qotishlarni olib kelmoqda. Taxminlarga ko'ra, shu yo'nalishdagi jinoyatlarning 10 foizigina aniqlanmoqda. Butunrossiya sug'urtalovchilar ittifoqining vitse-prezidenti S.I.Efimovning ma'lumotiga ko'ra, 2021 yilda bu kabi hodisalar 12 mingtani tashkil etishi mumkin va bularning ichida katta miqdorni TVEFJMS (OSAGO) bo'yicha sug'urta polislarini o'tib ketgan

sana bilan rasmiylashtirish, haqiqiy bo'lmagan polislar sotish, qimmatbaho avtomashinalarni yolg'ondan o'g'irlash kabi holatlar tashkil etadi¹⁰⁴.

O'zbekistonda sug'urta tovlamachiligi bo'yicha tahlillar va statistikasi olib borayotgan idoraning o'zi mavjud bo'lmasada, bu kabi tovlamachiliklar kam emasligini taxmin qilish mumkin. Bu jinoyatlarni kamaytirishning yo'llaridan biri aniqlangan tovlamachiliklar bo'yicha ularni sodir etgan sug'urtalanuvchilar ro'yxatini shakllantirish va yagona ma'lumotlar bazasiga kiritish, ro'yxatga kiritilgan sug'urtalanuvchilar bilan bundan buyon shartnoma tuzmaslikdir. Bunday tovlamachiliklarning avj olishi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, haqiqatda sug'urta hodisalarining yuz berishi natijasida jabr ko'rgan sug'urtalanuvchilarga sug'urta qoplamalarini o'z vaqtida to'lash imkoniyatini kamaytiradi va natijada sug'urtalanuvchilarda sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, sug'urta mahsulotlarining zararlilik darajasi ortishi natijasida sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatlari pasayishiga olib keladi.

S&P Global Market Intelligence ma'lumotlariga ko'ra, mulk/baxtsiz hodisalardan (R/S) va hayot/annuitet sug'urtalari bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalari investitsiya bozorida eng asosiy ishtirokchilar hisoblanadi. 2019 yil natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu kompaniyalar tomonidan investitsiyaga yo'naltirilgan aktivlar hajmi 9 trln. so'mdan ortiqni tashkil etgan. R/S sug'urtalovchilarning pul mablag'lari va investitsion aktivlari 2019 yilda 1,9 trln. AQSh dollarini tashkil etgan. 2019 yilda annuitet bilan bir umrga sug'urtalovchi sug'urta kompaniyalarining pul mablag'lari va investitsiya aktivlari 4,3 trln. AQSh dollarini tashkil etib, alohida hisob raqamlaridagi pul mablag'lari va boshqa investitsiyalari 2,8 trln. so'mni tashkil etgan. R/S sug'urtalovchilarning va hayot/annuitet sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari bir-biridan to'lovga bo'lgan ehtiyoji bilan farq qiladi. R/S sug'urtalovchilar terroristik harakatlar, kuchli to'fon, yer

¹⁰⁴Сплетухов Ю.А. Информационные технологии на российском страховом рынке: возможности развития// Финансовый журнал. 2020. Т. 12. №1. С. 105-116.

qimirlashi yoki texnogen falokatlar natijasida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplashga tayyor turish maqsadida o'z investitsiya mablag'larini asosan yuqori sifatli likvid qimmatli qog'ozlarga yo'naltiradi. 2019-yilda xususiy sug'urta kompaniyalari o'zlarining 27 foiz investitsiya mablag'larini yuqori likvidli aksiyalarga yo'naltirgan, 57 foiz investitsiya mablag'larini obligatsiyalarga yo'naltirgan. Hayot/annuitetlar sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni oldindan prognoz qilish imkoniyati nisbatan yuqoriroq bo'ladi, chunki hayot sug'urtasi va annuitetlar sug'urtasining polislari uzoq muddatli bo'ladi¹⁰⁵.

Mulkiy sug'urta va baxtsiz hodisalardan sug'urtalovchilar asosan risk darajasi past bo'lgan, likvid qimmatli qog'ozlarga - asosan obligatsiyalarga sarmoya kiritadilar. Ular yildan yilga sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan andarrayting natijalari barqarorligini ta'minlaydi. Obligatsiyalarning aksariyati hukumat yoki yuqori darajadagi korporatsiyalar tomonidan chiqariladi. S&P Global Market Intelligence ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yil oxirida defolt yoki unga yaqin bo'lgan obligatsiyalar ulushi sug'urtalovchilarga tegishli bo'lgan barcha qisqa muddatli va uzoq muddatli obligatsiyalarning 1 foizidan (0,15 foiz) kamini tashkil etdi.

G'arb amaliyotida sug'urta kompaniyalari moliyaviy jihatdan iqtisodiyotning yetakchi sohasi va fond bozorida jiddiy institutsional o'yinchilari hisoblanadi. Bu yerda har qanday holatda ham davlat nazorat organlari sug'urta kompaniyalarini spekulativ moliyaviy operatsilarni olib boruvchi investorlar qatoriga tushib qolishga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, investitsiyalarning uzoq muddatli bo'lganligi ham bunday faoliyatga yo'l qo'ymaydi. Sug'urta nazorati organlari bunda sug'urta kompaniyalarining aktivlarini investitsiya qilish jarayonlarida aktiv turlari bo'yicha cheklash va ehtiyotkorona investitsiya siyosatini olib borishlariga undaydilar. Masalan, Germaniyada xavf darajasi yuqori bo'lgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish taqiqlanadi, AQShda esa bunday qimmatli qog'ozlar guruhiga aktivlarning 1 foizdan ko'p miqdorini joylashtirishga umuman yo'l qo'yilmaydi. Ushbu fikrni ba'zi tadqiqotchilarning fikrlari ham

¹⁰⁵Insurance Information Institute | www.iii.org 2021 Insurance Fact Book

tasdiqlaydi. Sangyong Hana, Gene C. Lai, Chia-Ling Hoc larga tegishli ilmiy ishlarda AQSh da sug'urta kompaniyalarining investitsiya siyosatida konservativ yondashuv asosiy o'rinni egallaydi va investitsiyaga yo'naltirilayotgan sug'urta kompaniyasining mablag'lari shaffoflik tamoyillari asosida ishonchli va risk darajasi past sohalarga yo'naltirilishi kerak. Ushbu prinsiplarning ta'minlanganligi vakolatli davlat organlari tomonidan qattiq nazoratga olinadi¹⁰⁶.

Buyuk Britaniyada turli xil nodavlat qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilishga 1-5% miqdorida chegaralar o'rnatilgan. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda sug'urta kompaniyalarining investitsiyalarini davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirish uchun to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar mavjud. Bu nafaqat sug'urtalanuvchilarning mablag'larini himoya qilishni, balki davlat qarzini barqaror joylashtirishni ta'minlaydi.

Ko'plab g'arb mamlakatlari va hattoki ba'zi qo'shni mamlakatlar fond bozorlarining rivojlanganligini, ular tomonidan taqdim etilayotgan investitsiya instrumentlarining turli tumanligida ham ko'rish mumkin.

G'arb mamlakatlarida davlatning sug'urta sohasiga nisbatan yuritadigan investitsiya siyosati sug'urta kompaniyalarining xavfli investitsiya siyosati bilan shug'ullanishlarini tiyib turadi, buning sababi bunday siyosat ular taklif etayotgan sug'urta mahsulotlarini va o'z o'rnida sug'urtalanuvchilar manfaatlarini xavf ostiga qo'yadi. Sug'urta kompaniyalari sug'urta shartnomalari orqali mijozlarning turli risklari bilan bog'liq zaararlarni qoplash kafolatini olganliklari va shuning evaziga vaqtinchalik jalb qilingan mablag'larga nisbatan, qimmatli qog'ozlar bozorida xavfli investitsiya siyosatini olib borishlariga haqlari yo'q.

Moliya sohasining asosiy pul yig'uvchilari sifatida sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlar bozoriga qarama-qarshi tomondan kirishga majbur bo'ladilar, bu degani ular o'z qimmatli qog'ozlarining emitentlari bo'lishlari hisoblanadi.

Masalan Qozog'iston Respublikasi misolida ko'rishimiz mumkin. Buni quyida keltirilgan jadaval ma'lumotlarida ko'rishimiz mumkin.

¹⁰⁶Sangyong Hana, Gene C. Lai, Chia-Ling Hoc. Corporate transparency and reserve management: Evidence from US property-liability insurance companies. Journal of Banking and Finance 96 (2018) 379-392 p.

3.1-jadval

«Qozog‘iston Respublikasi sug‘urta sektorining sug‘urta aktivlari tarkibi¹⁰⁷»

Ko‘rsatkichlar	01.01.2022 y.		01.01.2023 y.		Yil boshidan yil oxiriga o‘zgarishi,%
	Mln. tenge	Jamiga nisbatan % da	Mln.tenge	Jamiga nisbatan % da	
Pul mablag‘lari	42 068	4,5	40 739	3,9	-3,2
Depozitlar	208348	22,5	190 438	18,2	-8,6
Qimmatli qog‘ozlar	424 820	45,9	543 778	51,9	28,0
Repo operatsiyalari	52 891	5,7	71 014	6,8	34,3
Vositachilardan olinishi kerak bo‘lgan sug‘urta mukofotlari	31 436	3,4	29 411	2,8	-6,4
Asosiy vositalar	18 921	2,0	17 560	1,7	-5,7
Qayta sug‘urta aktivlari	110 237	11,9	111 843	10,6	1,5
Debitor qarzdorlik	12 243	1,4	10 401	1,0	-15,0
Boshqa aktivlar	25 379	2,7	33 327	3,1	31,3
Jami aktivlar	926 343	100	1 048 511	100	13,2

Sug‘urta kompaniyalari umumiy talablar doirasida faoliyat yuritadilar va ularning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emissiya faoliyati boshqa soha vakillari faoliyatidan deyarli farq qilmaydi. Jami emissiya faoliyatining ko‘lami va ayniqsa ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorlarida sug‘urta kompaniyalarining ishtiroki banklar yoki yirik moliya va sanoat guruhlar faoliyatidan ancha pastdir. Biroq ayrim ochiq aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi yirik sug‘urta kompaniyalari roli mazkur bozorlarda o‘ta yuqori baholanadi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish hech qanday ahamiyatga ega emas, chunki mamlakatda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori muhim o‘ringa ega emas. Lekin masalan, AQSh yoki Germaniyada sug‘urta kompaniyasining aksiyalarini ochiq qimmatli qog‘ozlar bozorida sotilishi oddiy holat hisoblanadi.

Bundan tashqari, sug‘urta nazorati organlari sug‘urta kompaniyalarining aksiyadorlarga hisobot berishlari, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish uchun

¹⁰⁷Qozog‘iston markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. www.nationalbank.kz

qo'shimcha ruxsat berish tartib-qoidalarini joriy etishlari mumkin. Masalan, Germaniyada sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi Federal boshqarma nafaqat sug'urtalanuvchilarning, balki sug'urta kompaniyasi aksiyadorlarining ham manfaatlarni himoya qiladi, agarda ular o'rtasida nizo yuzaga kelgan holatda aksiyadorlar sug'urta nazorati organiga murojaat qilishlari mumkin va bunda nazorat organi aksiyadorlar tarafida turib, mavjud nizolarni bartaraf etish yuzasidan ularga maslahatlar va boshqa xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin.

Biroq, bugungi kunda sug'urta kompaniyalari fond bozori orqali, nafaqat kapitalni oshirish, balki qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali ular bozorda risklarni qayta taqsimlash faoliyatini olib bormoqdalar. Qator g'arb qayta sug'urta kompaniyalari tomonidan aralash moliyaviy vosita sifatidagi "falokatli" deb nomlanuvchi obligatsiyalarni chiqarish amaliyoti keng joriy etilmoqda. Obligatsiya xaridorlariga ular yuqori rentabellikni va'da qilishadi (odatiy obligatsiyalarga nisbatan), ammo ma'lum falokat yuz berganda (masalan, zilzila yoki boshqa turdagi keng ko'lamli tabiiy ofat) obligatsiya egalari foiz yoki investitsiya mablag'ining bir qismini, ba'zan esa hammasini yo'qotishlari mumkin.

Sug'urta kompaniyasi aksiyadorga lotareyaga o'xshagan o'yinni taklif qiladi, bunda investor zilzilalar kam uchraydigan holat ekanligini hisobga oladigan bo'lsa, yuqori foizdagi daromad olishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, bunday "falokatli" obligatsiyalar bozordagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan xoli ravishda amal qiladi va daromad olish bu ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lmaydi. Sug'urta kompaniyasi esa aksincha, agar falokat yuz bersa u ta'minlangan mablag'larga ega bo'ladi.

Ammo sug'urta kompaniyalarining bunday faoliyatlarini emissiya deb baholash mumkin emas, sababi bu obligatsiyalar savdosi emas, balki uning mohiyatiga yaqin bo'lgan qayta sug'urta orqali xavfni taqsimlashga o'xshaydi.

Chet el adabiyotlarida bunday iqtisodiy hodisa "sekyuritizatsiya" deb ataladi. Bizning fikrimizcha bunday operatsiyalar kelajakda katta istiqbolga ega, chunki bu sug'urta bozorining salohiyatini oshiradi va yuqori xavflar bilan bog'liq zararlarni ko'plab berilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, qayta taqsimlash

bosqichlari soni va uni tashkil etish xarajatlari (qayta sug'urtalash kanallari bilan taqqoslaganda) kamayadi va natijada sug'urta kompaniyalari mijozlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari pasayadi.

Bunday innovatsion operatsiyalarni milliy sug'urta bozorimizda qo'llash juda yaxshi samara berishi tabiiy, sababi maxsus qayta sug'urta kompaniyalari bizning bozorda mavjud emas. Ammo fond bozorining kapitallashuv darajasi past bo'lganligi sababli bunday operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati hozircha mavjud emas.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarning qonunchilik hujjatlariga ko'ra sug'urta tashkilotlari banklar va kredit tashkilotlarining kredit faoliyati bilan bog'liq risklarga nisbatan kafil vazifasini bajarishi mumkin, ya'ni mijozlarning majburiyatlarini bajarishlarini kafolatlaydi. Bunda mizoj o'z majburiyatini bajara olmasa, sug'urta kompaniyasi mizojning uchinchi shaxslar oldidagi qarz majburiyatlarini to'lab beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, fond bozori makroiqtisodiy jarayonlarning o'zgarishi va bozor kon'yunkturasining tebranib turishi bilan bog'liq omillar o'zgarishiga juda moyil hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlovchi moliyaviy mexanizm sifatida sug'urta makroiqtisodiy omillarning barqarorligini va ular nisbatining muvozanatini optimallashtirishga yaqindan yordam beradi.

3.2. Sug'urta zahiralarini investitsiyaga yo'naltirishning xorij tajribasi

Ushbu paragrafda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalarining sug'urta zahiralaridan foydalanish samaradorligi bilan taqqoslash maqsadida, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar sug'urta zahiralaridan investitsiya sifatida foydalanilishi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Shu maqsadda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar AQSh, Angliya va Yaponiya davlatlarining sug'urta bozorlari ko'rsatkichlari jadval ko'rinishida keltirilib, tahlillar amalga oshiriladi. Tahlil qilish uchun aynan ushbu davlatlarni tanlab olinishining sabablaridan biri sifatida, ushbu davlatlarning

dunyo sugʻurta bozoridagi ulushi 60 foizdan ortiqni tashkil etishini keltirish mumkin.

AQSh sugʻurta bozori dunyodagi eng katta va takomillashgan bozor boʻlib, uzoq yillar davomida barqaror oʻsish darajasiga ega boʻlib kelmoqda. Soʻnggi 30 yil davomida AQSh hayot sugʻurta bozorining oʻrtacha oʻsishi 8 % ni tashkil etib kelmoqda. Hayot sugʻurtasi tarmogʻidagi aktivlarni boshqarish masshtabi doimiy ravishda oʻsib kelgan va AQSh iqtisodining eng muhim investitsion manbasi sifatida amal qilib kelmoqda. Amerika kompaniyalari hayot sugʻurtasi boʻyicha toʻplangan sugʻurta mablagʻlarini investitsiyaga yoʻnaltirishda keng turdagi moliyaviy instrumentlardan foydalanadi, bunday instrumentlar sifatida asosiylari boʻlib, davlat va korporativ obligatsiyalar, aksiyalar, koʻchmas mulk, ipoteka kreditlari va boshqalar hisoblanadi. Shuningdek 2019-yil natijalariga koʻra, obligatsiyalarga yoʻnaltirilgan investitsiya mablagʻlari jami investitsiyalarning 48,07 foizni tashkil etgan boʻlsa, aksiyalarga 30,37 foiz miqdorda, ipoteka ssudalariga 8,13 foiz miqdorda yoʻnaltirilgan. Quyida keltirilgan 3.2-jadvalda AQSh da hayot sugʻurtasi kompaniyalarining sugʻurta fondlarini 2019-2023-yillar davomida investitsiyaga yoʻnaltirilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan¹⁰⁸.

3.2-jadval

“AQShda hayot sugʻurtasi zahiralarini investitsiya qilish sohalari (mln.dollar, %)”¹⁰⁹

Investitsiya obyektlari	Yillar									
	2019		2020		2021		2022		2023	
Obligatsiya	3201,99	49,43	3347,62	49,4	3479,59	48,4	3492,76	49,7	3637,84	48,07
Aksiya	2000,9	30,9	2055,6	30,6	2261,7	31,4	1999,6	28,6	2297,8	30,3
Ipoteka kreditlari	437,2	6,7	472,1	7,0	513,6	7,2	564,8	8,1	615,4	8,13
Koʻchmas mulk	44,5	0,7	46,9	0,7	42,7	0,6	38,6	0,6	41,6	0,6
Ipoteka sugʻurtasi	134,7	2,1	134,6	2,0	136,5	1,9	136,7	2,0	133,9	1,8
Qisqa muddatli investitsiyalar	79,6	1,2	75,5	1,1	47,7	0,7	39,4	0,6	40,8	0,5
Omonatlar	59,7	0,9	63,3	0,9	100,5	1,4	108,8	1,6	117,6	1,6
Moliyaviy derivativlar	55,7	0,9	64,5	1,0	62,3	0,9	59,4	0,9	88,1	1,2
Boshqa investitsiyalar	234,5	3,5	255,7	3,6	289,1	4,0	294,9	4,2	327,1	4,3
Noinvestitsiyaviy aktivlar	229,1	3,4	256,2	3,7	250,1	3,5	258,0	3,7	267,1	3,5
Jami aktivlar	6477,8	100	6772,02	100	7183,79	100	6992,96	100	7567,24	100

¹⁰⁸https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹⁰⁹Amerika hayot sugʻurtasi kompaniyalari assotsiatsiyasi (ACLI) maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Ushbu 3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda AQShda hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari mablag'larining 98,2 foizi investitsiya sifatida turli sohalarga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu mablag'larning asosiy qismi obligatsiyalar va aksiyalarga, uchinchi o'rinda esa ipoteka kreditlariga yo'naltirilgan. Ta'kidlash mumkin, keltirilgan besh yil oralig'ida investitsiyalar tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz bermagan va bu mazkur mamlakatda sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati o'z sinalgan yo'liga ega va barqaror. Investitsion daromadlilik darajasi ham ushbu mamlakat sug'urta kompaniyalarida deyarli bir tekisda bo'lib, yillik o'zgarish 0,5 foizdan kamroqni tashkil etadi. AQSh sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

obligatsiyalar asosiy investitsiya instrumenti hisoblanadi va mahsuldor tarkibga hamda uzoq so'ndirish muddatiga ega. 2019-yilda obligatsiyalar uchun 3,64 trln. dollar yo'naltirilgan bo'lib, uning 2,59 trln. dollari, ya'ni 71,1 foizi korporativ obligatsiyalardan iborat;

aksiyalar ulushi ham katta hajmni tashkil etadi. 2019-yilda ushbu sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar 30,4 foizni tashkil etgan. Aksiyalar tarkibida yuz berib turadigan o'zgarishlar asosan ularning daromadlilik bilan bog'liq. Bundan tashqari, ba'zi shtatlarda o'zgaruvchan annuitetlar, korporativ annuitetlar va pensiya rejalari o'zgarishi uchun zahira sifatida alohida hisobdagi sug'urta mablag'larini 100 foizi aksiyalarga sarmoya kiritishga ruxsat beruvchi qonun mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, Amerika sug'urta kompaniyalari sarmoya kiritgan aksiyalarning 99 foizi oddiy aksiyalardir;

ipoteka kreditlariga (aniqrog'i, ipoteka bilan ta'minlangan moliyaviy instrumentlarga) sarflangan sug'urta mablag'larining ulushi 2015-yildan 2019-yilgacha o'sishda davom etgan. 2019-yilda AQSh ipoteka kreditlariga qo'yilgan sug'urta kapitali 615,383 milliard dollarni tashkil etdi, bu AQShning umumiy hayot sug'urta aktivlarining 8,1 foizni tashkil qiladi¹¹⁰, bu esa o'tgan

¹¹⁰ Головин А. Сравнительный анализ функционирования рынков страхования жизни США и ФРГ/А. Головин//Страховое дело.— 2007.— № 1(168).— 6.15-31.

yilning shu davriga nisbatan 8,9 foizga oshganligi demakdir. Hayotni sug'urtalash kompaniyalari o'zlarining bo'sh mablag'larini davlat tomonidan ta'minlangan ipotekaga va tijorat ko'chmas mulklarini sotib olish uchun ipoteka qarzlariga sarmoya kiritishni afzal ko'rishadi¹¹¹. Hayot sug'urtasi bo'yicha amerika sug'urta kompaniyalarining ipoteka investitsiyalari yaxshi daromad keltirmoqda. 2019-yilda tijorat ipoteka kreditlari bo'yicha qayta moliyalash, muddati o'tganlari va undirish uchun sudga berilgan kreditlar jami kreditlarning 0,4 foizinigina tashkil etgan;

ko'chmas mulkka yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi biroz kamaygan. 2019-yilda ushbu sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar oldingi yilga nisbatan 7,8 foizga ko'payib, 41,6 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsada, uning jami investitsiyalardagi hissasi faqat 0,6 foizni tashkil etgan. Ammo ta'kidlash kerak, ushbu sohaga yo'naltirilgan mablag'larning daromadliligi yuqori bo'lib, mazkur yilda 34 mlrd. dollarni, ya'ni 82 foizni tashkil etgan.

Hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlarini amalga oshiruvchi amerika sug'urta kompaniyalari tomonidan yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ham deyarli shunday. Ular odatda, ko'proq obligatsiyalarga investitsiya kiritadi va uning ulushi 60 % ni tashkil etmoqda. Aksiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar esa kam.

Ko'rinib turibdiki, AQSh sug'urta kompaniyalari o'z investitsiyalarini asosan obligatsiyalarga yo'naltiradi, qo'shimcha sifatida ko'chmas mulk, aksiya va ipoteka ssudalariga yo'naltiriladi. Bu shu bilan bog'liqki, amerikada obligatsiyalar bozori juda yaxshi rivojlangan va shu bilan birga ushbu bozor qat'iy nazoratda ushlab turiladi.

AQSh sug'urta kompaniyalari o'z investitsiyalarini asosan daromadi oldindan aniq belgilangan mahsulotlarga yo'naltiradi. Ipoteka krizisidan keyin yuqori kredit riski tufayli ipoteka ssudalariga investitsiyalar kamayib, obligatsiyalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar yanada oshdi. Amerika sug'urta

¹¹¹Головнин А. Сравнительный анализ функционирования рынков страхования жизни США и ФРГ/А. Головнин//Страховое дело.— 2007.— № 1(168).— б. 15-31.

kompaniyalarining oldindan belgilanadigan daromadli sohalarga investitsiyalari uzoq davrlar davomida o'rtacha 85 foiz darajasida bo'ldi va valyuta va aksioner kapitaliga investitsiyalar 15 foiz darajasida saqlanib keldi. AQShda sug'urta fondlarining turlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, ushbu nisbat sezilarli o'zgarmadi va sug'urta fondlaridan investitsiya maqsadida foydalanish ham bir tekisda.

AQShning sug'urta sohasini va xususan, investitsion faoliyatni tartibga solish tizimi ikki bosqichda federal darajada va shtatlar darajasida amalga oshiriladi va bunda asosiy o'rinni shtatlar darajasida tartibga solish tizimi egallaydi. Shtatlar hukumatlari sug'urta sohasiga nisbatan mustaqil hisoblanadi. Milliy sug'urta nazorati assotsiatsiyasi amal qilishiga qaramasdan, sug'urta to'g'risidagi maxsus qonunlar va qarorlar davlat tomonidan shakllantiriladi. Shuning uchun Amerika sug'urta nazorati assotsiatsiyasi sug'urta sohasidagi nazorat tartiblari o'zaro o'xshash bo'lishini ta'minlash bo'yicha ishlar olib boradi¹¹².

Shuni ta'kidlash kerak, AQSh shtatlarining hukumatlari sug'urta kompaniyalari ustidan nazorat olib boradi. Investitsiya sohasidagi qonunlar va qarorlar faqatgina sug'urta fondlarining hajmi va investitsiyaga yo'naltirish nisbatini belgilab bermasdan, aktivlarning joylashuv joyini, alohida aktivlarni investitsiya koeffitsientlari va to'lovga qobillikni ham belgilab beradi. Sug'urta kompaniyalari sug'urta kapitalini investitsiya sifatida qabul qiluvchining to'lovga qobilligiga e'tibor qaratishlari talab etiladi. Sug'urta qonunchiligi investitsiyalar hajmi va ulushini nazorat qilish bilan birga, sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobilligini ham nazorat qiladi.

Sug'urta nazoratchilari milliy assotsiatsiyasi sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobilligini Sug'urtani tartibga solishning informatsion tizimi (IRIS) orqali tartibga soladi. Ushbu nazorat sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlarini 12 ta ko'rsatkich bo'yicha tekshiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Agar ushbu ko'rsatkichlarning 3/1 qismi belgilangan standartlarga javob bermasa, nazorat

¹¹²Song Yuhua, Ye Qina. U.S. Financial Regulatory Reform and Its Challenges // World Economic Research. – 2010. – No 3. – P. 26-31.

organi mazkur kompaniyani chuqur o'rganishga qaror qiladi¹¹³. Sug'urtani tartibga solishning informatsion tizimi (IRIS) sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobilligini¹¹⁴ ikki bosqichda aniqlaydi. Birinchi bosqich – bu statistik testdan o'tkazish bosqichi bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasining moliyaviy¹¹⁵ ko'rsatkichlari statistik tahlildan o'tkaziladi, bunda sug'urta kompaniyalari uchta ustuvorlik bo'yicha tasniflanadi. Ikkinchi bosqich – bu tahlil va testdan o'tkazish bosqichi bo'lib¹¹⁶, bunda sug'urta kompaniyasining ma'lumotlari qo'shimcha ravishda tahlil qilinadi.

Tartibga solishning informatsion tizimiga qo'shimcha ravishda, Sug'urta nazoratchilari milliy assotsiatsiyasi moliyaviy tahlil va to'lovga qobillikni qayta ko'rib chiquvchi tizim (FAST) ishlab chiqqan bo'lib, ushbu tizim faqat yirik sug'urta kompaniyalariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu moliyaviy tahlil va to'lovga qobillikni qayta ko'rish tizimida 25 turdagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi va ushbu ko'rsatkichlarning ballari sug'urta kompaniyasining 3 yillik moliyaviy hisobotlari asosida amalga oshiriladi¹¹⁷. Sug'urta nazoratchilari milliy assotsiatsiyasi baholashning yakuniy natijalarini tahlil qiladi va shu asosda nazoratning qaysi shaklini qo'llash to'g'risida qaror qabul qiladi. Odatda bunday qaror davlat sug'urta nazorati organi tomonidan qabul qilinadi.

Angliya sug'urta kompaniyalari tasnifi biroz boshqacharoq. Ular uzoq muddatli sug'urta va umumiy sug'urtaga bo'linadi. Uzoq muddatli sug'urtaga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari asosan hayot sug'urtasi bilan shug'ullanadi, umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta kompaniyalari hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari bilan shug'ullanadi. Angliya sug'urta bozori uzoq yillik tajribaga egaligi sabab bo'lsa kerak, ularning investitsion faoliyati ham juda takomillashgan. 2015-yilga qadar investitsiya instrumentlari sifatida bank depozitlari, obligatsiyalar, moliyaviy aktivlar, ko'chmas mulk va chet el obligatsiyalaridan

¹¹³NiuBokun. The main tone of the reform of the US insurance regulatory system: integration rather than replacement // China Finance. – 2010. – No 1. – P.39-40.

¹¹⁴https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹¹⁵NiuBokun. The main tone of the reform of the US insurance regulatory system: integration rather than replacement // China Finance. – 2010. – No 1. – P.39-40.

¹¹⁶ https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹¹⁷Sun He. Research on U.S. Insurance Fund Stock Investment Supervision. BeiJing: BeiJing University, 2017, –P.7-9.

foydalanilgan. 2015-yildan buyon sug'urta fondlarining investitsiya aktivlarida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, hosilaviy fondlar va tarkiblashgan mahsulotlar hajmi ortib borgan¹¹⁸. Milliy statistika boshqarmasi (ONS) ma'lumotlariga ko'ra, Angliyada sug'urta kompaniyalari aktivlarini quyidagi 6 ta ketegoriyaga ajratish mumkin:

qisqa muddatli aktivlar, likvid aktivlar (naqd pullar va hisob raqamidagi qoldiqlar), depozit sertifikatlari, tijorat qimmatli qog'ozlari, pul bozori instrumentlari va boshqalar;

Angliyada davlat sektorining o'ziga xos talablari mavjud: Angliya Markaziy hukumati tomonidan chiqarilgan mahalliy va chet el valyutasidagi obligatsiyalar, mahalliy hokimiyat organlari talablari va davlat korxonalari talablari;

Angliyada korporativ qimmatli qog'ozlari: ichki korporativ obligatsiyalar, oddiy aksiyalar va imtiyozli aksiyalar;

xorijiy korporativ qimmatli qog'ozlari: chet el korporativ obligatsiyalari, oddiy aksiyalar va imtiyozli aksiyalar;

o'zaro fondlarga investitsiyalar: yopiq shakldagi fondlarga investitsiyalar, ochiq shakldagi fondlarga investitsiyalar, hosilaviy fondlar va boshqalar;

boshqa aktivlar: chet el davlat obligatsiyalari, munitsipal obligatsiyalar, ichki va tashqi zaymlar va ko'chmas mulkka investitsiyalar¹¹⁹.

Angliyada sug'urta mablag'larining investitsiyalari ko'proq diversifikatsiyalangan: sug'urta fondlarini aksiyalar va aksioner kapitaliga yo'naltirish yuqori darajada bo'lib¹²⁰, o'z o'rnida oldindan belgilangan daromadga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar hajmi nisbatan past bo'lib, ya'ni 48-45 foiz nisbatda. AQSh dan farqli o'laroq, bu mamlakatda ipoteka kreditlariga yo'naltirilgan investitsiyalar kamroq. Qimmatli qog'ozlardan tashkil topgan 45 foiz mahsulotlar ichida davlat obligatsiyalar 20 foizni korporativ obligatsiyalar

¹¹⁸Фейгин, В. Е. Сектор страхования в британской экономической экономике : исторический фундамент и современ и современное состояние / В. Е. Фейгин // Российский экономический интернет-журнал. – 2020. – № 1. – С.1-16.

¹¹⁹ Sun He. Research on U.S. Insurance Fund Stock Investment Supervision. BeiJing: BeiJing University, 2017, –P.7-9.

¹²⁰https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

23 foiz, qolgan 2 foizi ko'chmas mulkka yo'naltirilgan ipoteka ssudalaridan¹²¹ iborat.

Angliya hayotni sug'urtalovchi kompaniyalari aktivlarni taqsimlash modelida uchta xususiyatga ega:

birinchidan, payli investitsiya fondlari tez o'sib bordi, aktivlarni taqsimlashning dastlabki yakuni bilan taqqoslaganda o'zgaruvchan va hajmi oshib bordi, sug'urta sohasidagi investitsiya kanallarining eng katta toifasiga aylandi;

ikkinchidan, tashqi va ichki investitsiyalar o'rtasida katta farq mavjud. Ichki korporativ qimmatli qog'ozlarga (aksiya va obligatsiyalar bilan birga) investitsiya yo'naltirishning kuchayishi 2008-yildagi xalqaro iqtisodiy inqirozdan keyin yuz berdi, o'z o'rnida chet el korporativ qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan investitsiyalar kamaydi;

uchinchidan, davlat sektorining ichki obligatsiyalari, qisqa muddatli aktivlar va boshqa aktivlar sug'urta kapitalini yo'naltirishning barqaror kanallari bo'lib qoldi va bu ularning katta hajmda emasligi hamda yuqori ishonchga ega ekanligi sababli shunday bo'lib qoldi.

Uzoq muddatli sug'urta turlarini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, ular o'z investitsiya mablag'larining katta qismini yuqori riskka ega bo'lgan sohalarga yo'naltiradi. Fondlar va portfel investitsiyalar fondan foydalanishning muhim ob'ektlari hisoblanadi va bu 2020 yildan keyin 50 % dan ortiqni tashkil etdi.

Umumiy sug'urta sohasi kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larini davlat obligatsiyalariga va boshqa qisqa muddatli moliyaviy aktivlarga yo'naltiradi, ammo Angliya sug'urta kompaniyalari bilan AQSh sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi farq sifatida ssudaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmining kamligini keltirish mumkin. 3.3-jadvalda Angiyada uzoq muddatli sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar dinamikasi aks ettirilgan.

¹²¹ https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

«Angliya uzoq muddatli sugʻurta turlarini amalga oshiruvchi sugʻurta kompaniyalari investitsiya kapitallari joylashuvi¹²²»
(mln. dollar, %)

Investitsiya sohalari	Yillar									
	2019		2020		2021		2022		2023	
Naqd pullar va omonatlar	25589	3,91	4769	2,12	1009	1,25	14315	0,22	5759	0,32
Er va qurilishlar	38038	5,81	11352	5,04	2485	3,08	4310	0,07	2971	0,16
Kapital	77525	11,84	30127	13,38	2893	3,59	35249	0,54	7322	0,4
Veksel va obligatsiyalar	410794	62,75	310	0,14	60604	75,22	641491	9,84	194187	9,95
Ssudalar	12925	1,97	340	0,15	6132	7,61	188139	2,89	63237	3,49
Jamoaviy investitsiya sxemalari	89763	13,71	-	-	7445	9,24	92522	1,42	32907	1,81
Toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiya fondlari	-	-	49695	22,07	-	-	553	0,01	174	0,01
Moliyaviy derivativlar	-	-	-	-	-	-	3238	0,05	940	0,05
Tarkiblashgan mahsulotlar	-	-	-	-	5,0	0,01	605	0,01	118	0,01
Pay kontraktlari uchun aktivlar	-	-	1285890	57,10			5537745	84,94	1506746	83,8
Jami investitsiyalar	654363	100	1838112	100	81416	100	6518167	100	1811763	100

Yuqoridagi jadval maʼlumotlaridan koʻrish mumkinki, uzoq muddatli sugʻurta turlari bilan shugʻullanuvchi sugʻurta kompaniyalari uzoq muddatli pay kontraktlariga investitsiya yoʻnaltirishni maʼqul deb bilishganligini ular tomonidan ushbu sohaga investitsiya mablagʻlarining 83% ni yoʻnaltirganligida koʻrish mumkin. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, 2021-yilga qadar Angliyaning bu kabi kompaniyalari oʻz mablagʻlarini toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarga va kapital bozoriga yoʻnaltirishgan. 2021-yildan boshlab esa ushbu yoʻnalishlarga yoʻnaltirilgan mablagʻlar keskin kamaygan.

Angliyaning umumiy sugʻurta sohasidagi kompaniyalar ham oʻz mablagʻlarini asosan uzoq muddatli sugʻurta bilan shugʻullanuvchi kompaniyalar yoʻnaltirgan sohalarga joylab borishgan. Ular oʻz investitsiya mablagʻlarini asosan obligatsiyalarga, aksiyalarga, koʻchmas mulkka, ipoteka ssudalari va boshqa qisqa muddatli moliyaviy aktivlarga joylashtirishgan. Ammo shuni taʼkidlash kerak,

¹²²Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti (IHRT) maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

umumiy sugʻurta sohasidagi kompaniyalarning investitsiyalari koʻproq diversifikatsiyalashgan va har bir aktivning investitsiyalash koeffitsienti umumiy aktivlarning 20 % i chegarasida boʻlgan¹²³.

Umumiy sugʻurta sohasidagi kompaniyalar qisqa jarayonli va oʻzgaruvchan mahsulotlar bilan ishlaganliklari uchun, yetarli toʻlov qobiliyatini taʼminlash zarurati mavjud boʻlib, bu esa yuqori likvidli aktivlarga ega boʻlishni talab etadi. Oʻz oʻrnida investitsiyalarning katta diversifikatsiyasi talab etiladiki, bu investitsion risklarni pasaytirish va mablagʻlarning asosiy qismini davlat obligatsiyalariga yoʻnaltirishga ehtiyoj sezadi.

3.4-jadval

«Angliya umumiy sugʻurta sohasidagi kompaniyalar tomonidan investitsiyaga yoʻnaltirilgan mablagʻlar tarkibi va dinamikasi
(mln. dollar, %) ¹²⁴»

Investitsiya sohalari	Yillar									
	2019		2020		2021		2022		2023	
Naqd pullar va omonatlar	2349	1,02	4769	0,28	3023	8,43	31418	6,59	2971	0,30
Yer va qurilishlar	363	0,16	11352	0,67	1451	4,05	1629	0,34	7322	0,74
Kapital	13948	6,06	30127	1,78	2588	7,22	26295	5,52	194187	19,74
Veksel va obligatsiyalar	89468	38,87	310340	18,34	24036	67,01	347203	72,84	63237	6,43
Ssudalar	925	0,40	-	-	567	1,58	2911	0,61	685147	69,65
Boshqa aktivlar	123130	53,49	1335585	78,93	4203	11,71	67215	14,1	30870	3,14
Jami investitsiyalar	230183	100	1692173	100	35868	100	476671	100	983734	100

3.4-jadval maʼlumotlariga koʻra, umumiy sugʻurta sohasidagi Angliya sugʻurta kompaniyalari 2021-yilda oʻz kapitallarini ssudaga ham yoʻnaltirib boshlashgan. Bulardan shu maʼlum boʻlmoqdaki, Angliya sugʻurta kompaniyalari oʻzlarining investitsion siyosatlarini har yili oʻzgartirib boradi, yaʼni sugʻurta kapitalini boshqarishning oʻzgaruvchan siyosatini yuritadi.

¹²³Caporale G.M, Cerrato M, Zhang X. Analysing the determinants of insolvency risk for general insurance firms in the UK // Journal of Banking and Finance.– 2017.– Vol.84.– P.107-122.

¹²⁴Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti (IHRT) maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1970-yillardan 1990-yillargacha bo'lgan oraliqda Angliya hukumati qonunchilikni takomillashtirish va tizimli islohotlarni amalga oshirish orqali sug'urta sohasini tartibga solishning mukammal huquqiy tizimini yaratdi va natijada Angliya sug'urta bozori sog'lom va tez rivojlanish yo'liga kirdi. 1997-yilga kelib yangi nazorat agentligi – Moliyaviy xizmatlar agentligi (FSA) tashkil topdi va ushbu agentlik bank sohasi, qimmatli qog'ozlar va sug'urta sohalari ustidan nazoratni o'z qo'liga oldi. 2005-yildan boshlab umumiy sug'urta tarmog'i ustidan nazoratni Moliyaviy xizmatlar byurosi amalga oshirib kelmoqda. 2010-yilda Angliya hukumati va Sug'urta assotsiatsiyasining birgalikdagi harakati bilan sug'urta sohasini nazorati qilish tizimi qayta shakllantirilib, uning asosida sug'urta brokerlari ustidan nazorat qilish tizimi, o'z-o'zini tartibga soluvchi Lloyd's korporatsiyasi va Yevropa ittifoqi to'lovga qobillik II standarti (Solvency II) tashkil bo'ldi. Ammo davlat nazorati nisbatan kuchsiz. Hozirda sug'urta kompaniyalari javobgarlikni his qilgan holda faoliyat ko'rsatmoqda va nazorat organlari sug'urtalovchilar faoliyatiga chuqur aralashmaydi. Me'yoriy talablarda risklarning zahira me'yorlari va to'lovga qobillik marjasi kabi talablar aniq belgilab qo'yilgan, ammo sug'urta zahiralaridan foydalanish hajmi va ulushlari nuqtai-nazaridan chegaralovchi holatlar ko'p emas.

AQSh, Angliya va boshqa mamlakatlar sug'urta sanoatining rivojlanganlik darajasi bilan taqqoslanganda, Yaponiyada sug'urta sohasi kechroq rivojlandi, ammo uning rivojlanish tezligi eng yuqori darajada bo'ldi. 2019-yilda ushbu mamlakat sug'urta sanoati bu borada yuqori darajada rivojlangan Angliyadan o'zib ketdi va AQShdan keyin dunyoda kattaligi bo'yicha ikkinchi bozorga aylandi. Yaponiya sug'urta kompaniyalarining sug'urta fondlari keng diapazonda ishlatilishi mumkin, ya'ni ular aksiyalarga, obligatsiyalarga, ko'chmas mulk, ssudalar, xabar berish bilan ssudalar hamda chet mamlakatlarning aksiya va obligatsiyalariga va boshqalarga investitsiya sifatida yo'naltirilishi mumkin. Bugungi kunda Yaponiyada sug'urta kompaniyalari banklar bilan bir qatorda muhim investitsion sub'ektlar hisoblanadi. Yaponiya sug'urta kompaniyalari tomonidan zahiralarini investitsiya sifatida ishlatish ularning iqtisodiy

rivojlanishidagi joriy holati bilan bog‘liq holda kechadi¹²⁵. 1980 yillarga qadar Yaponiya sug‘urta bozorida ko‘chmas mulk va ayniqsa ssudalar investitsion aktivlarning asosiy qismini tashkil etgan.

1980-yildan keyingi davrda ko‘chmas mulk va ssudaga yo‘naltiriladigan investitsiyalar qisqarib, bank depozitlari va bozor qimmatli qog‘ozlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi ortib bordi. 2008-yilda boshlangan halqaro iqtisodiy krizis natijasida moliya bozorlaridagi holat yomonlashdi.

Moliya bozori nobarqarorligining kuchayishi holatida Yaponiya sug‘urta kompaniyalari investitsion sohada konservativ yo‘lga o‘tib, bu boradagi risklarni kamaytirish, shu maqsadda diversifikatsiyani kuchaytirishga e‘tibor qaratdi. Riskli aktivlar hajmi qisqardi va barqaror daromadga bo‘lgan e‘tibor kuchayishi natijasida obligatsiyalar hajmi ortdi. 3.5-jadvalda Yaponiyaning hayot sug‘urtasidan boshqa sug‘urta turlarini amalga oshiruvchi sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyat natijalari keltirilgan.

3.5-jadval

“Hayot sug‘urtasidan boshqa sug‘urta tarmog‘idagi Yaponiya sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyat dinamikasi¹²⁶(mln.ien, %)”

Investitsiya obyektlari	Yillar									
	2019		2020		2021		2022		2023	
Naqd pullar va omonatlar	299999	10	13106	5,38	75615	2,15	17835	7	18718	7
Yer va qurilishlar	51096	1	7968	3,27	55769	1,59	7723	3	7806	3
Kapital	218546	7	59854	24,57	273160	7,77	59071	23	49441	20
Veksel va obligatsiyalar	2093566	63	69905	28,7	2449406	69,68	67377	25	64805	25
Ssudalar	290438	9	16185	6,64	310511	8,83	12943	5	13842	5
Boshqa aktivlar	333390	10	76527	31,44	350985	9,98	93957	37	97974	40
Jami investitsiyalar	3287035	100	243545	100	3515446	100	258906	100	252586	100

¹²⁵Додонов, В. Ю. Финансовые факторы трансформации экономического роста Японии / В. Ю. Додонов. – Астана: Казахстанский институт стратегических исследований при Президенте Республики Казахстан, 2017. – 208 с.

¹²⁶Yaponiya sug‘urta assotsiatsiyasi (LIAJ) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020 yildan boshlab sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larining katta qismini asosiy bo'lmagan, umumiy tarzda boshqa aktivlar deb ataluvchi turli mayda aktivlarga yo'naltirgan. Bular ichida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan mablag'lar katta hajmni tashkil etgan. Bu shu bilan bog'liqki, sug'urta kompaniyalari uzoq vaqt davomida mablag'larni obligatsiyalarga yo'naltirib, bu davrda Yaponiya iqtisodining sekin o'sish tendensiyasi davom etdi va bu o'z o'rnida obligatsiyalar daromadliligining past bo'lishini – o'rtacha olganda 3 % ni ta'minladi.

3.6-jadval

“Hayot sug'urtasi tarmog'idagi Yaponiya sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyat dinamikasi¹²⁷(mln. ien, %)”

Investitsiya obyektlari	Yillar									
	2019		2020		2021		2022		2023	
Naqd pullar va omonatlar	7458	2,03	7534	2	8029	2,11	8994	2,32	10532	2,68
Qisqa muddatli ssuda	1280	0,35	1201	0,1	1594	0,42	1654	0,43	2108	0,54
Maqsadli fond	3701	1,01	4543	1	5590	1,47	6171	1,59	6999	1,78
Qimmatli qog'ozlar	300523	81,85	309714	84	313746	82,29	320309	82,6	321838	81,95
Zaymlar	34986	9,53	34071	9	32973	8,65	31878	8,22	30198	7,69
Yer va qurilish	6250	1,7	6124	1	6092	1,6	6156	1,59	6162	1,57
Boshqa investitsiyalar	12970	3,53	12320	3	13247	3,46	12629	3,25	14985	3,79
Jami investitsiyalar	367168	100	375507	100	381271	100	387791	100	392822	100

3.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2019-2023-yillar oralig'ida Yaponiya sug'urta bozorida hayot sug'urtasi kompaniyalarining investitsiya portfelida kreditlarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi kamaygan. Ammo 2019-yilda hayot sug'urtasi zahiralari moliyaviy kredit sifatida yo'naltirilgan. Loyihalar va jismoniy shaxslar ssudalari hissasiga 85,26 foiz mablag'lar yo'naltirilgan bo'lib, moliyaviy ssudalar 14,53 foizga kamaygan, siyosat bilan bog'liq ssudalar hajmi 4,67 foizga kamaygan. Korxonalarni

¹²⁷Yaponiya sug'urta assotsiatsiyasi (LIAJ) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan hayot sug'urtasi mablag'lari kamaymagan. Aksincha ko'chmas mulklarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmida kamayish yuz berib, ushbu sohaga yo'naltirilgan mablag'lar atigi 1,5 foizni tashkil etgan.

So'nggi yillarda Yaponiya hayot sug'urtasi fondlarining investitsion faoliyatdan ko'rgan daromadlari pasayib, o'rtacha yillik 2 foizni tashkil etgan. 2015-yildan keyin yapon sug'urta kompaniyalari investitsiya mablag'larining katta qismini daromadi oldindan belgilanadigan moliyaviy instrumentlarga, xususan obligatsiyalarga yo'naltirgan bo'lib, kreditlarga yo'naltirilgan mablag'lar kamayib borgan. Investitsion strategiyaga kiritilgan o'zgarishlardan keyin Yaponiya sug'urta kompaniyalari amalda yuqori riskli loyihalarga, xususan, "muqobil investitsiyalar" va jamoaviy investitsion rejalar kabilarga investitsiya yo'naltirishni deyarli to'xtatishdi va past riskli barqaror sohalarga mablag'lar yo'naltirildi¹²⁸.

Yapon sug'urta kompaniyalari yuqori faoliyat darajasi va boshqaruviga ega, sug'urtani tartibga solish tizimi to'liq va samarador. Ular sug'urtani tartibga solish tizimini rivojlantirishning boy tajribasini to'plashga erishgan. Yaponiya sug'urta bozorining rivojlanish jarayoni va nazorat modeli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu o'ziga xoslikning asosiy jihati sifatida nazoratning yagona tizimi yaratilganligi va ushbu tizim sug'urta nazorati milliy agentligi tomonidan amalga oshirilishini keltirish mumkin¹²⁹.

Shuningdek 2001-yil Yaponiyada moliyaviy nazoratning mustaqilligini ta'minlash maqsadida Moliya vazirligining moliyaviy nazorat departamenti va moliyaviy statistika byurosi birlashtirildi. Ular asosan moliyaviy tizimning shakllanishi va moliyaviy nazorat uchun javob berar edilar. Mazkur ikki sub'ektning birlashuvi va Moliyaviy servis agentligi (Financial Service Agency, qisqartmasi FSA) tashkil etilib, ushbu agentlik zimmasiga banklar, qimmatli qog'ozlar va sug'urta sohalarini nazorat qilish vazifasining yuklatilishi mazkur

¹²⁸Li Xin. In the low interest rate environment, Japanese life insurance asset allocation and product development strategy inspiration // Shanghai Insurance. – 2020. – No 3. – P.42-46.

¹²⁹Sun Shuqiang, Zhang Xinyi. Japanese Financial Holding Company Regulatory Thinking and Its Enlightenment to my country // Contemporary financiers. –2020.– No 8.– P.111-113.

sohalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga keng sharoit yaratildi. Yaponiyada tashkil etilgan mazkur tizim hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. 2002-yildan beri yaponiya moliyaviy xizmatlarining huquqiy bazasi amalda o'zgarmagan.

Yaponiya hukumati sug'urta fondlaridan foydalanish bo'yicha yagona qonunni ishlab chiqdi va unda mablag'lardan foydalanish hajmi belgilab berilishi bilan birga, ulardan foydalanish proporsiyalari ham belgilab berilgan. Xususan, aksiyalarga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi jami investitsiyalarning 30 foizidan oshmasligi, korporativ obligatsiyalar uchun yo'naltirilgan mablag'lar 10 foizdan oshmasligi zarur. AQSh va Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaganda Yaponiyada sug'urta fondlari ustidan nazoratga ma'muriy aralashuv nisbatan yuqori. Yaponiyada sug'urta fondlaridan foydalanishda investitsion faoliyat bo'yicha son jihatidan nazorat modeli qo'llaniladi, ya'ni ushbu model sug'urta kompaniyalari tomonidan alohida sohalarga investitsiya kiritishning maksimal koeffitsientlarini belgilab beradi. Investitsiya yo'naltiriladigan asosiy kanallar obligatsiyalar va depozitlar bo'lib, ularning asosiy qismi xorijiy bozorlarga yo'naltiriladi.

Ayni paytda Yaponiyada to'lovga qobillikni nazorat qilishning mukammal modeli yaratilgan bo'lib, qaysiki dinamik sinov, me'yoriy ko'rsatkichlar va sug'urta himoyasining kompleks tizimi bilan to'ldirilgan to'lov qobiliyatining haqiqiy miqdori va minimal huquqiy miqdorga asosan hisoblangan to'lov qobiliyatining yetarlilik koeffitsientidagi o'zgarishlarni kuzatib boradi. Sug'urta kompaniyalarining olgan majburiyatlarini bajarish imkoniyatini shakllantirilgan fondlar va samarali investitsion faoliyat ta'minlab beradi¹³⁰.

To'lov qobiliyatini baholashning aniq modeli nuqtai-nazaridan Yaponiya risk kapitali modelini qabul qiladi, ushbu model sug'urta kompaniyasi duch keladigan risklarni ajratadi va ulardan keladigan zararlarni qoplash uchun turli risk kapitallari talab qilinadi. To'lov qobiliyatini tartibga solish qoidalariga muvofiq, Yaponiya sug'urta nazorati organlari sug'urta kompaniyalarining tijorat faoliyati

¹³⁰Wang Weixing, Zhao Hong. Analysis and Enlightenment of Japanese Insurance Company Inspection Rating System // Financial Sight. – 2017. – No 10. – P.15-17.

ustidan nazoratni yanada kamaytirish va sug'urta bozorida raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun bozorga kirishning kamroq va yanada kamroq cheklov vositalaridan foydalanmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Yaponiya sug'urta kompaniyalari mamblag'laridan foydalanishni tartibga solish strategiyasini tahlil qilish natijasida biz shuni aniqladikki, ular asosan ikki yo'l bilan sug'urta kompaniyalari nazoratini amalga oshiradi. Birinchi usul bu AQShda amal qilayotgan qat'iy nazorat usuli. Ular ko'pincha sug'urta kompaniyalarida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan risk turlari va foyda hajmini aniqlash uchun ma'lum usullardan foydalanadilar, so'ngra sug'urta kompaniyalari sarmoya kiritishi mumkin bo'lgan turli xil mahsulotlar yoki aktivlar ulushini cheklaydilar. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari uchun talab qilinadigan to'lov qobiliyati va kompaniya aktivlarining likvidligi bilan bog'liq risklarni kamaytirish va sog'lom rivojlanishga ko'maklashish maqsadida nazorat olib boriladi.

Ikkinchi usul Yaponiya va Angliya tomonidan qo'llanilayotgan, nisbatan erkin nazorat usuli hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlaridan farqli o'laroq, ushbu usulda sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati asosiy e'tiborda bo'ladi. Sug'urta tashkilotlarini miqdoriy standartlar asosida nazorat organi tomonidan nazorat qilishda sug'urta kompaniyalarining tegishli aktivlar va majburiyatlar shartlariga asoslanadi. Investitsiya jarayonida nazorat organi faqat miqdoriy standartlar asosida ma'lum chegaralarni belgilaydi.

Sug'urta fondlarini nazorat qilish bo'yicha Xitoy va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tartiblarini taqqoslaganimizda, Xitoyda erkin modelni yoki qat'iy nazorat modelini tanlashidan qat'iy nazar, nazorat organlari sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobilligini nazorat qilish choralarini kuchaytiradi. Ammo mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi kuchayishi bilan sug'urta fondlaridan foydalanish qoidalari ham o'zgarib bormoqda. Iqtisodiyotdagi holat va sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda, nazorat organlari tomonidan nazorat usullari va tartiblarini takomillashtirib borish zarur.

3.3. Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini tashkil etish bo'yicha Xitoy tajribasi

Darhaqiqat Xitoy sug'urta bozori so'nggi 40 yil ichida davlat mulkiga asoslangan sug'urta kompaniyalarida esa amalda aksioner kapitalidan foydalanish bilan bog'liq islohotlar poyoniga yetdi va ularda mulkiy huquqlarning aniq tizimi shakllantirildi. Aksionerlik tijorat sug'urta kompaniyalari endilikda Xitoy sug'urta bozorining tayanchi bo'lib xizmat qilishi mumkin¹³¹. Rivojlanishning o'tgan uzoq davridan keyin Xitoyda sug'urta fondlaridan foydalanishning joriy holati quyidagi xususiyatlarga ega bo'ldi:

sug'urta aktivlarining joylashuv masshtabi yildan-yilga kengayib bormoqda, ularni boshqarish tizimi esa takomillashib bormoqda;

sug'urta fondlaridan foydalanish diversifikatsiyalashgan, investitsiya kanallarining kengayishi davom etmoqda;

sug'urta fondlari tarkibi yanada optimallashtirilmoqda, kapitaldan foydalanish ulushi asta-sekin oshib bormoqda;

kapital bozoridagi tendensiyalarga bog'liq holda, investitsion faoliyatdan olingan daromadlar hajmi asta-sekin¹³² ortib bormoqda;

XXR sug'urta to'g'risidagi Qonunida belgilangan, sug'urta kapitalini boshqarish prinsiplariga amal qilgan holda sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiya siyosatlari ishlab chiqiladi. Milliy siyosatning qo'llab-quvvatlashi sharoitida Xitoy iqtisodiyotining tez rivojlanayotganligi evaziga mamlakatda sug'urta sohasi uzoq yillardan beri barqaror ravishda tez rivojlanib kelmoqda.

So'nggi 20 yil ichida Xitoy sug'urta bozorining sug'urta operatsiyalaridan topayotgan daromadi yillik o'rtacha 18 % ni tashkil etdi¹³³. Hozirgi paytda kattaligi bo'yicha Xitoy sug'urta bozori dunyo bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab turibdi¹³⁴.

¹³¹Yi Xichun. Research on the Supply-side Structural Reform of my country's Insurance Industry // Hainan Finance. – 2018. – Vol.355. – No 6. – P.72-77.

¹³²https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹³³Се, С. К2013 Китайское интернет-страхование в эпоху цифровой экономики / С. Се // ЦИТИСЭ. 2020. № 2(24).–С.406-418.

¹³⁴https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

2002-2019-yillar oralig'ida Xitoy sug'urta kompaniyalarining aktivlar hajmi doimiy ravishda oshib borgan. Sug'urta fondlaridan foydalanishning o'sish darajasidagi nobarqarorlikka qaramasdan, jami mablag'lar hajmi tez o'sib borganligini quyidagi 3.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. 3.7-jadvaldan ko'rish mumkinki, Xitoy sug'urta bozorida chet el sug'urta kompaniyalari aktivlarining ulushi katta bo'lmasada, ushbu kompaniyalar aktivlarining masshtabi va o'sish tezligi ancha yuqori. Bu ushbu bozorni davlat tomonidan tartibga solish tizimining takomilashganligi hamda moliya bozori ochiqqligining yetarli darajada ekanligi bilan bog'liq. Ushbu masalada ko'pgina iqtisodchilarning fikriga ko'ra, Xitoy sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan chet el sug'urta kompaniyalarining aktivlari va ulardan foydalanish ko'lami yaqin yillarda yuqori darajada ortadi.

3.7-jadval

«Xitoy bozorida sug'urta kompaniyalari aktivlarining o'zgarish dinamikasi(trln.so'm)¹³⁵»

Yillar	Sug'urta tarmog'i aktivlari	Mulk sug'urtasi kompaniyalari aktivlari	Hayot sug'urtasi kompaniyalari aktivlari	Qayta sug'urta sohasi aktivlari	Xitoy kompaniyalari jami aktivlari	Chet el sug'urta kompaniyalari aktivlari
2005	15286.44	1718.81	13458.27	292.7	14630.97	665.64
2006	19704.19	2340.45	17446.26	311.31	18862.60	862.66
2007	28912.78	3880.51	23249.16	877.26	27656.26	1256.51
2008	33418.83	4687.03	27138.45	994.45	31893.93	1524.91
2009	40634.75	4892.62	33655.05	1162.01	38582.37	2052.39
2010	50481.61	5833.52	42642.66	1151.79	47860.49	2621.12
2011	59828.94	7919.95	49798.19	1579.11	56822.12	3006.83
2012	73545.73	9477.47	60991.22	1845.25	70080.33	3465.4
2013	82886.95	10941.45	68250.07	2103.93	78551.67	4335.28
2014	101591.47	14061.48	82487.20	3513.56	94950.98	6640.49
2015	123597.76	18481.13	99324.83	5187.38	115057.96	6539.8
2016	153764.66	23849.82	126557.51	2765.61	144646.59	9118.07
2017	169377.32	24901.04	131885.05	3150.32	158956.86	10420.46
2018	183305.24	23502.73	146032.48	3633.48	171695.83	11609.41
2019	205644.90	22939.60	169575.17	4261.12	192052.69	13592.21
2020	232984.30	23422.59	199789.74	4956.29	216367.12	17076.79
2021	248874.00	24513.00	213895.00	6057.00	224674.35	19229.65
2005/ 2021, marta	16,28	1,43	15,89	20,69	15,36	28,89

Aktivlar o'sishining yuqori darajasi qayta sug'urta kompaniyalarida bo'lib, bu birinchidan, milliy sug'urta bozori hajmining kengayishi bilan bog'liq bo'lsa,

¹³⁵Хитой миллий статистика бюроси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган

ikkinchi tomondan, Xitoy qayta sug'urta kompaniyalarining xalqaro bozorga chiqayotganligi bilan bog'liq. Yana shuni ham ta'kidlash kerak, Xitoy sug'urta bozorida hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan kompaniyalar aktivlari mulk sug'urtasiga ixtisoslashgan kompaniyalar aktivlaridan sezilarli darajada katta va o'sish tezligi ham yuqori. Yana shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerak, Xitoy hukumati sug'urta bozori ishtirokchilari uchun shunday prinsipni yuritmoqdaki, mulk sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari va hayot sug'urtasi kompaniyalari bir-biridan alohida tarzda va bog'liq bo'lmagan holda faoliyat ko'rsatishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur ikki tarmoq kompaniyalari uchun mablag'lardan foydalanish va me'yoriy siyosat borasida davlat tomonidan belgilangan tartiblar bir-biridan farq qiladi¹³⁶.

Xitoyda sug'urta fondlaridan foydalanishni tartibga solishga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning yumshatilishi munosabati bilan, sug'urta kompaniyalari tomonidan tanlanayotgan investitsiya sohalari ko'proq diversifikatsiyalashib bormoqda. Sug'urta kompaniyalari bugungi kunda institutsional investor sifatida tijorat banklaridan keyin ikkinchi o'rinda turgan asosiy institutsional investor hisoblanadi. Sug'urta fondlari investitsiya aktivlarining kategoriyalari bo'lib aksiyalar, obligatsiyalar, fondlar, moliyaviy mahsulotlar, ko'chmas mulk, chet el aktivlari va boshqalar hisoblanadi. Umuman olganda sug'urta aktivlarini boshqarishga qaratilgan aktivlar taqsimoti strategiyasi nisbatan barqaror va havfsiz hamda past investitsion risklar bilan aktivlar taqsimotining yuqori imkoniyatlariga ega hisoblanadi¹³⁷. Sug'urta bozorida aktivlarni boshqarishning yirik ndustriyasi oldida taqqoslaganda ma'lum yuqori imkoniyatlarga ega. Xitoy bank va sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha komissiya tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil natijalariga ko'ra, ushbu yilda sug'urta bozorida to'plangan jami sug'urta mukofotlari 4,49 trln. yuanni tashkil qilib, oldingi yilga nisbatan 6,13 foiz ko'p demakdir. 2021-yilda hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalarining aktivlari

¹³⁶Zhang Hao. Review and Experience Summary of my country's Insurance Industry's Opening-up Process // Hebei Finance. – 2022. – No 1. – P.65-69.

¹³⁷ https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

hajmi 21,39 trln. yuanni tashkil qilib, bu o'tgan yilga nisbatan 7,06 foiz ko'p demakdir. Xitoy milliy statistika byurosining ma'lumotlariga ko'ra, bunday o'sish suratlarning asosiy omili tibbiy sug'urta sohasidagi sezilarli o'sish hisoblanadi.

Shuningdek 2021-yilda hayot sug'urtasi bo'yicha Xitoy kompaniyalarining to'plagan sug'urta mukofotlari 3,12 trln. yuanni tashkil qilib, bu 2020-yilga nisbatan 1,4 foiz pasayganligini ko'rsatadi. Umuman, 2021-yilda tibbiy sug'urtani hisobga olmaganda, shaxsiy sug'urta xizmatlarining hajmi kamaygan. Tibbiy sug'urta bo'yicha 2019-2020-yillar oralig'ida sug'urta mukofotlari hajmida keskin o'sish 13,37 foiz o'sishga erishilgan bo'lsa, 2020-2021-yillar oralig'iga kelib o'sish keskin pasaygan va 0,14¹³⁸ foizni tashkil etgan. Xulosa qilish mumkinki, Xitoy sug'urta bozorida o'sish darajasi so'nggi 2021-2022-yillarda pasaygan. Tibbiy sug'urtadagi o'sish epidemiologik holatning yomonlashganligi munosabati bilan tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan belgilanadi.

Xitoy mulkiy sug'urtasi ijobiy rivojlanish dinamikasini saqlab qolmoqda. 2021-yil natijalariga ko'ra, mulkiy sug'urtaga ixtisoslashgan kompaniyalar tomonidan 116,71 mlrd. yuan sug'urta mukofotlari to'plangan bo'lib, bu 2020-yilga nisbatan 4,36 foiz ko'p demakdir. Mazkur yilda mulkiy sug'urta kompaniyalari tomonidan sotilgan sug'urta polislari soni 488955,6 mlrd. donani tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 6,13 foiz ko'p demakdir. Ushbu kompaniyalarning aktivlari 2021-yilda 245,13 mlrd.¹³⁹yuanni tashkil etgan bo'lib, bu oldingi yilga nisbatan 2,1 foiz ortganligini ko'rsatadi. Ta'kidlash kerak, avtosug'urta sohasini kompleks isloh qilingan bo'lsada, avtomobil sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari hajmi 2021-yilda faqat 0,7 foiz oldingi yilga nisbatan o'sish yuz bergan. Sug'urta tarmog'i moliya sohasining asosiy ustunlaridan hisoblanib, uning tez rivojlanishi kapital masshtabining doimiy ravishda kengayishiga olib keldi. 2021-yilning sentyabr holatiga, sug'urta fondlaridan foydalanish balansi 224426 mlrd. yuanni tashkil etib, jami sug'urta aktivlari esa 24319,6 mlrd. yuanga teng bo'ldi. Investitsiya mablag'larining o'sish

¹³⁸ https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹³⁹ https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

tezligi Xitoy YaIMining o'sish tezligidan oshib ketdi hamda kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmidan ham yuqori bo'ldi. 3.8-jadvalda Xitoy jami sug'urta fondlaridan investitsiya sifatida foydalanish ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan.

3.8-jadval

«Xitoyda sug'urta fondidan investitsiya sifatida foydalanish dinamikasi (mlrd.so'm)¹⁴⁰»

Yillar	Jami investitsiya hajmi	Bank omonatlari va depozitlari	Davlat obligatsiyasi	Moliyaviy obligatsiya	Korporativ obligatsiya	Qimmatli qog'ozlar, investitsiya fondlari
2005	14092.69	5165.55	3590.65	1804.71	1204.55	1107
2006	17785.4	5989.11	3647.01	2754.25	2121.56	912.08
2007	26647.81	6503.44	3956.56	4897.84	2799.76	2519.41
2008	30552.83	8087.49	4208.26	8754.06	4598.46	1646.46
2009	37417.12	10519.68	4053.82	8746.1	6074.56	2758.78
2010	46046.62	13909.97	4815.78	10038.75	7935.69	2620.73
2011	55192.98	17692.69	4741.9	12418.8	8755.86	2909.92
2012	68542.58	23446.00	4795.02	14832.57	10899.98	3625.58
2013	76873.41	22640.98	4776.73	14811.84	13727.75	3575.52
2014	93314.43	25310.73	5009.88	15067.12	15465.13	4714.28
2015	111795.49	24349.67	5831.12	15215.31	17307.38	8856.5
2016	133910.67	24844.21	7796.24	16260.35	18627.99	8554.46
2017	149206.21	19274.07	10167.99	19153.05	19436.76	7524.77
2018	164088.38	24363.5	14027.62	20215.82	21011.68	8650.55
2019	185270.58	25227.42	20672.01	20658.19	21462.84	9423.29
2020	216801.13	25973.45	32069.6	20940.95	20940.95	20940.95
2021	232280.04	26179.24	20303.02	30183.05	30183.05	29505.1
2005/2021, marta	16,48	5,07	5,65	16,72	25,06	26,65

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, hozirgi davrda Xitoy sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalarining investitsiya mablag'lari turli

¹⁴⁰Xitoy milliy statistika byurosi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

sohalarga joylashtirilgan bo'lib, bunda mablag'larning katta qismi moliyaviy va korporativ obligatsiyalar hissasiga to'g'ri kelganligini, yillar davomida investitsiya mablag'lari yo'naltirilgan sohalar bo'yicha yuqori ulush o'sishi qimmatli qog'ozlar va investitsiya fondlari bo'lganligini ko'rish mumkin. Yana shuni ham ta'kidlash kerak, bank depozitlariga joylashtirilgan mablag'lar hajmi 2014-yildan keyin kamaygan. Buning asosiy sababi ichki bozorda depozit stavkalarining pasayganligi va natijada sug'urta kompaniyalari boshqa daromadi yuqoriroq investitsiya kanallarini qidirib topishga bo'lgan harakati bilan asoslanadi. Moviy chip aksiyalarining Xitoy fond bozorida paydo bo'lishi sug'urta kompaniyalarining yangi investitsiya yo'nalishi sifatida ommaviylashuviga sabab bo'ldi. Sug'urta kompaniyalari kapital bozorida listing kompaniyalari bilan munosabat qilishmoqda va bu ham sug'urta fondlaridan foydalanish masshtabining kengayganligidan dalolat beradi¹⁴¹.

Iqtisodiyotning rivojlanishi va biznes yuritish konsepsiyasining o'zgarishi bilan sug'urta tarmog'ini ichki tomondan tushunib borish chuqurlashib bordi. Sug'urta aktivlari jami qiymatining ko'payishi va ushbu sohani tartibga solish siyosati hamda me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashuvi sug'urta fondlaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirdi. Xitoy sug'urta fondlarini investitsiya qilish sohalarida birlamchi bank depozitlari, obligatsiyalar, aksiyalar, ko'chmas mulk fondlari va boshqalarga qo'yilayotgan investitsiyalar ko'payib bormoqda va diversifikatsiyalashmoqda. Sug'urta fondlarining turli investitsiya sohalariga taqsimlash imkoniyatlari va egiluvchanligi ortib bormoqda va ularning keng maydonlarni qamrab olishi ommaviy takliflardan tortib xususiy takliflarga, an'anaviy moliyaviy mahsulotlardan muqobil instrumentlarga, ichki bozorlardan chet el bozorlarigacha va real iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotgacha bo'lgan maydonlarni egallamoqda¹⁴².

2012-yilda qabul qilingan "sug'urta mablag'laridan foydalanish bo'yicha oraliq chora-tadbirlar" da aktivlar toifalari va investitsiya koeffitsientlari aniq

¹⁴¹Chen Hua, Shao Yujia, Wang lizhen. Business Diversification Motivations of P&C Insurers-Heterogeneity analysis based on corporate characteristics//Insurance Studies.–2020.–No 8.– P.47-63

¹⁴² https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

ko'rsatib qo'yilgan. Bank depozitlari, davlat obligatsiyalari va moliyaviy obligatsiyalarga investitsiyalarning ulushi kamida 5 foiz, aksiyalarga, kapitalga va hosilaviy moliyaviy instrumentlarga investitsiyalarning ulushi 5 foizdan oshmasligi, ko'chmas mulkka yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi 10 foizdan oshmasligi va infratuzilma loyihalariga investitsiyalar 1 foizdan oshmasligi kerak edi. Ushbu tartibga soluvchi cheklovlar sug'urta fondlaridan foydalanish xavfsizligini oshirdi va shu¹⁴³ bilan birga sug'urta kompaniyalari investitsion daromadlarining o'sishini cheklab qo'ydi.

O'shandan beri, sug'urta sanoati rivojlanishi bilan, Xitoy "Sug'urta faoliyati to'g'risida" qonun va "Sug'urta fondlaridan foydalanish bo'yicha ma'muriy chora-tadbirlar" to'g'risidagi qonunlarni bir necha marta qayta ko'rib chiqdi va dinamik ravishda investitsiyalarning aktivlarga nisbatini qayta ko'rib chiqish orqali asta-sekin cheklov standartlaridan voz kechib bordi. Bundan tashqari, 2020-yilda sug'urta kompaniyalariga investitsiya mablag'laridan foydalanish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish uchun imkoniyat¹⁴⁴ berildi, aksioner kapitaliga investitsiya kiritish bo'yicha tabaqalashtirilgan nazorat koeffitsienti o'rnatildi va xususiy kapitalga mablag' kiritish 45 foizgacha oshirildi. Ko'proq darajada, mustaqil qaror qabul qilish vakolati sug'urta kompaniyalariga sug'urta fondlaridan foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilish, va ushbu fondlar bilan bog'liq risklarni boshqarish choralari ham mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi berildi.

Shuni ta'kidlash kerak, sug'urta aktivlaridan foydalanish bo'yicha nazoratni yumshatish sharoitida kapital konsentratsiyasi riskiga nisbatan nazorat indeksi kuchaytirildi. To'lov qobiliyatining yetarlilik koeffitsientidan keng qamrovli foydalanish, korporativ boshqaruv, ichki nazorat mexanizmlari, risk omillari, kapital konsentratsiyasi va boshqa ko'rsatkichlar, sug'urta faoliyatining ichki va tashqi nazorati bilan birgalikda olib borish, sug'urta kompaniyalari ustidan yanada

¹⁴³ChenHua,ShaoYujia,Wanglizhen.Business Diversification Motivations of P&C Insurers-Heterogeneity analysis based on corporate characteristics//Insurance Studies.–2020.–No 8.– P.47-63

¹⁴⁴ChenHua,ShaoYujia,Wanglizhen.Business Diversification Motivations of P&C Insurers-Heterogeneity analysis based on corporate characteristics//Insurance Studies.–2020.–No 8.– P.47-63

samarali nazoratni amalga oshirishni anglatadi¹⁴⁵. Bunga Xitoy bozorining yuqori ulushini egallagan sug'urta kompaniyalari ham kiradi. Sug'urta kapitalini investitsiya qilish standartlaridan sug'urtalovchilarning ichki moliyaviy barqarorligini tartibga solishga o'tish quyidagi hollarda mavjud sug'urta mablag'laridan foydalanishda risklarni samarali minimallashtirishga imkon beradi. Sug'urta kompaniyalarining sug'urta kapitalini normativ investitsiyalash tartibidan voz kechilib, ularning ichki moliyaviy barqarorligini nazorat qilishga o'tish erkin sug'urta mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq risklarni samarali minimallashtirish imkonini beradi. Sug'urta kompaniyalari bunday holatda foydani maksimallashtirish emas, balki riskni minimallashtirish siyosatini tanlagan holda sug'urta kapitalini oqilona va ehtiyotkorlik bilan investitsiya qilishga majbur bo'ladilar¹⁴⁶.


Sug'urta kapitalidan foydalanish bilan bog'liq nazorat choralarining o'zgartirilishi Xitoy sug'urta kompaniyalari investitsiya siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatganligini tahlil qilishga harakat qilib ko'ramiz. Xitoy Milliy statistika byurosining ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil dekabr oyi oxirida Xitoyda turli manbalarga sarmoya kiritgan sug'urta kompaniyalarining kapital hajmi 21,68 trln. yuanni tashkil qilib, bu o'tgan yilga nisbatan 17,02 foiz ko'pdir. Shundan, bank depozitlariga qo'yilgan sug'urta kapitali hajmi 2,6 trln. yuan bo'lib, bu 2019- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,98 foiz ko'proq¹⁴⁷. Ushbu o'sish asosan Xitoyda sug'urta sanoatining umumiy rivojlanishi bilan bog'liq. Obligatsiyalarga yo'naltirilgan sug'urta kapitali 2020-yilda 7,93 trln. yuanni tashkil qilib, bu 2019- yilga nisbatan 23,89 foiz oshganligini bildiradi. Xitoylik sug'urtalovchilar qimmatli qog'ozlar va investitsiya fondlariga 2020-yilda 2,98 trln. yuan miqdorida sarmoya kiritib, bu 2019-yilga nisbatan 22,4 foiz ko'proq. Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, sug'urta kompaniyalari investitsiya kanallarini tanlashda afzallikni

¹⁴⁵ChenHua, Shao Yujia, Wanglizhen. Business Diversification Motivations of P&C Insurers-Heterogeneity analysis based on corporate characteristics//Insurance Studies.–2020.–No 8.– P.47-63

¹⁴⁶China Banking and Insurance Regulatory Commission. Review and Prospect of my country's Insurance Industry Solvency Regulatory System Construction//Insurance Research. – 2018. – No 12. – P.34-37.

¹⁴⁷ChenHua, ShaoYujia, Wanglizhen. Business Diversification Motivations of P&C Insurers-Heterogeneity analysis based on corporate characteristics//Insurance Studies.–2020.–No 8.– P.47-63

qimmatli qog'ozlarga qaratganligini e'tirof etish mumkin. Turli kanallarga investitsiya qilingan sug'urta kapitali ulushining nisbati 3.1-rasmda keltirilgan.



3.1-rasm. «2023-yil Xitoyda sug'urta kapitali investitsiya qilingan sohalar¹⁴⁸»

3.1-rasmda keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy sug'urta kompaniyalari investitsiyalari tarkibida bank depozitlari va obligatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar jami investitsiyalarning 48,28 foizni tashkil etgan. Xitoy fond bozorida o'tkazilayotgan doimiy islohotlar va tuzatishlar hamda nazorat organi tomonidan sug'urta fondlarini investitsiyalash uchun yangi kanallarga yo'l ochilishi bilan aksiyalarga va investitsiya fondlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda, chet el investitsiyalari uchun ochilgan kanallar esa diversifikatsiyalashib bormoqda. Sug'urta kapitalini investitsiyalash kanallarining ortib borishi Xitoyda sug'urta mablag'laridan foydalanish darajasini yuqori pog'onaga olib chiqdi¹⁴⁹.

Hozirgi davrda Xitoyda ichki sug'urta kapitalini boshqa soha loyihalariga yo'naltirish borasida asosiy o'rinni infratuzilma ob'ektlari qurish yo'nalishi egallamoqda. Sug'urta mablag'larini turli trast (ishonchli) mahsulotlarga investitsiya qilish va kelajakda sug'urta aktivlarini sek'yuritizatsiya qilishni rivojlantirish ham yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Sug'urta kapitallaridan

¹⁴⁸Xitoy statistika byurosi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹⁴⁹https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

foydalanish borgan sari Xitoy kapital¹⁵⁰ bozoriga kuchliroq ta'sir ko'rsatib bormoqda va sug'urta kompaniyalari eng ta'sir doirasi kuchli strategik institutsional investorga aylanib bormoqda¹⁵¹. Kichik va o'rta investorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida, fond birjasida kotirovka qilingan shunday investorlarning qimmatli qog'ozlarini xarid qilishlari mumkin. Xitoyning sug'urta nazorati komissiyasi sug'urta kompaniyalari tomonidan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi 3-sonli: "axborotni oshkor qilish bo'yicha ko'rsatmalar"¹⁵² ni ishlab chiqdi. Ushbu ko'rsatmaga muvofiq, birja listingiga kiritilgan kichik va o'rta kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari sug'urta kompaniyasi jami investitsiya mablag'larining 5 foizdan ortig'ini tashkil etishi kerak. Shuningdek, bitim tuzishda mavjud mablag'lar qoldig'i va tegishli hisob schetida mahsulot investitsiya balansi, hisob balansi, pul oqimi, mulkka egalik qilishning o'rtacha muddati, mavjud qoldiq va boshqalar. ko'rsatilishi kerak¹⁵³. Ma'lumotlar ochiqqligini ta'minlash maqsadida sug'urta kompaniyalari rahbariyatida ushbu ma'lumotlarni oshkor qilish muddati va oshkor qilish usullari to'g'risidagi nazorat organi tomonidan qo'yilgan talablar ham mavjud. Ushbu qoidalar tashqi bozorlarda aksiyalarga sarmoya kiritadigan sug'urta kompaniyalariga ham tegishli. Listing kompaniyalarining 5 foizgacha aksiyalarini sotib olish jarayoni kapital bozorining sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati uchun muhim manba ekanligini ko'rsatadi. Sug'urta kompaniyalari tomonidan tashkil etilgan yuqori sifatga ega bo'lgan listing kompaniyalari sug'urta mablag'larini investitsiya qilishning ko'proq ilmiy strategik rejasi sifatida aks etadi. Taqsimlangan kapitalga ega listing kompaniyalarini nazorat qilish barobarida¹⁵⁴, sug'urta kompaniyalari yuqori bozor daromadiga ega bo'lish bilan birga, o'zining asosiy biznesini tez rivojlantirish, xolding kompaniyalaridan brend uchun mukofotlar olish orqali o'z faoliyatining

¹⁵⁰https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf


¹⁵¹Tong Weihao. Analysis on the Use of Insurance Funds under the New Normal of Economy // Financial Economics. – 2018.– Vol.24.– P.41-43.

¹⁵² https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹⁵³Chen Wenhui. Deepening the market-oriented reform of the use of insurance funds//China Finance.–2017.– №3.–P.11-13.

¹⁵⁴Chen Wenhui. Deepening the market-oriented reform of the use of insurance funds // China Finance.– 2017.– №3.–P.11-13.

samaradorligini maksimallashtiradi. Shuni ta’kidlash kerak, sug’urta tarmog’i yuqori darajadagi investitsion daromad olishga harakat qilsada, mazkur harakatlar sug’urta fondlarining barqarorligi va xavfsizligiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi¹⁵⁵.



3.2-rasm. “Xitoy sug’urta kapitalidan investitsiya sifatida foydalanishning o’rtacha yillik daromadliligi¹⁵⁶”

3.2-rasmda ko’rsatilgan ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, sug’urta mablag’laridan foydalanish ko’rib chiqilayotgan davrda o’rtacha daromad juda o’zgarib turgan. Bu ikkita holatning mavjudligini ko’rsatadi, ya’ni birinchidan, katta miqdordagi sug’urta fondlari kapital bozoriga¹⁵⁷ investitsiya qilinmoqda va bu bozorning nobarqarorlik xususiyati daromadning ham nobarqaror bo’lishiga sabab bo’lmoqda. Ikkinchidan, Xitoy sug’urta kompaniyalari kapital bozoriga asosan qisqa muddatli usullarda mablag’larni investitsiya qiladi, bu usullar risklar yuz berishining ehtimolligi yuqori usullar hisoblanadi. Faqat real uzoq muddatli investitsiya imkoniyatlariga ega bo’lgan investorlar kapital bozorida yuqori daromad olishlari va yuqori raqobatdosh ustunliklarga ega bo’lishlari mumkin.

¹⁵⁵Yu Liang, Sun Jian. The Challenge of Equity Investment of Insurance Funds//China Finance.–2016.–Vol. 17.– P.72-73.

¹⁵⁶Xitoy milliy statistika ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹⁵⁷https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

Aslida, rivojlangan mamlakatlarning ko‘plab sug‘urta kompaniyalari operatsion faoliyatni amalga oshirishda zarar ko‘radi¹⁵⁸, ularning yuqori daromadlari asosan kapital bozoriga o‘zlari to‘plagan sug‘urta mukofotlarini uzoq muddatli investitsiya sifatida kiritish orqali ta‘minlanadi¹⁵⁹.

Mahalliy anderrayting biznesining sekin o‘sishi va kapital hajmining tez o‘sishi yuz berayotgan sharoitda sug‘urta kompaniyalari rivojlanishining asosiy muammosi past risk bilan yuqori rentabellikni ta‘minlashda investitsiya faoliyatini oqilona yuritish uchun sug‘urta mablag‘laridan qanday foydalanish kerakligi masalasi bo‘ldi.

Biz shunday hisoblaymiz, ya‘ni, sug‘urta mablag‘larini boshqarish bo‘yicha maxsus kompaniya tashkil etish Xitoyda sug‘urtalovchilar uchun muqarrar tendensiya hisoblanadi, chunki investitsiya faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega soha hisoblanadi. Investitsiya aktivlarini boshqarish kompaniyalarining investitsion va boshqaruv imkoniyatlari sug‘urta investitsiyalari muvaffaqiyatining asosiy elementlariga aylandi. Sug‘urta kompaniyalari investitsiya faoliyati sohasida doimiy ravishda o‘z malakalarini oshira¹⁶⁰ olmaydilar, shuning uchun o‘z sug‘urta fondlarini boshqarish kompaniyalarini ochish eng muhim va ular uchun foydali strategiya hisoblanadi.

Kapital hajmiga cheklovlar va malaka talablari belgilanganligi tufayli, hamma sug‘urta kompaniyalari ham sug‘urta aktivlarini boshqaruvchi kompaniya ochish uchun murojaat qilishmaydi. Xitoy sug‘urta bozorining hozirgi rivojlanish holatidan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, kichik va o‘rta sug‘urta kompaniyalari, investitsiyalarni boshqaruvchi kompaniyalarni birgalikda yaratish tendensiyasi amal qilmoqda¹⁶¹. Ular mazkur yo‘nalishda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali raqobatbardoshlikni oshirishlari mumkin va yirik sug‘urta

¹⁵⁸ Xitoy milliy statistika ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹⁵⁹ Xu Xiaodan. International Experience in the Use of Insurance Funds // China Finance.– 2016.– No 11. – P.75-77.

¹⁶⁰ https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹⁶¹ Се,С.Цифровые факторы экономики в развитии страховых компаний Китая /С.Се, Я.Чжоу, С.Се.Азимут научных исследований: экономика и управление.– 2020.– Т. 9.– № 4(33).– С.327-332.

kompaniyalari¹⁶² bilan raqobatda bozorga egalik qilish ulushini oshirishlari mumkin bo'lmoqda¹⁶³.

Iqtisodiyot sohalariga yo'naltiriladigan investitsiya hajmi kengayish davom etar ekan, sug'urta kompaniyalari asta-sekin bilan professionallik darajasini oshirib, professional va zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirib, bilim va malakaga ega kuchli mutaxassislarni jalb qilish zarur hisoblanadi. Shuningdek 2020-yil oxiriga kelib, Xitoy sug'urta bozorida sug'urta aktivlarini boshqaruvchi sug'urta tashkilotlar soni 35 taga yetib, shu jumladan 27 ta sug'urta aktivlarini boshqaruvchi sug'urta tashkilotlari mavjud bo'lgan 8 ta sug'urta tashkiloti, jami aktivlarni boshqarish ko'lami yillik 21 trln.¹⁶⁴yuanni tashki etdi. Ushbu sug'urta kompaniyalarning yillik o'sishi 19 foizni tashkil etadi va bu holat ularning investitsiya faoliyati samaradorligini ko'rsatadi¹⁶⁵.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlarida investitsion siyosatni tashkil etish hamda shu asosda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog'liq ilg'or tajribalar o'rganildi va tahlil qilinib, xulosalar shakllantirildi, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, ushbu bobda investitsiya siyosati, davlatning investitsiya siyosati hamda sug'urta sohasidagi investitsiya siyosati tushunchalari to'g'risida fikrlar shakllantirilib, tariflar berildi. Davlat tomonidan mamlakatdagi iqtisodiyot sub'ektlari investitsiya faoliyatiga turli vositalar yordamida, xususan, moliya-kredit va soliq siyosati, ishlab chiqarish sohasi uchun investitsiya kirituvchi investorlarga soliq imtiyozlari taqdim qilish, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash siyosatini yuritish ilmiy-texnik yangiliklarni joriy etishga qaratilgan imtiyozlar yaratish orqali investitsiya faolligini oshirish zarurligi asoslandi.

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari investitsiya siyosatining samarali bo'lishiga salbiy ta'sir qiluvchi holatlar aniqlandi va ushbu muammolarni hal etish

¹⁶² https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹⁶³ Cao Deyun. The Development Status and Trend of China's Insurance Asset Management Industry // Shanghai Insurance. – 2019. – Vol.27. – P.27-32.

¹⁶⁴ https://disser.spbu.ru/files/2022/disser_xie_xiaohe.pdf

¹⁶⁵ Xitoy milliy statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

yo'llari taklif etildi. G'arb qayta sug'urta kompaniyalari tajribasida samarali qo'llanilayotgan "falokatli" deb nomlangan obligatsiyalarni amalda qo'llash taklif etildi va uning xususiyatlari hamda afzalliklari ko'rsatib berildi.

Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur kabi davlatlar tomonidan o'z mamlakatida yaratilayotgan qulay investitsion muhit va ushbu muhitning mamlakat iqtisodiyoti rivojida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirildi va xulosalar shakllantirildi. Investitsion muhit jozibadorligini oshirishga ko'mak beradigan omillar taklif etildi.

Ushbu bobda sug'urta zahiralarini investitsiyaga yo'naltirishning ilg'or tajribalari sifatida AQSh, Angliya, Yaponiya va Xitoy tajribalari o'rganildi va shu asosda xulosalar shakllantirilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

AQSh sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining statistikasi o'rganilib, ushbu mamlakat sug'urta kompaniyalari o'z mablag'larining 8 foizdan ortig'ini ipoteka ssudalariga yo'naltirayotganligini va ushbu tajribani mamlakatimizda bugungi kunda ipoteka uylari jadal qurilayotgan bir paytda O'zbekiston sug'urta bozorida qo'llash taklif etildi.

Angliya sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyati o'rganilganda ushbu kompaniyalar tomonidan chet davlatlar obligatsiyalariga, xorijiy korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish tajribasi keng qo'llanilayotganligi va ushbu tajribani mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan ham qo'llash orqali dunyo investitsiya bozoriga chiqish tavsiya etildi. Ushbu bobda Xitoy sug'urta bozorining investitsiya faoliyati o'rganilganda ma'lum bo'ldiki, ushbu mamlakat sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati yuqori darajada o'sib, aktivlar joylashuv masshtabi ham kengayib bormoqda, ushbu faoliyatni boshqarish takomillashib va diversifikatsiyalashib borish barobarida, investitsion faoliyatdan kelayotgan daromadlar hajmi ham ortib bormoqda. Xitoy sug'urta bozorida milliy kompaniyalar bilan bir qatorda chet el kompaniyalari ham sug'urta va investitsiya faoliyatini olib bormoqda. Ikkala yo'nalishda ham ularning faoliyati kengayib, Xitoy iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalari hajmi ortib bormoqda. Umuman, Xitoy sug'urtachilari investitsiya mablag'larini iqtisodiyotning turli sohalariga bir tekisda yo'naltirib bormoqda. Bank sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'lar

hajmidagi ustunlik 2014-yilda bank depozitlari bo'yicha stavkalarning pasayishi natijasida pasayib bordi. Shundan keyin sug'urta kompaniyalari o'z mablag'larini ko'proq aksiyalar va investitsiya fondlariga yo'naltirishga harakat qildilar. Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham chet el sug'urta kompaniyalari uchun yo'l ochib berish, sug'urta sohasidagi ilg'or tajribalarning kirib kelishi bilan birga, milliy sug'urta bozorining investitsion faoliyati ko'lamining yanada kengayishiga imkoniyat yaratiladi.

Mazkur bobda rivojlangan davlatlarda sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni yo'nalishtirishda qaysi jihatlariga e'tibor qaratishlari hamda moliyaviy resurslarni joylashtirish muddatlari va uning samaradorlik darajasiga katta e'tibor qaratishlari nazarda tutilgan. Masalan Angiliyada sug'urta tashkilotlari asosan ixtiyorida bo'lgan bo'sh moliyaviy resurslarni asosan qimmatli qog'ozlarga ko'char ko'chmas mulklarga yo'naltirilsa, Xitoy davlatida asosan sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni asosan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirib yuqori daromad olishga erishilganligidan dalolat berishi nazarda tutilgan. Chunki ushbu rivojlangan davlatlarda ko'chmas mulkni qadri juda baland bo'lib o'zini qadrini yo'qotmaydi. Shu bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar bozori ham rivojlanganligi bois listing kompaniyalar soni ham juda ko'p bo'lib, bular qatoridan sug'urta kompaniyalari ham o'z o'rniga ega. Shu bilan birga rivojlangan davlatlarda sug'urta kompaniyalar ixtiyorida bo'lgan bo'sh mablag'larni investitsiya ob'ektlariga joylashtirishga chegara qo'yilmagan. Qaysi investitsiya ob'ekti daromadli bo'lsa shu investitsiya ob'ektiga ixtiyorida bo'sh bo'lgan mablag'ni yo'naltiradilar kelgusida samaradorlikka erishadilar. Man shu jihatlar O'zbekiston sharoitida faoliyat olib sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati bilan farq qiladi va ajralib turadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

IV-BOB. O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

§4.1. Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi va takomillashtirish yo‘llari

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati jalb qilingan vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larga asoslangan bo‘lishi munosabati bilan, ularning ushbu faoliyati davlat tomonidan tartibga solib borishga ehtiyoj mavjud. Ushbu faoliyatni davlat tomonidan nazoratda ushlab turilishiga sabab faqat bu emas, balki bu faoliyatda ushbu mablag‘lar egalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etmasligi va sug‘urta kompaniyalarining ushbu faoliyatini ular tomonidan kuzatib borilmasligi va nazorat qilinmasligidir.

Sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda ikkita asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin:

sug‘urta tashkilotlarining xususiy kapitalini joylashtirish faoliyatini nazorat qilish;

jalb qilingan mablag‘lardan shakllangan sug‘urta zahiralarini joylashtirish faoliyatini nazorat qilish.

Nazorat organlari tomonidan sug‘urta faoliyatini nazorat qilish yuqori darajada sug‘urta zahiralarini taqsimlanishi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Buning asosiy sababi, sug‘urta zahiralarini sug‘urta kompaniyasining jalb qilingan moliyaviy mablag‘lar kategoriyasiga kirishidadir¹⁶⁶. Sug‘urta zahiralarini sug‘urtalovchining sug‘urta qildiruvchilar oldidagi bajarilmagan majburiyatlarini baholashni anglatadi. Sug‘urta kompaniyasi tomonidan ushbu majburiyatlarni bajarish zarurati har qanday vaqtda paydo bo‘lishi mumkin, shu sababli qonun hujjatlarida ushbu mablag‘larni investitsiyalashga ma’lum cheklovlar belgilanadi. Sug‘urta faoliyatining sohaga xos xususiyati shundan dalolat beradiki, sug‘urta tashkilotlarining aksariyati sug‘urtalovchi investitsiyalarining asosiy manbai sifatida sug‘urta zahiralaridan foydalanadi. Shu bilan birga, milliy va jahon sug‘urta bozorlaridagi hozirgi tendensiyalar kapitallashuvning o‘ssishi, sug‘urta

¹⁶⁶Насырова Г.А. Инвестиционная составляющая страхования.//Финансы и кредит. 24 (192)-2005

kompaniyalarining o'z mablag'lari ulushining ko'payishi bilan tavsiflanadi. Ushbu hodisalar sug'urta nazoratining qat'iy talablari va bozorni tartibga solish borasidagi sa'y-harakatlarining natijasi deyish mumkin.

Sug'urta nazorati organlari tomonidan sug'urta zahiralarini joylashtirish bo'yicha qo'yiladigan talablar shartli ravishda bir nechta asosiy qoidalarga ajratilishi mumkin. Qoida tariqasida, ushbu talablar millatlararo xususiyatga va tegishli bozor infratuzilmasiga ega bo'lgan deyarli har bir mamlakatda amalga oshiriladi. Bularga quyidagilar kiradi:

birinchi navbatda davlat tomonidan investitsiya turlarining qabul qilinishi aniqlanadi. Qonun sug'urta kompaniyasi foydalanishi mumkin bo'lgan investitsiyalar turlari ro'yxatini belgilaydi. Qabul qilingan ro'yxat maqbul yoki ruxsat etilgan investitsiyalar (aktivlar, investitsiyalar) deb nomlanadi;

Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zahiralarini shakllantirish va ularni joylashtirish tartibini hamda ular bo'yicha hisobot yuritish tartibini belgilash sug'urta sohasini tartibga solish bo'yicha vakolatli organning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini rivojlantirishda, ularning investitsiya faoliyatidan tushgan daromadlari katta ahamiyatga egadir. Ammo investitsion faoliyat asosan vaqtinchalik jalb qilingan mablag'lar (sug'urta zahiralar) hisobiga amalga oshiriladi. Shuning uchun sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar orqali amalga oshirib kelinmoqda:

investitsiya faoliyati bilan bog'liq qonunchilik bazasini yaratish va takomillashtirish orqali;

investitsiya sohasi uchun alohida soliq tizimini qo'llash, soliq to'lovchilar va soliq ob'ektlarini differensiyalovchi soliq stavkalari va ular bo'yicha imtiyozlar berish orqali;

asosiy fondlar amortizatsiyasini qo'llashni tezlashtirish orqali;

qoida va standartlar hamda me'yorlarni o'rnatish orqali;

monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash orqali;

kredit siyosati va bahoni shakllantirish siyosatini olib borish orqali;
yer va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va foydalanish shartlarini
aniqlash orqali;

investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmini o'rnatish orqali;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringini olib borish va boshqalar.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatining iqtisodiyotdagi ahamiyati, ularning har bir sug'urtalanuvchiga sotayotgan sug'urta mahsulotlarining shartlari va investitsiya operatsiyalarini davlat tomonidan nazorat qilish zaruriyati yuzaga keladi.

Sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini tartibga solishning ob'ekti bo'lib, sug'urtalovchilarning sug'urtalanuvchilar oldida olgan majburiyatlarni bajarish maqsadida shakllantirgan sug'urta zahiralari hisoblanadi. Respublika qonunchiligida o'rnatilgan talablar asosida investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar difersifikatsiya, foydalilik, qaytishlik va likvidlik shartlariga javob berishi lozim. Bundan tashqari, hozirgi paytda jahon tajribasida boshqa tamoyillar asosida ham tartibga solinadi. Sug'urta zahiralari vaqtincha bo'sh turgan maxsus sug'urta resurslari bo'lib, unga sug'urtalovchining daromadi sifatida qaralmaydi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 3-iyulidagi 68-son buyrug'i bilan amalga kiritilgan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi Nizom", ushbu vazirlikning 2008-yil 20-noyabrdagi 107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida"gi nizom hamda ushbu vazirlik tomonidan 2008-yil 22-aprelda 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi"gi nizomlar asosida sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilar tomonidan investitsiya faoliyati amalga oshiriladi. Ushbu Nizomlarga ko'ra, quyidagilar sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya faoliyatining ob'ektlari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;

xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari;

bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);
kredit tashkilotlariga qo'yilgan omonatlari (depozitlar);
ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, usunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;
yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan¹⁶⁷ qimmatli qog'ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan hamda qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiyalarni qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa ob'ektlarga ham amalga oshirishi mumkin.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga majbur:

a) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom" bilan belgilangan sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid talablarga va O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risidagi nizom" bilan belgilangan sug'urta zahiralarini joylashtirish tartibiga oid talablarga rioya qilish;

b) moliyaviy, texnik va axborot resurslari mavjudligini ta'minlash;

v) mablag'larni investitsiya qilish maqsadga muvofiqligi haqida mas'ul shaxsning yozma xulosalarini olish;

g) mas'ul shaxsning ushbu Nizom bilan belgilangan malakaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash¹⁶⁸.

¹⁶⁷O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 3-iyulidagi 68-son buyrug'i bilan amalga kiritilgan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi Nizom

¹⁶⁸O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi Nizom

Sugʻurta kompaniyasining dastlabki moliya manbai boʻlib, nizom jamgʻarmasi hisoblanadi. Respublikamiz qonunchiligi boʻyicha litsenziya olgunga qadar kompaniyaning 90 foiz nizom jamgʻarmasi pul koʻrinishda shakllangan boʻlishi talab etiladi.

Amaldagi, 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunning “Sugʻurtalovchining huquq va majburiyatlari” deb nomlangan 14-moddasida sugʻurtalovchining huquqlaridan biri sifatida investitsiya faoliyati bilan shugʻullanishi mumkinligi belgilab qoʻyilgan. Mazkur qonunda sugʻurtalovchining investitsion faoliyati toʻgʻrisida boshqa biror tushuncha keltirilmagan, vaholanki, investitsiya faoliyati sugʻurta tashkilotlarining funktsiya darajasidagi doimiy faoliyati hisoblanadi.

Sugʻurta tashkilotlari tasarrufida katta miqdordagi moliyaviy resurslarning toʻplanishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muhim rol oʻynashini koʻrsatadi. Sugʻurta qiluvchilar tomonidan doimiy ravishda sugʻurta operatsiyalarining amalga oshirilishi natijasida moliyaviy resurslarning toʻplanishi sugʻurtani faol investitsion siyosatni amalga oshiriladigan iqtisodiyotning asosiy sohasiga aylantiradi. Boshqacha soʻz bilan aytganda, sugʻuratlovchilar turli polis egalaridan olingan passiv pul mablagʻlarni moliya bozorida harakat qiluvchi aktiv kapitalga aylantirishadi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning bunday usulidan dunyoning aksariyat mamlakatlarida foydalaniladi. Ushbu usuldan foydalanish boʻyicha AQSh, Yaponiya, Rossiya va Yevropaning yetakchi mamlakatlarida belgilangan meʼyorlar 4.1-jadval orqali taqqoslangan. Jadvaldan koʻrish mumkin, davlat qimmatli qogʻozlariga Rossiyadan boshqa davlatlarda cheklovlar belgilanmagan.

Rossiyada davlat qimmatli qogʻozlariga investitsiya yoʻnaltirish shartligi va u 15 foizdan kam boʻlmasligi kerakligi belgilab qoʻyilgan. Davlat subʼektlari va munitsipal qimmatli qogʻozlarga investitsiya mablagʻlarini yoʻnaltirishga Angliyadan boshqa keltirilgan barcha davlatlarda katta ulush ajratilganligini koʻrish mumkin. AQShda ushbu yoʻnalishda munitsipal obligatsiyalarga keng yoʻl

berilgan. Mamlakatimizda mahalliy obligatsiyalarni muomalaga chiqarish talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi ushbu yo'nalishga cheklov qo'yilmagan bo'lsada, ushbu imkoniyatdan samarali foydalanish imkoniyatini bermaydi.

Sug'urta kompaniyasining kassasida saqlash lozim bo'lgan pul massasiga minimum chegara belgilash keltirilgan mamlakatlarning birortasida (O'zbekistondan tashqari) mavjud emas. Bizning nazarimizda bunday minimum chegaraning o'rnatilishi anchagina miqdordagi pul mablag'larining sug'urta kompaniyasi hisob raqamida harakatsiz saqlab turilishiga sabab bo'ladi va daromadlilikning pasayishiga olib keladi.

4.1-jadval

“Sug'urta kompaniyalari zahiralari joylashtirish bo'yicha chet mamlakatlar va O'zbekistonda belgilangan talablar nisbati¹⁶⁹”

Investitsiya sohalari	Germaniya	Fransiya	Yaponiya	AQSh	Angliya	Rossiya	O'zbekiston
Davlat qimmatli qog'ozlari	-	-	-	-	-	<15	cheklovsiz
Davlat sub'ektlari va munitsipal qimmatli qog'ozlar	<30	<65	<30	<49	<2	<30	-
Bank depozitlari	-	-	-	-	-	<50	<40
Investitsiya paylari	-	-	-	-	-	<10	-
AJ aksiya va obligatsiyalari	-	-	-	<4	-	<20	-
Ustav fondida ishtirok	-	-	-	-	<60	<10	<50 1<30
Uy-joy sertifikati	-	-	-	<17	<2	<5	-
Ko'chmas mulklar	<20	<40	<20	<17	<20	<40	<50
Valyuta qimmatliklari	-	-	-	-	-	<10	-
Ssudalar	<10	<50	<55	<4	<2	-	<10
Hisob raqamida saqlash	-	-	-	-	-	cheklov siz	Активация Чтобы активировать

Shuni ta'kidlash kerakki, sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini qonunlar va qoidalar asosida nazorat qilish nafaqat sug'urta fondlarining hajmi va ulushini aniqlashi, balki aktivlarning aniq joylashgan o'rnini aniqlashi, alohida aktivlarning to'lov qobiliyati va investitsiyalash koeffitsientlarini ham aniqlashga

¹⁶⁹Muallif tomonidan tayyorlangan.

qaratilgan bo'lishi kerak. Sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larini yo'naltirishda, ob'ektning to'lov qobiliyatiga e'tibor qaratishi zarur. O'z o'rnida nazorat organi sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini doimiy nazorat qilib borishi zarur. Albatta bugungi kunda bunday nazoratni tizimli ravishda amalga oshirish uchun informatsion texnologiyalardan foydalanish nazoratning eng maqbul va samarali yo'li hisoblanadi.

Ushbu tizimni amalga oshirishda sug'urta kompaniyasining to'lovga qobilligini aniqlash uchun 25 ta ko'rsatkichdan foydalaniladi va ushbu ko'rsatkichlarning ballari sug'urta kompaniyasining so'nggi 3 yillik moliyaviy hisobotlari asosida hisoblanadi¹⁷⁰. Sug'urta nazoratchilari milliy assotsiatsiyasi olingan natijalarga asoslangan holda, sug'urta kompaniyasiga qaysi nazorat usulini qo'llash to'g'risida qaror qabul qiladi. Odatda sug'urta kompaniyasiga nisbatan nazoratning qanday aniq choralari qo'llanilishi to'g'risidagi qarorni davlat sug'urta nazorati organi qabul qiladi.

1970-1990-yillar oralig'ida Angliya hukumati bosqichma-bosqich qonunchilik hujjatlarini qabul qilish va tizimli islohotlarni amalga oshirish orqali sug'urta sohasini tartibga solishning mukammal huquqiy tizimini yaratdi va ushbu tizim Angliya sug'urta bozorini rivojlanishning yanada sog'lom yo'lga olib o'tdi. Ushbu davlatda 1997-yilda yangi tartibga soluvchi agentlik "Moliyaviy xizmatlar agentligi" (FSA) bank tizimi, qimmatli qog'ozlar va sug'urta sohasining yagona nazorat organi sifatida faoliyat boshladi. 2005-yildan boshlab umumiy sug'urta sohasidagi nazoratni Moliyaviy xizmatlar byurosi amalga oshirdi. Shunindek 2010-yilda Angliya hukumati moliyaviy tartibga solish tizimini qayta tashkil qilgan holda, moliyaviy xizmatlar nazoratining yagona boshqaruvini ikkita yangi huquqiy vorisga yukladi. Shu bilan birga, Angliya sug'urta assotsiatsiyasi ham ushbu mamlakat sug'urta nazorati tizimida muhim o'rin tutadi. Angliya hukumati va Sug'urta assotsiatsiyasining birgalikdagi harakati bilan sug'urta tarmog'i ustidan nazoratning yangi tizimi shakllantirildi. Ushbu tizimning asosida sug'urta brokerlari nazorati tizimi, o'z-o'zini tartibga soluvchi sug'urta tarmog'i – Lloyds

¹⁷⁰Sun He. Research on U.S. Insurance Fund Stock Investment Supervision. BeiJing: BeiJing University, 2017, –P.7-9.

va Yevropa ittifoqi sug'urta sohasining to'lovga qobillik II standarti (Solvency II) yotadi. Ammo davlat nazorati nisbatan zaif. Shunday bo'lsada, sug'urta kompaniyalari javobgarlikni his qilgan holda o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda va tartibga soluvchi organlar sug'urta kompaniyalari va boshqa professional ishtirokchilar faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatmaydi. Normativ talablarda sug'urta kompaniyalari tomonidan shakllantiriladigan risklarning me'yoriy zahiralari va marjasi aniq belgilangan, ammo sug'urta mablag'laridan foydalanishning hajmi va ulushlari nuqtai-nazaridan o'rnatilgan cheklovlar ko'p emas.

Yaponiyada sug'urta kompaniyalari faoliyati va boshqaruvi nisbatan yuqori darajada, ushbu faoliyatni tartibga solish tizimi juda to'liq va samarali. Ularda sug'urtani tartibga solish tizimining rivoji bo'yicha katta tajriba to'plangan. Sug'urta tarmog'ini nazorat qilish modeli va rivojlanish jarayoni o'ziga xosliklarga ega bo'lib, ushbu modelda asosan yagona nazorat tizimining mavjudligi ko'zga tashlanadi, ya'ni Sug'urta nazorati milliy agentligi muassasalari nazoratning yagona tizimi asosida faoliyatni yo'lga qo'ygan¹⁷¹.

2001-yilda moliyaviy nazoratning mustaqilligini ta'minlash maqsadida, Yaponiya Moliyaviy nazorat departamenti va Moliya vazirligining Moliyaviy statistika byurosi birlashtirilgan. Ular asosan moliyaviy tizimning shakllanishi va moliyaviy nazoratni amalga oshirish uchun javobgar hisoblangan. Moliyaviy tizimni shakllantirish komissiyasi va Moliyaviy nazorat departamentining birlashtirilishi va banklar, qimmatli qog'ozlar hamda sug'urta sohalari ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Ofisning tashkil etilishi o'ziga xos takomillashuvni ta'minladi.

Yaponiya hukumati sug'urt a fondlaridan foydalanish bo'yicha yagona qonunchilik hujjatini ishlab chiqqan bo'lib, unda mablag'lardan foydalanish hajmining me'yorlaridan tashqari, foydalanish nisbatlari (proporsiya) ham belgilab qo'yilgan. Masalan, aksiyalarga mablag' yo'naltirish jami aktivlarning 30 foizidan oshmasligi, alohida korporativ obligatsiyalar yoki aksiyalar sotib olish hajmi 10

¹⁷¹Sun Shuqiang, Zhang Xinyi. Japanese Financial Holding Company Regulatory Thinking and Its Enlightenment to my country // Contemporary financiers.–2020.– No 8.– P.111-113.

foizdan oshmasligi kerak.

AQSh va Yevropa mamlakatlariga nisbatan Yaponiyada sug'urta fondlaridan foydalanishga nisbatan ma'muriy aralashuv ancha yuqori. Yaponiyada sug'urta fondlaridan foydalanishda sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini miqdoriy nazorat qilish modeli qo'llaniladi. Ushbu model sug'urta kompaniyalarining muayyan turdagi aktivlarga investitsiya qilishning maksimal koeffitsientini belgilaydi. Asosiy kanallar obligatsiyalar va depozitlar bo'lib, ularning katta qismi xorijiy bozorlarga investitsiya qilinadi.

Shu bilan birga, Yaponiya to'lov qobiliyatini nazorat qilishning yetuk modelini yaratgan bo'lib, bu to'lov qobiliyatining haqiqiy miqdori va to'lov qobiliyatining minimal huquqiy miqdoriga asoslangan va dinamik sinov, me'yoriy ko'rsatkichlarning kompleks tizimi va sug'urta himoyasi bilan to'ldirilgan to'lov qobiliyatining yetarlilik koeffitsientidagi o'zgarishlarni kuzatadi. Shu bilan birga, ushbu model sug'urta kompaniyalarining sug'urta majburiyatlarini bajarishga xizmat qiluvchi boshqa jamg'armalar va mablag'larning ham to'lov qobiliyatini kuzatib boradi¹⁷².

To'lovga qobillikni nazorat qilish prinsiplariga mos ravishda, Yaponiya sug'urta sohasini tartibga soluvchi organlari borgan sari tartibga solishning turli chegaralirini kamaytirishga va shu asosda bozorga kirish imkoniyatlarini oshirishga harakat qilgan holda bozorga innovatsiyalarning kirib kelishi va raqobatning kuchayishiga yo'l ochib bermoqda.

AQSh, Angliya va Yaponiya sug'urta bozorlarida sug'urta kompaniyalarining o'z sug'urta zahiralaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatini tahlil qilish davomida shunday xulosaga keldikki, ular sug'urta kompaniyalarining mazkur faoliyatini asosan ikki usul bilan nazorat qiladi.

Birinchi usul – bu qat'iy nazorat bo'lib, ushbu usul AQSh tomonidan taqdim etilgan. Ushbu usul orqali nazorat organlari ko'pincha sug'urta kompaniyalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risk va riskka yo'l qo'yish

¹⁷²Wang Weixing, Zhao Hong. Analysis and Enlightenment of Japanese Insurance Company Inspection Rating System // Financial Sight. – 2017. – No 10. – P.15-17.

natijasida olinadigan samarani aniqlash uchun ma'lum usullardan foydalanadilar, so'ngra sug'urta kompaniyalari sarmoya kiritishlari mumkin bo'lgan turli xil mahsulotlar yoki aktivlar ulushiga cheklovlar qo'yadilar. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari ega bo'lishi talab qilinadigan to'lov qobiliyati va sug'urta tashkilotlari aktivlarining likvidligi bunday qat'iy nazorat usuli orqali risklarni kamaytirish va sug'urta kompaniyalarining sog'lom rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida nazorat ostida saqlanadi.

Ikkinchi usul - Yaponiya va Angliya tomonidan taqdim etilgan, nisbatan erkin nazorat usuli hisoblanadi. Amerika usulidan farqli o'laroq, ushbu usuldan foydalangan nazoratchilarni ko'proq sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati qiziqtiradi. Sug'urta kompaniyalarini tartibga solishning miqdoriy standartlari nazorat organlari tomonidan sug'urta kompaniyalari aktivlari va majburiyatlarining o'zaro mos kelishiga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Investitsiya jarayonida nazorat organlari faqat miqdoriy standartlar asosida ma'lum chegaralarni belgilaydilar.

Sug'urta fondlarini nazorat qilishning Xitoy usuli bilan solishtirganda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, u erkin nazorat modelini yoki qat'iy nazorat modelini qabul qilishidan qat'i nazar, nazorat organlari sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati ustidan nazorat choralari kuchaytirishda davom etmoqda. Biroq, iqtisodiy rivojlanishning kuchayib borishi bilan sug'urta mablag'laridan foydalanish xususiyatlari ham tez o'zgarib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda, sug'urta nazorati organlari tomonidan sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatiga nisbatan qo'llaniladigan tartibga solish choralari ham doimiy ravishda yangilanishi, doimiy takomillashtirilishi va dinamik ravishda kuzatib borilishi kerak.

Ko'pgina adabiyotlarda¹⁷³ ta'kidlanganidek, sug'urta kompaniyalarining sug'urta faoliyati va nafaqat sug'urta faoliyati, balki investitsiya faoliyati ham turli risklar bilan bog'liq holda amalga oshadi. Ushbu risklarning kutilmaganda yuzaga

¹⁷³Ларионов А.В. Роль Банка России в регулировании рисков деятельности страховых компаний // Финансы и кредит. 2018. Т. 24. № 3. С. 679—690.

kelishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat davlatning tartibga soluvchisi tomonidan sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini chegaralab qo'yishiga sabab bo'ladi. Bunday holatda investitsion portfel sifatini ta'minlash ushbu sohani davlat tomonidan optimal boshqarishga bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi tomondan, investitsion faoliyatning samaradorligi va turli risklardan xoli bo'lishi sug'urta kompaniyasiga, u tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya siyosatiga va bu boradagi sug'urta kompaniyasining tajribasiga bog'liq. Ammo sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati uning asosiy faoliyati emasligi uning bu borada tajribasi yetarli bo'lmasligiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda, ko'plab mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatni to'liq holda yoki bir qismini ishonchli boshqaruvchiga topshiradi. Masalan, Rossiyada sug'urtalovchilar davlat tomonidan belgilangan tartibga ko'ra, o'zlarining sug'urta zahiralarining 50 foizgacha bo'lgan qismini ishonchli boshqaruvchiga berishi mumkin¹⁷⁴.

Mamlakatimizda bunday amaliyot mavjud emas. Chet el tajribasidan kelib chiqqanda, ushbu amaliyot investitsion faoliyatning barqarorligini va samaradorligini ta'minlaydi. Chunki har qanday faoliyatni professional tarzda amalga oshirilganda u samarli va turli risklardan xoli bo'ladi. Faqat mamlakatimizda buning uchun professional boshqaruvchi kompaniyalar yetarli bo'lishi talab etiladi. Yaqin kelajakda mamlakatimiz sug'urta kompaniyalarining investitsion mablag'lari hajmi katta hajmni tashkil etadi va boshqaruvchi kompaniyalar soni ko'payib ushbu faoliyatni amalga oshiradi.

Ishonchli boshqaruv sug'urtalovchi uchun investitsiya yechimi sifatida bugungi kunda muhim hisoblanadi. Uning muhimligi sohaning ommaviyligi, sug'urta tashkilotlari investitsiya salohiyatining yuqoriligi, shuningdek, ishonchli boshqaruvga o'tkazish imkonini ta'minlaydigan huquqiy infratuzilmaning mavjudligi bilan belgilanadi. Ishonchli boshqaruv bosqichida boshqaruv

¹⁷⁴Ларионов А.В. Роль Банка России в регулировании рисков деятельности страховых компаний // Финансы и кредит. 2018. Т. 24. № 3. С. 679—690.

kompaniyasiga aktivlarni noto'g'ri ishlatishdan himoya qilishni ta'minlaydigan bir qator mas'uliyat va cheklovlar yuklangan, xususan: o'z faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq oshkor qilish majburiyati bilan tartibga soluvchi oldida javobgarlik. Boshqaruv kompaniyasining investitsion faoliyati investitsiya deklaratsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi, ushbu deklaratsiya qonun bilan belgilangan barcha cheklovlar va talablarni, shu jumladan investitsiya portfelining tarkibi va tuzilishini ochib beradi.

Ishonchli boshqaruv bozorida aksariyat hollarda bank guruhlarini tarkibida tashkil qilingan boshqaruvchi kompaniyalar ustunlik qiladi, bu esa yangi tuzilgan boshqaruvchi kompaniyaga, oldingan shakllantirilgan aktivlar bilan ishlash huquqini beradi. Ko'plab boshqaruvchi kompaniyalar faqatgina boshqa tashkilotlar aktivlari uchun emas, balki o'zlari a'zo bo'lgan bank guruhlarining ularga ishonch bildirilgan aktivlari uchun ham javobgarlik olib boradi. Masalan, Rossiya boshqaruvchi kompaniyalarida 2017-yilda sug'urta kompaniyalarining 78 420 mln.rubl mablag'lari to'plangan bo'lib, bu sug'urta kompaniyalari jami sug'urta zahiralarning 7,34 foizini tashkil etgan¹⁷⁵.

Moliya bozorlarini tartibga solish rivojlangan va ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilmoqda. Bu esa boshqaruvchi kompaniyalar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarning to'liq ochiqligini ta'minlaydi, tovlamachilik holatlarini minimal darajaga olib kelmoqda. O'z mijozlari uchun investitsion portfelni shakllantirish barobarida, boshqaruvchi kompaniya mijoz tomonidan kutilgan daromadlilik va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potentsial zararlilik ustidan boshqaruvni amalga oshiradi.

Portfelni boshqarish davomida zararlilik darajasining ortish holati yuzaga kelganda, investitsion strategiyani birgalikda qayta ko'rib chiqish uchun bu to'g'rida sug'urta kompaniyasiga xabar beradi. Bundan tashqari, ushbu faoliyatda mijozga boshqaruvchi kompaniya tomonidan portfel qiymati to'g'risidagi ma'lumotni va boshqaruvchi kompaniyaning umumiy faoliyati to'g'risidagi

¹⁷⁵Fondlar va boshqaruvchi kompaniyalar reytingi va renkingi.URL:<http://investfunds.ru/>

ma'lumotlarni taqdim qilish prinsiplari ham mujassamlashgan¹⁷⁶. Investitsion faoliyatni yo'lga qo'yishning mazkur usulida erishiladigan daromadlilik eng kamida inflyatsiya darajasidan yuqori bo'ladi va boshqa konservativ instrumentlar daromadlilikidan yuqori bo'ladi.

Ishonchli boshqaruv bozori shu bilan birga, sug'urta kompaniyasining asosiy faoliyati sug'urtalashdan iborat ekanligi va investitsion faoliyat uning ikkinchi darajali faoliyati ekanligidan kelib chiqqanda, investitsiya sohasida kuchli tahliliy instrumentga ham ega. Sug'urta kompaniyalari boshqaruvchi kompaniyalarning bu boradagi faoliyati bo'yicha ham hamkorlik qilishi o'z faoliyatini yanada samarali yo'lga qo'yish imkonini beradi.

§4.2. Sug'urta tashkilotlari investitsiya portfelini boshqarish va uning optimalligini ta'minlash yo'llari

Sug'urta kompaniyalari xalqaro investitsiyalarni hisobga olmaganda, investitsiya sohasida tijorat banklaridan keyin ikkinchi o'rinni egallamoqda. 2023-yil natijalari bo'yicha, sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 6,1 trln.so'mdan ortiqni tashkil qilib, bu 2019-yilga nisbatan salkam 2,3 baravar ortganligini ko'rsatadi. Ammo shu bilan birga, bir holatni ta'kidlab o'tish kerak, sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larini bundan o'n yil oldin ham asosan bank depozitlariga va aksiyalarga yo'naltirgan bo'lib, qolgan qismi ko'chmas mulk sotib olish, ustav sarmoyasiga ulush kiritish, ssuda berish va boshqalarga yo'naltirilgan bo'lsa, hozirda ham investitsiya tarkibi shunday, faqat bank depozitlarining hissasi yanada ortgan.

Shuni ta'kidlash kerak, mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmining o'sish dinamikasiga nisbatan sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning o'sishi yuqoriroq kechmoqda, ya'ni so'nggi besh yil ichida YaIM hajmi 2,08 baravar o'sgan bo'lsa, sug'urta kompaniyalari investitsiyalari 2,3 baravar o'sishga erishdi.

¹⁷⁶Астапов К.Л. Перспективы доверительного управления в Российской Федерации: реформа на основе мирового опыта//Денги и кредит.2015.№4.С.33-37.URL:<http://www.cbr.ru/publ/MoneyAndCredit/astapov04/15.pdf>

Odatda sug'urta kompaniyalari sug'urta shartnomalari bo'yicha oladigan majburiyatlarini bajarish muddatini o'z investitsion aktivlarining qaytish muddatiga belgilaydilar. Sug'urta sohasining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, uzoq muddatli barqarorlik sug'urta fondlarining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi va bu xususiyatlar sug'urta fondlariga moliya bozorlari, ko'chmas mulk va infratuzilma qurilishining doimiy rivojlanishiga hissa qo'shishga imkon yaratadi¹⁷⁷. Katta hajmga ega bo'lgach, sug'urta fondlari kapital bozoridagi o'zgaruvchanlikni samarali ravishda cheklash, moliya bozoridagi xatarlarni kamaytirish va moliya sektorining uzluksiz rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mamlakatda obligatsiyalar bozori shakllangan holatda, sug'urta kompaniyalarining obligatsiyalar bozoriga investitsiyalar kiritishi qimmatli qog'ozlarning uzoq muddatli turlariga talabni oshiradi va kompaniya uchun moliyalashtirishning murakkabligi va narxini kamaytiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, sug'urta kompaniyalari mablag'larini o'rta va uzoq muddatli yirik loyihalarga investitsiya qilish, sug'urta kompaniyalariga barqaror rivojlanish uchun o'z ehtiyojlarini ta'minlaydigan va shu bilan birga boshqa tarmoqlarning o'sishi hamda rivojlanishini tezlashtiradigan barqaror daromad stavkasini olish imkoniyatini beradi. Agar bunday uzoq muddatli va yirik loyihalar davlatga tegishli bo'lsa, sug'urta kompaniyalari uchun yanada xavfsiz va samarali bo'ladi.

Shuningdek tijorat banklar depozitlari sohasida sug'urta kompaniyalari o'zlarining investitsion faoliyati orqali banklarga asosiy depozitlar uchun yetarli mablag' ajratib, ularning kreditlash faoliyatiga kuchli yordam ko'rsatadi.

Obligatsiyalar bozorida sug'urta kompaniyalari eng kuchli investorlardan biriga aylanadi va ularning ishtiroki obligatsiyalar bozorining jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati moliyalashtirishning muhim manbai sifatida ishtirok etibgina qolmay, balki bozorning jadal rivojlanishidan kelib chiqadigan yangi ehtiyojlarni

¹⁷⁷Liao Pu. The Positive Role of Property Insurance towards Long- term Economic Growth-From the Risk Transfer and Compensation Function Perspective // Insurance Studies.– 2017.– No 6.– P.32-46.

qondirish maqsadida moliya institutlarini innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etishga majbur qilishi mumkin.

Xitoy misolida olib qaraydigan bo'lsak, "so'nggi yillarda Xitoyda sug'urtani tartibga solish siyosatini isloh qilish natijasida, mahalliy davlat infratuzilmasini qurishga investitsiya qilingan sug'urta mablag'larining ulushi sezilarli darajada ortdi va sug'urta kompaniyalariga yuqori texnologiyali xavf sohalariga sarmoya kiritishga ruxsat berildi. Masalan, bugungi kunda yuqori tezlikli temir yo'llar, 5 G aloqa tarmoqlari va energiya ishlab chiqaruvchi yangi stansiyalarga sug'urta kompaniyalari tomonidan katta hajmdagi investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Natijada, sug'urta fondlari yangi qurilish uchun yetarli va barqaror moliyalashtirishni ta'minladi va ijtimoiy iqtisodiyotning o'sishiga bevosita hissa qo'shadigan Xitoy infratuzilmasi shakllandi"¹⁷⁸. Sug'urta sanoatining infratuzilma qurilishiga investitsiyalari bilvosita po'lat va sement ishlab chiqarish kabi boshqa tegishli sohalarning rivojlanishini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, u ichki bozorda ish o'rinlari sonini ko'paytirishi, aholining bandligi va daromadlari darajasini oshirishi¹⁷⁹, iste'mol o'sishini yanada rag'batlantirishi, rivojlangan ichki iste'mol bozorining shakllanishini tezlashtirishi va yaxshi sikl rivojlanishini amalga oshirishi mumkin.

Sug'urta faoliyatining barqarorligini ta'minlash masalasi birinchi darajadagi masala ekanligi sug'urta kompaniyalari faoliyatida jalb qilingan mablag'larning katta hajmni tashkil etishi va o'z o'rnida ularning sug'urtalanuvchilar oldida olayotgan javobgarliklarining katta hajmda ekanligi bilan bog'liq. Barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'li kompaniya sug'urta portfelining optimalligini ta'minlashdir. Optimallikni ta'minlash esa sug'urta portfelini samarali boshqarish orqali amalga oshadi.

Dastlab investitsiya portfeli shakllantirilganda, uni keyingi boshqarish sxemasini tanlash zarur bo'lib, bu bo'yicha quyidagi variantlarni keltirish mumkin:

¹⁷⁸ Се, Сяохэ. Тенденции цифровой трансформации страховой отрасли Китая после педенции COVID-19 / С. Се // Вестник Томского государственного университета. Экономика. – 2021. – № 54. – С. 229-238.

